

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/04.06.2020.Fil.113.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida
UO'K: 811.512.133'373:821.
512.113.09

QODIROVA GULNOZA SOLIXUDJAYEVNA

**FOZIL YO'LDOSH O'G'LI "ZEVARXON" DOSTONINING LISONIY
XUSUSIYATLARI**

10.00.01 – O'zbek tili

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Dostor of Philosophy) ilmiy
darajasini olish uchun tayyorlangan**

D I S S E R T A T S I Y A

**Ilmiy rahbar: G.U.Jumanazarova,
filologiya fanlari doktori, professor**

Jizzax – 2024

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. BADIY MATN TILINING LEKSIKOGRAFIK VA STATISTIK TADQIQOTLARI TAHLILI.....	11
1.1-§. Yozuvchilik leksikografiyasi tadqiqotlari tahlili.....	11
1.2-§. Folklor matnlari statistikasidagi tadqiqotlar tahlili.....	26
1.3-§. “Zevarxon” tili tadqiqidagi statistik metod-usullar va ularning statistik tahlili.....	30
Bob bo‘yicha xulosalar.....	47
II BOB. “ZEVARXON” DOSTONI TILINING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI (mustaqil so‘z turkumlari kesimida).....	48
2.1-§. Narsa-predmetlarning nomlarini, harakat va holatni ifodalovchi so‘zlar.....	48
2.2-§. Belgi-xususiyatni, ish-harakat va holatning belgisini ifodalovchi so‘zlar.....	63
2.3-§. Miqdor va sanoq tushunchalarini ifodalovchi va ishora bildiruvchi so‘zlar.....	73
2.4-§. Mustaqil so‘z turkumlari qo‘shimchalarining yasalish xususiyatlari.....	88
Bob bo‘yicha xulosalar.....	96
III BOB. “ZEVARXON” DOSTONIDA QO‘LLANILGAN LEKSIK BIRLIKLARNING GENETIK, TARKIBIY-MAZMUNIIY XUSUSIYATLARI.....	98
3.1-§. “Zevarxon” dostonidagi o‘z va o‘zlashgan so‘zlarda ko‘p ma’nodlilik.....	98
3.2-§. “Zevarxon” dostonidagi eskirgan va tarixiy so‘zlar.....	112
Bob bo‘yicha xulosalar.....	119
UMUMIY XULOSALAR.....	121
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	123

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida sanoq usuli – chastotalarni hisoblash ishlari, muayyan shoir va yozuvchilar yoki ularning alohida olingan asarlari matni yuzasidan lug‘atlar tuzish, xalq og‘zaki ijodi namunalarining lingvistik xususiyatlarini aniqlashtirish borasida jiddiy ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, leksikografik manbalarini yaratish, lingvostatistika masalalari talqiniga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu borada milliy dostonlarning lisoniy xususiyatlarini, qonuniyatlarni aniqlash zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Dunyo tilshunosligida jahonga tanilgan yozuvchi va shoirlar asarlari matni asosida tuzilgan leksikografik hamda lingvostatistik lug‘atlardagi so‘zlarning chastotasi, qo‘llanilish darajalari, davr leksikasidagi o‘rni masalalari, shuningdek, yirik epik asarlar tilidagi so‘zlarning genetik tarkibi, grammatik, semantik, stilistik, mazmuniy-mavzuiy guruhlanish xususiyatlarining ilmiy-nazariy tadqiqi bo‘yicha salmoqli tajribalar to‘plangan. Bu borada yozuvchi-shoirlar yoki xalq baxshilarining asarlarida qo‘llanilgan leksik birliklarning semantik, struktur xususiyatlari, tilning ichki omillari hisobiga boyib borishi imkoniyatlarini, o‘zlashgan so‘zlarning milliy lug‘at boyligimizga ta’sirini, sintagmatik-grammatik jihatdan muayyan tarkibli leksik birliklarning hosil bo‘lishi yuzasidan aniq ilmiy xulosalarga kelish hozirgi tilshunoslikda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda mumtoz adabiyot va folklor namunalarini o‘rganish, o‘z navbatida, ularni keng miqyosda ommalashtirish davlat siyosati darajasidagi vazifalar sifatida belgilangan. “...ma’naviy boyligimiz bo‘lmish mumtoz san’atni, xalq ijodining nodir namunalarini asrab-avaylash va rivojlantirish, uni kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish jahondagi ilg‘or fikrli olimlar va san’atkorlarning, davlat va jamoat arboblari, barcha madaniyat ahlining ezgu

burchidir”¹. Ayni vazifalarning ijrosini ta’minlashda “O‘zbek xalq ijodi yodgorliklari”ning 100 jildligini nashrga tayyorlash va tekstologik o‘rganish muammolariga e’tibor kuchaytirilganligi, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” besh jildlik nashri chop etilganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu ma’noda Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li kuylagan “Zevarxon” dostonining lisoniy xususiyatlarini keng qamrovda tahlil qilish, bundan dunyo ilm-fanini xabardor etish zaruratini yuzaga keltiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2018-yil 1-noyabrdagi PQ-3990-son “Xalqaro baxshichilik san’ati festivalini o‘tkazish to‘g‘risida”, 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4479-son “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilinganining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-dekabrdagi 984-son “Davlat tilini rivojlantirish departamenti to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг халқаро бахшичилик санъати фестивали очилишига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи // Халқ сўзи. - Т.: 2019. 7 апрель. - № 68.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahonda o‘zbek xalq dostonlarining lisoniy, tipologik, matniy va badiiy-estetik xususiyatlari xorijlik mutaxassis olimlar tomonidan muayyan darajada o‘rganilgan. Jumladan, rossiyalik L.M.Penkovskiy², fransiyalik Remi Dor³; olmoniyalik K.Rayxl⁴, koreyalik O.Ingyong⁵ va boshqalarning ilmiy tadqiqotlari shular jumlasiga kiradi.

O‘zbek tilshunosligida xalq dostonlari tiliga bag‘ishlangan fundamental tadqiqotlar salmoqli darajada yaratilgan. Bu borada Sh.Shoabdurahmonov, S.Tursunov, Z.Xolmanova, J.Xolmurotova, A.Rahimov, X.Toshmatov, Sh.Mahmadiyev, X.Ro‘zimboyev, S.Sariyev, A.Xoliqov, G.Jumanazarova, D.O‘rinboyeva, Q.Olloyorov, I.Umarov, N.Xadjimusayeva, A.Eshmurodov, D.Ashurov, Y.Xodjiyev va boshqalarning ilmiy tadqiqotlari⁶ xarakterlidir. Biz

² Каранг: Мирзаев Т. Достонлар гултожи // Ўзбек халқ ёдгорликлари. 1-жилд, –Тошкент: F.Фулом номидаги нашриёт – матбаа ижодий уйи, 2015. – 28 б.

³ Dor Remy. Nourali ou les aventures lyriques d’un heros epique. – Paris, 1991; Dor Remy. Nourali le Preux et Marghoumon Peri. Bilingue ouzbek-francais. IFEAC. – Paris, 2005. – P. 23-25.

⁴ Karl Rechl. Rawsan. Ein uzbekishes mundliches Epes. Otto Harrassowitz. Wiesbade, 1985; Райхл Карл. Тюркский эпос. – М.Вост. литер., 2008. – С. 211.

⁵ Ингён О. “Алпомиш” ва “Жумўнг” дostonларининг қиёсий-типологик таҳлили. Филол.фан.д-ри...дисс. – Тошкент, 2014. – 128 б.

⁶ Шоабдурахманов Ш. О художественных средствах языка поэмы “Равшан»: АКД.– Ташкент, 1949, – С. 28.; Турсунов С.Лексические особенности дастана “Алпамыш”: АКД. – Ташкент, 1990, – 33 б.; Холманова З. “Шайбонийхон” достони лексикаси (Пўлкан шоир варианты асосида): Филол.фан.номз...дисс.автореф. – Тошкент, 1998, – 39 б.; Холмуротова Ж. Шимолий Хоразм дostonлари лексикасининг функционал-услубий хусусиятлари: Филол.фан.номз...дисс. – Тошкент, 2000, – 28 б.; Рўзимбоев Х.С. Жанубий Хоразм дostonлари тилининг луғавий-маъновий таҳлили (“Шахриёр” ва “Маликаи Завриё” дostonлари мисолида) Филол.фан.номз...дисс.автореф. – Тошкент, 2000, – 32 б.; Сариев С.М. Хоразм “Гўрўгли” дostonларининг кўлэзма вариантлари. Филол.фан.номз...дисс.автореф. – Тошкент, 2007, – 108 б.; Раҳимов А.С. Ўзбек халқ дostonлари лексикасининг қиёсий-тарихий таҳлили (Эргаш Жуманбулбул ўгли ижоди мисолида): Филол.фан.номз...дисс.автореф. – Самарқанд, 2002, – 28 б.; Халиков А.А. “Гўрўглининг туғилиши” достони тилининг лексик-семантик хусусиятлари: Филол.фан.номз...дисс.автореф. – Тошкент, 2009, – 48 б.; Жуманазарова Г. “Ширин билан Шакар” дostonининг луғавий ва лингвопoeтик хусусиятлари (Фозил Йўлдош ўгли варианты асосида): Филол.фан.номз...дисс.автореф. – Тошкент, 2008, – 21 б.; Шу муаллиф. Фозил Йўлдош ўгли дostonлари тилининг лингвопoeтикаси (лексик-семантик, лингвостилистик ва лингвостатистик таҳлил). Филол.фан.д-ри...дисс. – Тошкент, 2017, – 145 б.; Ўринбоева Д. Халқ оғзаки ижоди: жанрий-лисоний ва лингвостатистик тадқиқ муаммолари, Филол.фан.д-ри...дисс. – Самарқанд 2019, – 128 б.; Оллоёров Қ.М. Хоразм дostonлари ономастикаси (“Гўрўгли” ва “Ошикнома” туркум дostonлари асосида). Филол. фан. фалс.док....дисс.автореф. – Самарқанд, 2018, – 46 б.; Умаров И. Фозил Йўлдош ўглининг “Малика айёр” достони лексикаси (тарихий-этимологик, функционал-семантик ва стилистик таҳлил). – Филол. фан. фалс.док....дисс.автореф. – Фарғона, 2020. – 7 б.; Хаджимусаева Н. “Орзигул” дostonининг статистик, семантик-стилистик ва лингвопoeтик тадқиқи. Филол. фан. фалс.док....дисс. – Жиззах, 2020.; Эшмуратов А.М. “Холдорхон” дostonининг лингвостилистик хусусиятлари (Эргаш Жуманбулбул ўгли варианты асосида). – Филол. фан. фалс.док....дисс. – Жиззах, 2021. – 180 б.; Ашуров Д.А. “Алпомиш” дostonининг лингвокультурологик хусусиятлари. Филол. фан. фалс.док....дисс.автореф. – Наманган, 2021. – 7-8 б.; Ходжиев Ю.Н. “Алпомиш” дostonидаги шахс маънавий сифатларини ифода этувчи атов бирликларнинг семантик-структур, концептуал ва лексикографик хусусиятлари. – Филол. фан. фалс.док....дисс. – Гулистон, 2020. –121 б.

tanlagan obyekt – “Zevaxon” dostonining genezisi va g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari folklorshunos R.Rajabov tomonidan maxsus o‘rganilgan.⁷ Lekin “Zevaxon” dostonining lisoniy xususiyatlari, xususan, uning leksikografik manbalari, statistik tahlili, grammatik va semantik-stilistik, shuningdek, dostonda qo‘llanilgan leksik birliklarning genetik, tarkibiy-mazmuniy xususiyatlarini tadqiq etish o‘zbek tilshunosligida o‘z yechimini kutayotgan muammolardan hisoblanadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Jizzax davlat pedagogika universiteti tadqiqot ishlari rejasining “O‘zbek filologiyasining dolzarb muammolari” (2020-2025-yy.) mavzusidagi ilmiy yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi “Zevaxon” dostonining leksikografik manbalarini yaratishdagi statistik tahlilni amalga oshirish, grammatik, semantik-stilistik, genetik, tarkibiy-mazmuniy xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

yozuvchilik leksikografiyasi va folklor matnlari statistikasiga oid ilmiy tadqiqotlarni tahlil qilish;

doston matnining so‘zlik, alfavitli, chastotali, ters (chappa) singari leksikografik manbalarini yaratish va ularning lingvostatistik ilmiy tahlilini amalga oshirish;

mustaqil so‘z turkumlari kesimida doston leksikasining grammatik va semantik-stilistik xususiyatlarining o‘ziga xosligini yoritish;

dostonda qo‘llanilgan leksik birliklarni genetik jihatdan, xususan, o‘z va o‘zlashgan so‘zlar, ulardagi ko‘p ma’nodlilik masalasini, shuningdek, eskirgan va tarixiy so‘zlarning o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berish.

⁷ Ражабов Р. Генезис. Бытование и идейно-художественные особенности дастана “Зевархан”, Автореф.дисс.канд.наук. – Т.: 1973. – С.19.

Tadqiqotning obyekti sifatida Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li kuylagan “Zevarxon” dostonining 1986-yildagi nashri tanlangan.

Tadqiqotning predmetini “Zevarxon” dostoni matnining lisoniy xususiyatlarini ochib berish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda tavsiflash, tasniflash, qiyoslash, statistik va tanlama usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

“Zevarxon” dostonida qo‘llanilgan so‘zlarning miqdori 15701 ta va chastotasi 5053 ta so‘zshakl ekanligi aniqlanib, matnning leksikografik manbalari: so‘zlik, alfavitli, chastotali va ters lug‘atlari yaratilgan;

doston tilidagi leksemalar *juvon, yigit, kelinchak, ena, momo* singari ot, *qantarmoq, moytormoq, jilonmoq, chenkamoq* kabi fe‘l, *sohibjamol, zabun, behush* kabi sifat, *qo‘sha, ikki, bir, uch, qirq, ming* kabi son, *shul, ne, nechuk* kabi olmosh, *bog‘onag‘i, erta-mertan, bir palla* singari ravishlar shaklida turkumlarga ajratilib, grammatik-semantik belgilari aniqlangan;

“Zevarxon” dostoni tilidagi *bermoq, bo‘lmoq, o‘tmoq, solmoq, tortmoq* kabi leksemalarning turkiy qatlamga, *amaldor, asl, aziz, ulug‘* singari leksemalarning arabiy ekanligi, *avval, gap, bekor* kabilarning fors-tojikcha ekanligi, ya’ni genezisi aniqlanib, matndagi ko‘p ma’nodlilik xususiyatlari ochib berilgan;

doston so‘z boyligining lavozim, mansab, martaba, harbiy, uy-joy, taom va oziq-ovqat, uy-ro‘zg‘or buyumlari va jihozlari, kiyim-kechak va liboslar, o‘lchov birliklari, diniy tasavvur va aqidalar bilan bog‘liq tarkibiy-mazmuniy xususiyatlari aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati quyidagilardan iborat:

doston tilining lisoniy xususiyatlari bo‘yicha to‘plangan mavjud materiallar, nazariy xulosalar o‘zbek tilshunosligining leksikologiya va grammatika bo‘limlarini muayyan ilmiy ma’lumotlar bilan boyitishi asoslab berilgan;

tadqiqot natijalari asosida nashr etilgan leksikografik manbalarning ona tili darslarida, og‘zaki so‘zlashuv nutqida ta‘lim oluvchilarning bilim va malakalarini oshirishdagi ahamiyati ochib berilgan;

dostonda qo‘llanilgan leksik birliklarni to‘plash, genetik, tarkibiy-mazmuniy guruhlarini aniqlash, leksikografik lug‘atlarni tuzish va e‘lon qilish kabi ishlar tadqiqotning amaliy jihatdan ahamiyatli ekanligi isbotlangan;

oliy ta‘lim muassasalari filologiya yo‘nalishi talabalari uchun mutaxassislik fanlari bo‘yicha o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar yaratishda hamda ma‘ruza matnlarni tayyorlashda foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi chiqarilgan xulosalarning qat‘iyligi, olingan tadqiqot natijalarining aniqligi va ishonchliligi, ishda qo‘llanilgan yondashuv va tadqiqot usullari, tahlil qilingan material hajmining yetarliligi, mazkur sohadagi dastlabki izlanishlarning nazariy xulosalari hamda erishilgan yangi natijalar dissertatsiyaning nazariy jihatiga muvofiqligi, ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dostonda qo‘llanilgan leksik birliklarning statistik tadqiqi, mustaqil so‘z turkumlari kesimida doston tilining grammatik va semantik-stilistik yo‘nalishda o‘rganilganligi, genetik qatlamlarini tilning ichki va tashqi qonuniyatlari bilan bevosita bog‘liqlikda tadqiq etilganligi va ular xalq dostonlarining tili va uslubi bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqot ishlari uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, uning natijalaridan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”, “Leksikologiya”, “O‘zbek tili dialektologiyasi” fanlari bo‘yicha yaratilgan darslik va o‘quv qo‘llanmalarni takomillashtirish, o‘zbek tilshunosligi magistratura ta‘lim yo‘nalishlarida “Dostonlar tili”, “Lingvistika” tanlov fanlarini tashkil etishda, akademik litsey va ixtisoslashgan

maktablar uchun hozirgi o‘zbek tilidan o‘quv adabiyotlarini yaratishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. “Zevarxon” dostonining lisoniy xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

“Zevarxon” dostonida qo‘llanilgan so‘zlarning miqdori 15701 ta va chastotasi 5053 ta so‘zshakl ekanligi aniqlanib, matnning leksikografik manbalari: so‘zlik, alfavitli, chastotali va ters lug‘atlariga doir tavsiya va ilmiy yangiliklaridan F1-FA-0-43429 “Qoraqalpoq folklori va adabiyoti janrlarining nazariy masalalarini tadqiq etish” nomli fundamental loyihasini bajarishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpoq bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlari ilmiy-tadqiqot institutining 2024-yil 8-avgustdagi 303/1-son ma’lumotnomasi). Natijada loyiha ilmiy-nazariy qismining boyitilishiga, berilgan tavsiyalar ushbu loyiha doirasida nashr etilgan ishlarning mazmuniy to‘ldirilishiga xizmat qilgan;

doston tilidagi leksemalar *juvon, yigit, kelinchak, ena, momo* singari ot, *qantarmoq, moytormoq, jilonmoq, chenkamoq* kabi fe‘l, *sohibjamol, zabun, behush* kabi sifat, *qo‘sha, ikki, bir, uch, qirq, ming* kabi son, *shul, ne, nechuk* kabi olmosh, *bog‘onag‘i, erta-mertan, bir palla* singari ravishlar shaklida turkumlarga ajratilib, grammatik-semantik belgilari yuzasidan chiqarilgan xulosalardan FA-A1-G007-sonli “Qoraqalpoq naql-maqollari lingvistik obyekt sifatida” mavzusidagi ilmiy-amaliy loyihada foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpoq bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlari ilmiy-tadqiqot institutining 2024-yil 8-avgustdagi 302/1-son ma’lumotnomasi). Natijada ilmiy-amaliy loyiha ilmiy-nazariy qismining yangi ilmiy fikrlar, g‘oyalar bilan boyitilishiga erishilgan;

“Zevarxon” dostoni tilidagi *bermoq, bo‘lmoq, o‘tmoq, solmoq, tortmoq* kabi leksemalarning turkiy qatlamga, *amaldor, asl, aziz, ulug‘* singari leksemalarning arabiy ekanligi, *avval, gap, bekor* kabilarning fors-tojikcha ekanligi, ya’ni genezisi aniqlanib, matndagi ko‘p ma’nolilik xususiyatlari to‘g‘risidagi xulosalardan

F1-FA-0-43429 “Qoraqalpoq folklori va adabiyoti janrlarining nazariy masalalarini tadqiq etish” nomli fundamental loyihasi doirasida vazifalar ijrosini ta’minlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpoq bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlari ilmiy-tadqiqot institutining 2024-yil 8-avgustdagi 303/1-son ma’lumotnomasi). Natijada loyihaning ilmiy xulosalar, dalillar bilan boyitilishiga erishilgan;

doston so‘z boyligining lavozim, mansab, martaba, harbiy, uy-joy, taom va oziq-ovqat, uy-ro‘zg‘or buyumlari va jihozlari, kiyim-kechak va liboslar, o‘lchov birliklari, diniy tasavvur va aqidalar bilan bog‘liq tarkibiy-mazmuniy xususiyatlariga oid xulosalardan Jizzax viloyati teleradiokompaniyasining efirga uzatilgan “Sayqal” hamda “Subhidam” ko‘rsatuvi dasturi ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Jizzax viloyati teleradiokompaniyasining 2024-yil 2-avgustdagi 13-10/367-sonli ma’lumotnomasi). Natijada ko‘rsatuvlar orqali viloyat aholisining dostondagi til birliklarining ma’nolari haqidagi bilimlarining kengayishiga, shuningdek, yoshlarda xalq dostonlarini o‘rganish orqali tariximiz, milliy qadriyat va an‘analarimizga hurmat ruhini uyg‘otishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 12 ta, jumladan, 6 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma’ruza shaklida bayon qilingan va muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiyaning asosiy mazmuni chop etilgan 20 ta ilmiy maqolada aks etgan. Jumladan, 1 ta lug‘at (so‘zlik, alfavitli, chastotali, ters-chappa lug‘atlar jamlamasi), O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalarning asosiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 8 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika hamda 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, 135 sahifani tashkil etadi.

I BOB. BADIY MATN TILINING LEKSIKOGRAFIK VA STATISTIK TADQIQOTLARI TAHLILI

1.1-§. Yozuvchilik leksikografiyasi tadqiqotlari tahlili

Jahon tilshunosligida sanoq usuli – chastotalarni hisoblash ishlari o‘tgan asrning boshlaridan boshlangan. Xususan, Y.Arnoldning hindshunoslikka oid bir qator ishlarida, jumladan, “Vedalarning vazni haqida” (1905) nomli asarida chastotalarni hisoblash orqali Rigvedadagi turli fragmentlarning arxaik ekanligini aniqlagan.⁸ Hindu dinining muqaddas kitoblaridan biri “Gita”ga tuzilgan konkordans “Gita lug‘ati” deb atalgan. Unda yordamchi so‘zlar va olmoshlar, shlika (she’r)lar ro‘yxati va boshqalar ham keltirilgan.⁹ Hindu dinining boshqa muqaddas kitoblari Upanishadlar va Puranalarga ham konkordans¹⁰lar tuzilgan. Muqaddas kitoblardan Qur’oni karim va Bibliyaga ham shunday ro‘yxatlar tuzilganligi haqida ma’lumotlar mavjud.¹¹

Xorijiy xalqlar tilshunosligida, ayniqsa, Mustaqil Hamdo‘stlik Davlatlarida bu sohada mukammal chastotali lug‘atlar yaratilgan. Xususan, M.Y.Lermontov tilining chastotali lug‘ati¹², rus tilining chastotali lug‘ati¹³, F.M.Dostoyevskiyning 30 jildlik asarlari asosida yozuvchi publitsistikasining chastotali lug‘ati – konkordansi (www) nashr etilgan. 4 tomdan iborat “A.S.Pushkin asarlari tili lug‘ati” tuzilgan,¹⁴ bulardan tashqari 1985-yilda amerikalik olim J.T.Shouning “Pushkin she’rlari konkordansi” nashr qilingan va u 2000-yilda Rossiyada ham nashr etilgan.¹⁵ “T.Shevchenko tili lug‘ati”,¹⁶ “Abay tili lug‘ati”,¹⁷ shuningdek, M.Gorkiy,¹⁸ M.A.Sholoxov¹⁹ va boshqa bir qator jahonga tanilgan yozuvchi va

⁸ Общее языкознание. Методы лингвистических исследований. – Москва: Наука. 1973. – С.84; Иброхимов А. Бобур «Девон»и тилидаги ўзлашма лексика. – Тошкент: ТДШИ, 2006, – 6 б.

⁹ Dr.Naraale Ratnaakar. Geetaa kaa shabdakosh. Prabhaat Prakaashan Dilli. 2003.

¹⁰ Yashpal Tandon. A.Corcordance of Purana-Contents.

¹¹ Иброхимов А. Таъкидланган асар. – 6 б.

¹² Частотный словарь Ю.М.Лермонтова / Лермонтовская энц-я. – Москва, 1981.

¹³ Частотный словарь русского языка (под редакцией Л.Н.Засориной). – Москва: Русский язык, 1977.

¹⁴ «Словарь языка Пушкина». В 4-х т. Отв.ред.акад. В.В.Виноградов. Т. 1. – Москва: Гос.изд.иностр. и нац. словарей. 1956. Каранг: А.Иброхимов. Кўрсатилган манба. – 11 б.

¹⁵ Каранг: А.Иброхимов. Кўрсатилган манба. 11-бет.

¹⁶ Словарь языка русских произведений Шевченко. В 2-х. томах. 1977.

¹⁷ Словарь языка Абая (на казахском языке). – Алма Ата: Наука, – 734 с.

¹⁸ Словарь языка М.Горького. – Ленинград: Издательство Ленинградского университета, Вып 1-6; 1982.

shoirlar asarlari matni asosida tuzilgan leksikografik va lingvostatistik lug‘atlar shular jumlasidandir. Ushbu lug‘atlarning deyarlik hammasi EHM yordamida tuzilgan: ularning ichida M.Y.Lermontov tilining chastotali lug‘ati nihoyatda mukammal bo‘lib, shoir asarlarining tili bo‘yicha juda boy material beradi. Mazkur lug‘atdagi biron so‘zning chastotasi XIX asrning birinchi yarmida o‘sha so‘zning rus tilida ishlatilish darajasini ham ko‘rsatadi. A.Ibrohimovning ta’kidlashicha, L.N.Zasorina rahbarligida yaratilgan rus tilining chastotali lug‘ati bir milliondan ortiq so‘zshaklga asoslangan. Rus tilining chet elda yaratilgan eng yangi chastotali lug‘ati 1970-2002-yillardagi manbalar asosida tuzilgan va u 35000 so‘zdan iborat. Rus tilida 1000 ta eng yuqori chastotali so‘zmatnning 64% ini, 2000 ta so‘z salkam 72% ini, 5000 ta so‘z esa matnning 82% idan sal ortig‘ini qamrab oladi.²⁰

Jahon tilshunosligidagi leksikografiya va statistika masalalariga bag‘ishlangan ilmiy ishlar S.Rizayevning tadqiqotida²¹ atroflicha tahlil qilingan. Unda tilshunoslikda lug‘at tuzgan bir guruh olimlar²² R.I.Bigayev, E.R.Gukasyans, G.N.Mixaylov, F.N.Nigmatova, I.N.Solovyevaning “Ruscha-o‘zbekcha chastotali lug‘at – minimumi” (1967) yoki boshqa qator tadqiqotchilarning ham bu borada ilmiy kuzatishlar olib borganligi qayd etilgan.

Z.Hamidovning qayd etishicha,²³ aslida lug‘at yaratish an‘analari turkiy va o‘zbek tilshunosligida qadimdan mavjud hodisa. Bu an‘ana Alisher Navoiy yashagan davrga borib taqaladi. “Xususan, Toli Imoniy Hiraviyning “Badoye’ ul-lug‘at”, muallifi noma’lum “Abushqa”, Muhammad Yaqub Changining “Kelurnoma”, Mirzo Mehdixonning “Sangloh”, Fayzullaxonning “Lug‘ati turkiy”, Fath Alixon Kojariyning “Lug‘ati atrokiya”, Shayx Sulaymon Buxoriyning “Lug‘ati chig‘atoyi va Turk Usmoniy”, Pave de Kurteyning “Sharqiy turkiy lug‘at”, Muhammad Rizo Hoksorning “Muntaxabul-lug‘at”, P.Shamsiyev va

¹⁹ Васильев А.А. Фразеологический словарь языка М.А.Шолохова. 1-том. – Стерлитамак: Изд-в. Фобос, 2015. – 421 с.; 2-том, 2019. 410 с.

²⁰ Иброхимов А. Частотали луғат ва коркорданс яратишда компьютер технологияларининг аҳамияти // Тилшуносликнинг долзарб масалалари (илмий мақолалар тўплами, III) – Тошкент: 2006, – 4 б.

²¹ Ризаев С.А. Ўзбек тилшунослигида лингвостатистика муаммолари. – Тошкент: Фан, 2006, – 4-11 б.; Ўзбек тилининг лингвостатистик тадқиқи. Филол.фан.д-ри...дисс. – Тошкент: 2008.

²² Частотный русско-узбекский словарь-минимум. – Ташкент: Ўқитувчи, 1967, – С 259.

²³ Ҳамидов З. Луғатшунослик тарихи ва қўлёзма луғатлар. – Тошкент: Адолат, 2004.

S.Ibrohimovlarning “Navoiy asarlari lug‘ati” hamda “Xamsa bo halli lug‘at”, “Lug‘ati Amir Navoiy”, “Dar bayoni lug‘ati Navoiy”, “Halli lug‘ati chig‘atoyi Xamsai Navoiy”, “Halli lug‘ati Xamsai Navoiy”, “Halli lug‘ati chig‘atoyi”, “Nisobi Navoiy” kabi leksikografik ishlar buning dalilidir”.²⁴

Shoir va yozuvchilar yoki ularning alohida olingan asarlari matni bo‘yicha lug‘atlar yaratish ishlari o‘zbek tilshunosligi taraqqiyotining nisbatan keyingi davrlariga xos. Xususan, XX asrning 70-80-yillarida “Navoiy asarlari tili lug‘ati”²⁵ va to‘rt jilddan iborat “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati”²⁶ni tuzish jarayonida tilshunos olimlarimiz juda katta tajriba to‘pladi. A.Ibrohimovning ta’kidlariga ko‘ra, “mazkur lug‘atlarda so‘zlar yoppasiga emas, balki saralash yo‘li bilan olingan. Undan tashqari, so‘zlarning barcha, ayniqsa, tasavvufga oid ma’nolari qayd etilmagan. Natijada hozirgi kunda XV asr Navoiy tili, uning uslubiga xos so‘zlarni unga zamondosh bo‘lgan shoirlar tili bilan qiyoslab o‘rganish imkoniyati yo‘q”²⁷. Bu tipdagi fundamental tadqiqotlarning yuzaga kelishida P.Shamsiyev, S.Ibrohimov, E.Fozilov, Q.Muhiddinov, Y.Shokirov, N.Xo‘jayev, J.Lapasov, A.Yunusov, I.Nosirov, N.Asilova, Z.Hamidov, B.Bafoyev, H.Dadaboyev, N.Shorahmedova, N.Husanov, A.Karimov, Q.Usmonov, S.Muhammedov, L.G.Chuchulina, X.Rustamova, N.Qayumova, B.Yusupov, A.Madvaliyev, I.Tojiddinova, V.Rahmonov, H.Bektemirov va boshqa olimlarning xizmatlari katta bo‘lgan.²⁸

Aslida bunday ishlar qo‘lda bajarilgan, u nihoyatda sermashaqqat yumush bo‘lib, ko‘p vaqtni olgan. Shu sababli ayrim lug‘at tuzuvchilar bunday usuldan voz kechishgan va asardagi so‘zlarni bittalab emas, saralab kartochkaga olganlar. “Alisher Navoiy asarlari tilining 4 tomlik izohli lug‘ati”, “Jomiy asarlari tilining lug‘ati” va “Tojik tilining izohli lug‘ati” va boshqalar shu usulda yaratilgan.

²⁴ Аlisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati, I tom. – T.: 1983, – 12-15 б.

²⁵ Navoiy asarlari tili lug‘ati. I-V. – Toshkent: Fan, 1983-1985.

²⁶ Аlisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. Tўrt tomlik. I-IV tomlar. – T.: Fan, 1983, 1984, 1985. – 1235 б.

²⁷ Иbrohimов А. Частотали луғат ва коркорданс яратишда компьютер технологияларининг аҳамияти // Тилшуносликнинг долзарб масалалари (илмий мақолалар тўплами, III) – Toshkent: 2006, 3–4 б.

²⁸ Каримов С., Ашурова З. Зулфия асарлари луғатини тузиш ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, – Toshkent: 2007, № 6, 71-76 б.

Olimlarning qayd etganidek, “Bu usulda lug‘at tayyorlashning bitta umumiy kamchiligi bor – tadqiqot obyekti haqidagi ma’lumotning to‘liq bo‘lmasligi, oqibatda esa olingan natijalarning yetarli darajada ishonchli emasligidir”.²⁹

B.Bafojev Navoiy asarlari leksikasini o‘rganish davomida leksikografik metod asosida shoirning 24 nomdagi turkiy asarlari matnida 26035 ta so‘z 1378667 marta qo‘llanganligini aniqlagan³⁰ va bu sohada olib borgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan.³¹ Biroq Navoiy asarlari tili bo‘yicha lug‘at va konkordans tuzmagan. Olimning ba’zi fikr-mulohazalarining o‘z asoslari mavjud. U yozadi: “Alisher Navoiy asarlarida qo‘llangan leksika eski o‘zbek adabiy tilining so‘z boyligini belgilashda boy material beradi. Ammo shoir asarlaridagi leksik boylikni XIV-XV asr eski o‘zbek adabiy tilining leksik boyligi deb, – baholay olmaymiz. Shoir asarlari leksik tarkibida arabcha so‘zlar 30,62 % ni, forscha-tojikcha so‘zlar 21,8 % ni tashkil qilganligi, shuningdek, hindcha va yunoncha so‘zlar, xullas, jami 64,59 % leksika bevosita va bilvosita chetdan o‘zlashtirilganligi, so‘z boyligining 35 % eski umumturkiy so‘zlardan iborat”.³²

O‘zbek tilidagi matbuot materiallarini statistik tahlil etish bo‘yicha ilk mulohazalarni V.V.Reshetov aytgan: gazeta tilidagi so‘zlar chastotasini so‘z turkumlari bo‘yicha aniqlab, olingan natijalarini e‘lon qilgan.³³ Keyinchalik ushbu

²⁹ Касимбеков Н.Н. и др. Использование средств ЭВМ в составлении частотного словаря. Восточное языкознание. Сб. Научн. тр. ТашГУ. – Т.: 1987. – С.36; *Бу ҳақда яна қаранг:* Иброҳимов А. Частотали луғат ва конкорданс яратишда компьютер технологияларининг аҳамияти // Тилшуносликнинг долзарб масалалари (Илмий мақолалар тўплами, III) – Тошкент: 2006, – 6 б.; Ибраҳимов А. Бобур “Девон”и тилидаги ўзлашма лексика. – Тошкент. 2006. – 10 б.

³⁰ Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1983, –19-20 б.

³¹ Бафоев Б. Лексика произведений Алишера Навои (лексико-семантические, статические и тематические исследования). Дисс...докт. филол. н. – Ташкент: 1989.

³² Бафоев Б. Юкоридаги асар, – 154-155 б.

³³ Решетов В.В. Лексический состав современной узбекской прессы / Сб. “Проблемы языка”, вып. I. – Ташкент: 1934, – с.41-51.

metod asosida A.K.Borovkov³⁴ va I.A.Kissen³⁵lar ham ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.³⁶

Leksikografik tadqiqotlarning yozuvchilik leksikografiyasiga oid kuzatishlarida V.V.Reshetov, A.K.Borovkov, I.A.Kissen³⁷lar boshlab bergan ilmiy an'analar o'zbek tilshunosligida S.Rizayev³⁸, S.Muxammedov³⁹, N.Bo'ronov, R.Qo'ng'urov, S.Karimov⁴⁰ va Sh.Maxmatmurodov⁴¹lar va boshqalarning leksikografik ishlari bilan kengayib bordi.⁴² Bu o'rinda ishimizdagi qo'yilgan vazifalardan kelib chiqqan holda tilshunosligimizda bajarilgan ilmiy ishlarning mazmun-mohiyati va ilmdagi o'rni haqida qisqacha mulohazalarimizni berishni maqsadga muvofiq, deb topdik.

I.A.Kissenning leksikografik ishi o'zbek tilidagi birinchi chastotali lug'at⁴³ sanaladi, unda 40 ta badiiy asar bo'yicha 2500 so'zdan tashkil topgan tanlangan va leksikografik tahlil qilingan. Natijada jami 101 044 so'z borligi, shundan 5494 so'z (5,4%) atoqli otlar (shundan 91% onomastik nomlar) va 95550 so'z (94,6%)

³⁴ Боровков А.К. Изменения в области узбекской лексики и новый алфавит (на основе русской графики) / Известия АН УзССР. – Ташкент: изд-во. Фан, 1940, – с.18-37;

³⁵ Киссен И.А. Опыт статического исследования частотности лексики передовых статей газеты “Кизил Ўзбекистон” / Научные труды ТашГУ. Новая серия, вып.247. Иранская, тюркская, арабская филология. Лингвостатистика. – Ташкент: 1964, – с.44-58. Шу муаллиф. Некоторые данные о частотности слов в современной узбекской художественной прозе. Кўрсатилган тўплам, – 59-73 б. Шу муаллиф. Некоторые данные о частотности фонем в современном узбекском литературном языке / Научные труды ТашГУ. Новая серия, вып.229. Востоковедение (языки, литература, история стран Азии). – Ташкент: 1964, – с.67-79.

³⁶ Шу муаллиф. Некоторые данные о частотности слов в современной узбекской художественной прозе. Кўрсатилган тўплам, – 59-73 б. Шу муаллиф. Некоторые данные о частотности фонем в современном узбекском литературном языке / Научные труды ТашГУ. Новая серия, вып.229. Востоковедение (языки, литература, история стран Азии). – Ташкент: 1964, – с.67-79.

³⁷ Киссен И.А. Опыт статического исследования частотности лексики передовых статей газеты “Кизил Ўзбекистон” / Научные труды ТашГУ. Новая серия, вып.247. Иранская, тюркская, арабская филология. Лингвостатистика. – Ташкент: 1964, – с.44-58. Шу муаллиф. Некоторые данные о частотности слов в современной узбекской художественной прозе. Кўрсатилган тўплам, – 59-73 б. Шу муаллиф. Некоторые данные о частотности фонем в современном узбекском литературном языке / Научные труды ТашГУ. Новая серия, вып.229. Востоковедение (языки, литература, история стран Азии). – Ташкент: 1964, – с.67-79.

³⁸ Ризаев С. Ўзбек совет болалар адабиёти тилининг частотали луғати. – Тошкент: Фан, 1980. – 160 б.; Шу муаллиф. Статическая структура лексики языка “Дивана” Хамзи Хаким-заде Ниязи (частотный словарь и конкорданс). – Ташкент: Фан, 1989. – 248 с.; Ризаев С., Бўронов Н. Абдулла Қаҳҳор “Синчалак” повести тилининг частотали луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1986. – 170 б.

³⁹ Мухамедов С. Ўзбек тилининг алфавитли-частотали луғати (газета материаллари асосида). – Тошкент: Фан, 1982. – 110 б.

⁴⁰ Қўнгуоров Р., Каримов С. Зулфия поэзияси тилининг луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1981.

⁴¹ Махматмуратов Ш. Словарь языка поэтических произведений Хамзи. – Ташкент: изд-во литературы и искусства имени Гафура Гуляма, 1989.

⁴² Киссен И.А. Словарь наиболее употребительных слов современного узбекского литературного языка, – Ташкент: 1972. – 112 с.

⁴³ Киссен И.А. Словарь наиболее употребительных слов современного узбекского литературного языка, – Ташкент: 1972.

mustaqil va yordamchi soʻzlar ekanligini aniqlagan. 8052 ta mustaqil va yordamchi soʻzlar orasida 1227 ta leksema qoʻllanish chastotasi nisbatan yuqori boʻlgan birlik ekanligi aniqlangan (76%). Qolgan 6825 leksema 18,6 % ni tashkil etgan. Muallifning xulosasiga koʻra, oʻzbek tilini biluvchi yoki oʻrganuvchi inson matndagi oʻrtacha 80% soʻzni lugʻatga murojaat qilmasdan tushunadi. 20 % soʻzning maʼnosi taxminan tushunarli boʻlmaydi va natijada ularning maʼnosini aniqlash uchun lugʻatlarga murojaat qilishga toʻgʻri keladi.⁴⁴ Ushbu kuzatishlar oʻzining fundamental asoslariga va ilmiy-nazariy ahamiyatga egaligi bilan tilshunosligimizda muhim oʻrin tutdi.

Sh.Maxmatmurodovning “Hamza poetik asarlari tilining lugʻati” deb nomlangan glossariyda 3265 ta soʻzning izohi keltirilgan.⁴⁵ Ana shunday ishlardan yana biri sifatida R.Qoʻngʻurov va S.Karimovlarning “Zulfiya poeziyasi tilining lugʻati”ni koʻrsatish mumkin.⁴⁶ Konkordans xarakteridagi bu “Lugʻat”da soʻzlar matnda qanday holatda uchragan boʻlsa, yaʼni soʻzshakl holatida berilgan, ularning qaysi jildda necha marta uchraganligi qayd etilgan. Zulfiya asarlari matnining tadqiqotchilari oʻziga kerak boʻlgan soʻzni lugʻatdan belgilagach, bu elementni ikki jildlik “Asarlar”ning koʻrsatilgan sahifalaridan axtarib topgan va shu asosda kuzatishlar olib borgan. Mazkur lugʻat tilshunosligimizdagi leksik birliklarning qoʻllanish chastotasini koʻrsatadigan va ularning matnda joylashish oʻrnini aniqlashga yordam beradigan ilmiy asar sanaladi. Shu boisdan, A.Ibrohimov uning ilmdagi oʻrni haqida quyidagilarni “Lugʻat”da mashhur oʻzbek shoirasi asarlari tilining induvidual xususiyatlari bilan bir qatorda, XX asrning 40-80-yillaridagi oʻzbek adabiy tilining oʻziga xos jihatlarini ham oʻrganishga jiddiy asos yaratilgan. Ushbu tadqiqot oʻzbek tilshunosligida birinchi konkordans ekanligi bilan katta ahamiyatga ega boʻldi⁴⁷, deb baholaydi.

Keyingi yillardagi zamonaviy kompyuter texnologiyalari asosida S.Karimov, A.Qarshiyev va G.Isroilovalar tomonidan tuzilgan “Abdulla Qahhor

⁴⁴ Киссен И.А. Юкоридаги асар, – 6-7 б.

⁴⁵ Махматмуродов Ш. Словарь языка поэтических произведений Хамзи. – Ташкент: изд-во литературы и искусства имени Гафура Гуляма, 1989, – С.6.

⁴⁶ Қўнгуоров Р., Каримов С. Зулфия поэзияси тилининг луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1981, – 273 б.

⁴⁷ Иброхимов А. Бобур “Девон”и тилидаги ўзлашма лексика. – Тошкент: ТДШИ, 2006, – 11 б.

asarlari tilining lug‘ati” tilshunosligimizning leksikografiyasi sohasidagi jiddiy yutug‘i bo‘ldi.⁴⁸ Mualliflar Abdulla Qahhorning besh jildlik “Asarlar” to‘plamining elektron matnini yaratishgan va u lug‘at uchun asosiy material sifatida xizmat qilgan. Tuzilgan lug‘atlarning kirish qismidagi so‘zboshi bu tipdagi yangidan yaratiladigan leksikografik lug‘atlar uchun nazariy va amaliy asos sifatida xizmat qildi. Mazkur olimlar bu tipdagi lug‘atni tuzishdan avval uning *yaratish prinsiplarini ishlab chiqish* masalasi bo‘yicha quyidagi mulohazalarni aytadi: “manba sifatida olinishi ko‘zda tutilgan ijodkor asarlarining mukammal matni yaratilmagan taqdirda, hatto yaratilgan taqdirda ham, ma’lum bir shoir yoki yozuvchi asarlarining to‘liq so‘zligini tuzib bo‘lmaydi. Chunki shunday paytda ham ijodkor arxividagi materiallar, nashr etilmagan qo‘lyozmalar e’tibordan chetda qolib ketishi mumkin. Balki bunday mukammallikka uning alohida olingan bir asari misolida erishish mumkin bo‘lar. Shuning uchun bo‘lsa kerak, ko‘pchilik tilshunos-leksikograflar masalaga differensial yondashishdan voz kechib, yozuvchilarning to‘liq so‘zligini tuzishning maqsadga muvofiqligi haqida mulohaza yuritadilar”, deydi va shundan keyin ikkinchi muhim vazifani - *lug‘atni tuzish usullarini* bayon qiladi: “Jahon leksikografiyasida lug‘at tuzishning tematik, kombinator, g‘oyaviy, alfavitli kabi usullari orasida alfavitli, so‘zlik tuzish usuli ma’qullangan va yozuvchilik leksikografiyasida shu usuldan ko‘proq foydalanilmoqda. Bu o‘rinda ham ana shu an’anaga sodiq qolindi. Ayni paytda u chastotali va ters lug‘atlar hisobiga boyitildi”,⁴⁹ degan ta’kidlarida muayyan asoslar bor.

Nihoyat, mazkur lug‘atda uchinchi masala – *so‘zlik tuzish* vazifasi aytiladi, uning afzallik va noqulaylik jihatlari quyidagicha izohlanadi: “kirillcha yozuvdagi matnlarni alfavitlashtirishda o‘zbekcha *o‘, q, g‘, h* singari harflarni o‘qish bilan

⁴⁸ Каримов С., Қаршиев А., Исроилова Г. Абдулла Қаҳҳор асарлари тилининг луғати. Алфавитли луғат. – Тошкент: ЎзМЭ, 2007. – 434 б.; Шу муаллифлар. Абдулла Қаҳҳор асарлари тилининг луғати. Частотали луғат. – Тошкент: ЎзМЭ, 2007. – Б.420.; Шу муаллифлар. Абдулла Қаҳҳор асарлари тилининг луғати. Терс луғат. – Тошкент: ЎзМЭ, 2007. – Б.423.

⁴⁹ Каримов С., Қаршиев А., Исроилова Г. Абдулла Қаҳҳор асарлари тилининг луғати. Алфавитли луғат, – 7-8 б.

bog‘liq qiyinchiliklar vujudga kelmoqda. Lotin yozuvidagi matnlarda bu muammo bo‘lmasligi mumkin”.⁵⁰

Lug‘atda so‘zlar matnda qanday holatda uchragan bo‘lsa, shu holatda keltirilgan va kompyuter yordamida ularni statistik jihatdan ishlashning imkoni paydo bo‘lgan. Natijada mualliflar tomonidan Abdulla Qahhorning 95211 ta so‘zshakl 404637 marta qo‘llanilganligi aniqlangan. Mana shu tartibda alfavitli, chastotali, ters lug‘atlarning tuzilganligi tilshunosligimizda ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan muhim ishdur.⁵¹

Uch yo‘nalishda tuzilgan, ya’ni alfavitli, chastotali va ters lug‘atlarning har biri alohida vazifalarni ado etadi. Alfavitli lug‘at yozuvchi foydalangan lug‘aviy birliklarning umumiy foni haqida ma’lumot bersa, chastotali lug‘at bu umumiy fondagi elementlarning qo‘llanish chastotasi haqidagi axborotni o‘zida mujassam etgan. Masalan, 1, 2, 3-jildlarda *bir* so‘zining qo‘llanish chastotasi 1287, 1291, 1435 nisbatda ustunlik qilsa, 4-jildda 777 marta qo‘llanish bilan birinchi o‘rinni, *ham* 5-jildda 856 marta qo‘llanish bilan birinchi o‘rinni egallaganligi; bir marta qo‘llanilgan so‘zshakllarning umumiy soni 1-jildda 11213 tani, 2-jildda 11808 tani, 3-jildda 12382 tani, 4-jildda 10342 tani, 5-jildda 11359 tani tashkil etishi ma’lum bo‘ladi. Ularning har birini istalgan paytda mikromatn qurshovida bir joyga to‘plash imkoniyatining mavjudligi filologik tadqiqotlarda katta qulaylik tug‘diradi. Yozuvchilik leksikografiyasining asosini muayyan shoir yoki yozuvchi asarlari tili asosida tuzilgan lug‘atlar tashkil etadi. Albatta, bunday tipdagi lug‘atlarning o‘z maqsadi va vazifalari, lug‘at tuzishdagi muayyan lisoniy me’yorlari hamda o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Jahon tilshunosligida mazkur sohaning yirik olimlaridan O.M.Karpova va L.P.Stupinlarning quyidagi fikr-mulohazalari ushbu masalaga birmuncha metodologik asos sifatida oydinlik kiritadi: “Yozuvchi tilining lug‘ati uning ijodida mavjud bo‘lgan barcha leksik birliklarni, jumladan, eskirgan va to‘liq iste’moldan chiqqan so‘zlarni, shuningdek, individual-mualliflik yasalmalarini ham aks ettirishga mo‘ljallangan bo‘ladi.

⁵⁰Каримов С., Қаршиев А., Исроилова Г. Юкоридаги манба, – 8 б.

⁵¹ Каримов С., Қаршиев А., Исроилова Г. Юкоридаги манба, – 7 б.

Boshqacha aytganda, umumxalq lug‘ati tili o‘z so‘zligini sinxron va diaxron jihatdan qandaydir ma’noda chegaralaydi. Yozuvchi tili lug‘atiga esa mohiyat e’tibori bilan sinxron planda ham, diaxron planda ham hech qanday cheklovlar qo‘yish kerak emas. Shuni ham ta’kidlash lozimki, yozuvchilik lug‘atida me’yoriy va nome’yoriy leksika tarzda tanlanish yo‘q. Bunda, odatda, so‘z ustasining faqat umumtil foniga kiradigan materialnigina emas, balki u yoki bu darajada me’yordan, umumiy so‘z qo‘llashdan chekinadigan faktlarni ham qamrab oladigan qat’iy to‘liqlik bilan qayd etiladi”.⁵²

Keyingi davrlarda, aniqrog‘i, bundan 20-30 yillar avval o‘zbek tilshunosligidagi leksikografik tadqiqotlarida injenerlik lingvistikasi va kompyuter lingvistikasi yutuqlaridan foydalanish harakatlari ko‘zga tashlandi.

Jahon tilshunosligida injener lingvistikasiga asos solgan R.G.Piotrovskiyning ilmiy maktabi a’zolaridan professor Hamdam Arziqulov va dotsent Sobit Muhamedovlarning ilmiy ishlarida ta’kidlangan zamonaviy yo‘nalishning nazariy asoslari yuzaga kelgandi.

H.Arziqulovning keng qamrovli ilmiy faoliyatidagi 100 dan ortiq ilmiy va ilmiy-metodik merosining deyarli yarmida injener tilshunosligi sohasidagi ilmiy qarashlari va zamonaviy lingvostatistik tadqiqotlari ustuvorlik qilgan edi. U injener tilshunosligining tadqiqot obyektini belgilash maqsadida, eng avvalo, til va nutq tizimi nima? nutq nima? degan masalalarga aniqlik kiritgan. Olim “injener tilshunosligining nazariy va amaliy masalalarini hal qilish uchun, nutq faoliyatini til sistemasi va nutqlarga ajratib talqin etish maqsadga muvofiq” degan ilmiy g‘oyani ilgari surganligi bilan ilmda tan olindi. Xususan, “Agar biz til sistemasini lisoniy birliklarning umumlashgan holdagi yig‘indisi, xazinasini deb qabul qilsak, u holda lisoniy birliklarni bu xazinadan nutqqa saralanib olishga imkon beradigan va saralangan lisoniy birliklarga nutqda (matnda) foydalanishi mumkin bo‘lgan barcha forma va ma’nolar kompleksi reallashadigan nutq faoliyati mexanizmining yana bir tarmog‘ini, shubhasiz, idrok qilamiz. Nutq faoliyatini harakatga

⁵²Карпова О.М. Ступин Л.П. Советская писательская лексикография // Вопросы языкознания, 1982, №1. – С. 13-20.

keltiradigan mexanizmning xuddi ana shu komponentini biz nutq sistemasi deb ataymiz”⁵³ deb qayd etgan H.Arziqulov nutq sistemasi birliklari injener tilshunosligining tadqiqot obykti bo‘lishini belgilab berdi. Mohiyat jihatidan mag‘zi to‘q, fundamental ilmiy-nazariy asoslarga ega bo‘lgan olimning bir qator fikr-mulohazalari tilshunosligimizda katta shov-shuvlarga sabab bo‘ldi. Xususan, H.Arziqulov inson nutqiy faoliyatidagi uchinchi komponent sifatida qaraladigan nutq – matnga alohida mas’uliyat bilan yondashadi. Ularning ma’no anglatishdagi semantik-stilistik imkoniyatlari nihoyatda keng ekanligini to‘g‘ri anglab yetadi. Shuning uchun ham, “konkret nutqda beaded birliklar azaliy yoki yangidan-yangi ma’nolarda namoyon bo‘laveradi va ularning ko‘pchiligi modellashtirishga tutqich bermaydi. Binobarin, konkret nutq rang-barang birliklarning hammasini kompyuter xotirasiga kiritib bo‘lmaydi”,⁵⁴ degan xulosaga keladi.

Professor H.Arziqulov xotirasiga bag‘ishlangan xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya ishtirokchilari olim rahbarligida bir necha yillar davomida injenerlik tilshunosligi markazi samarali faoliyat ko‘rsatib kelganligini ta’kidlaydi, xususan, “bu markaz o‘zbek tilidagi matnlarga qayta ishlov beradigan kompyuter dasturini yaratish, o‘zbek tilining rasmiy, ilmiy, publisistik uslublariga oid materiallarni yig‘ish, ularni muayyan bir tizimga keltirish, ularga statistik jihatdan ishlov berish, inglizcha-o‘zbekcha mashina tarjimasi dasturini yaratish”⁵⁵ vazifalarini bajarishga xizmat qilgan. Yana bir guruh olimlar ham bu mulohazalarni qo‘llab-quvvatlagan edi.⁵⁶ Darhaqiqat, H.Arziqulov qayd etganidek, “*inson-kompyuter-inson*” kommunikativ sxemasida nutq qanday yuzaga kelishini, bu sxemada amal qiluvchi nutq mexanizmi qanday qurilishga ega ekanligini va bu mexanizm unsurlarini o‘rganish sohasida o‘zbek tilshunosligida endi birinchi qadamlar qo‘yilmoqda.⁵⁷ Bunday xolisona fikrlar amaliy tilshunoslikda o‘z isbotini topdi.

⁵³ Арзикулов Х. Тил системаси – нутқ системаси – нутқ // СамДЧТИ профессор-ўқитувчиларининг IV илмий-назарий анжуман материаллари. – Самарқанд: 1998, – 4-5 б.

⁵⁴ Арзикулов Х. Ўзбек лингвистик автоматининг назарий масалалари // Тил ва миллий маданият. Халқаро илмий-назарий конференция материаллари. – Самарқанд: СамДЧТИ нашри, 2004. – 49 б.

⁵⁵ Йўлдошев Б. Компьютер лингвистикаси ва уни ўрганиш муаммолари ҳақида // Тил ва нутқ систем-сатҳ талқинида. – Самарқанд: СамДЧТИ нашри, 2005, 21-б.

⁵⁶ Абдурахмонова М. Мирзо Ғолиб ғазалиётининг жомъе луғати // Шарқшунослик, №1. 2004.

⁵⁷ Арзикулов Х., Хўжаёрова С. “Инсон-компьютер-инсон” мулоқот тизимида тил ва нутқ нисбати // Хорижий филология, 2004. №2. – 1 б.

O‘zbek lug‘atchiligida kompyuterdan foydalanishni birinchi marta 1987-yilda A.Quronbekov amalga oshirgan.⁵⁸ O‘zbek lug‘atshunosligida Bobur asarlari tilining mukammal lug‘atini yaratish ham mana shunday vazifalardan ekanligini, muallif lug‘ati tuzish vazifasi o‘ta mushkul muammolardan ekanligini M.Imomnazarov, A.Ibragimov singari mutaxassis olimlar ta’kidlab o‘tganlar.⁵⁹ A.Ibrohimov ilmiy tadqiqotlari o‘zbek tilshunoslari Sharqning ulug‘ shoirlari asarlarining konkordansini yaratish ustida jiddiy tadqiqotlar olib borayotganligini ta’kidlaydi. Xususan, M.Imomnazarovning Amir Xusrav Dehlaviyning “Shirin va Xusrav” dostoni leksikasi bo‘yicha tadqiqoti, A.Quronbekovning Amir Xusrav Dehlaviyning “Oinai Iskandariy” dostoni asosida tayyorlagan konkordansi, uning Hofiz devoni bo‘yicha doktorlik dissertasiyasi shunday tadqiqotlardan ekanligi, M.Abdurahmonova Mirza G‘olib devoni bo‘yicha konkordanslar tuzish ustida ish olib borayotgani haqida ma’lumot beradi.

S.Muhamedov “O‘zbek tilining alfavitli-chastotali lug‘ati”ni,⁶⁰ ustozlari R.G.Piotrovskiy bilan hamkorlikdagi monografiyasini e’lon qildi.⁶¹ O‘zbekcha matnlarni tadqiq etishda statistik metodni olib kirgan S.Muhamedovning dissertatsion tadqiqotida⁶² publisistik matnlar o‘zbek tilshunosligida birinchi marta til va nutq munosabati, jumladan, uning aglyutinatativ so‘zshakllari qurilishi va axborot uzatishi jihatidan hind-yevropa tillariga qaraganda boshqacha ekanligi aniqlandi. Ushbu tadqiqot tufayli til va nutq antinomiyasida yana bir paradoks – ma’lum o‘zakdan yangi so‘zshakllari yasash imkoniyatining cheksizligi baravarida bu imkoniyatning publisistik nutq uzuvida nihoyatda cheklanib qolishi ochib berildi.

⁵⁸ Куронбеков А. Ҳофиз ғазалиёти лексикасининг маъно структурасини тадқиқ этиш йўсинлари: Филол.фан.д-ри. ...дисс. – Тошкент, 1994, – 23 б.

⁵⁹ Имомназаров М. Мухаррир мукаддимаси // Куронбеков А. Ҳофиз ғазалиётида маънолар силсиласи. – Тошкент: Фан, 1994. – 3 б.; Яна қаранг: Иброҳимов А. Бобур “Девон”и тилидаги ўзлашма лексика. – Тошкент: ТДШИ, 2006, – 9-10 б.

⁶⁰Мухамедов С. “Ўзбек тилининг алфавитли-частотали луғати (газета текстлари асосида)”. – Тошкент: Фан, 1982.

⁶¹ Мухамедов С, Пиотровский Р.Г. Инженерная лингвистика и опыт системно-статического исследования узбекских текстов. – Ташкент: Фан, 1986. – 164 с.

⁶² Мухамедов С. Статический анализ лексико-морфологической структуры узбекских газетных текстов: Автореф. дис. ...канд.филол.наук. – Ташкент, 1980. – 25 с.

S.Muhammedovning ilmiy ishi⁶³da gazeta materiallarining leksik va grammatik qurilishi, me'yoriy chegarasi natijalari asosida tilda sodir bo'layotgan o'zgarishlar o'rganilgan. Lug'at lingvostatistik metod asosida tuzilgan va unda lug'at birligi sifatida leksemalar qabul qilinib, 200000 dan ortiq so'z obyekt sifatida tanlangan.

S.Rizayevning yana bir lug'ati⁶⁴da 26752 ta leksemaning 100000 qayta takrorlanib qo'llanganligi aniqlangan. Bu lug'atda S.Rizayev qo'lga kiritgan natijalar, asosan, matnlarda qo'llanilgan yangi so'zlar ot, fe'l va sifat so'z turkumlariga mansubligi, qo'llanish koeffitsiyentiga ko'ra, olmoshlar, shuningdek, bog'lovchi va yuklama singari yordamchi so'z turkumlariga tushishi aniqlangan. Qolaversa, ishda *ham, bir, bilan, shu, bo'lmoq, edi, ekan, har, bor* singari elementlarning qo'llanish chastotasi boshqa lisoniy birliklarga nisbatan yuqori ekanligi dalillangan. S.Rizayevning hamkorlikda yaratgan chastotali lug'atida⁶⁵ Abdulla Qahhorning "Sinchalak" povesti obyekt sifatidan olingan. Matnda 10590 ta lug'aviy birlikning 37482 marta qo'llanganligi isbotlangan.

S.Rizayevning "Hamza Hakimzoda Niyoziy "Devon"i tili leksikasining statistik strukturasi (chastotali lug'at va konkordans)" asari⁶⁶da muallifning aniqlashicha, "Devon"da 6417 ta mustaqil so'z 64807 marta qo'llangan. Ushbu kuzatishda ham tahlil an'anaviyligi saqlab qolingan. Aniqlangan 1 marta qo'llangan so'zlar 3648 tani (65%), 2 martaliklar 782 tani (14%), 3-4 martaliklar 558 tani (10%), 5-9 martaliklar 394 tani (7%), 10 marta va undan ortiq qo'llangan so'zlar 252 tani (4%) tashkil etadi. Dastlab uning qaysi sahifalarda necha martadan uchrashligi ko'rsatilgan, fonetik shakllari (*boridan, bormi, bormu, vormi*) berilgan, keyin semantik-stilistik ma'nolari tahlil qilingan. Jumladan, u bir holatda forschatojikcha element sifatida numerativ hisoblanib, *marta, karra, daf'a* ma'nolarini berishi, boshqa bir ko'rinishda u fe'lning ikkinchi shaxs buyruq shakli hisoblanib,

⁶³ Мухамедов С. "Ўзбек тилининг алфавитли-частотали луғати (газета текстлари асосида)". – Тошкент: Фан, 1982.

⁶⁴ Ризаев С. Ўзбек совет болалар адабиёти тилининг частотали луғати. – Тошкент: Фан, 1980, – 160 б.

⁶⁵ Ризаев С., Бўронов Н. Абдулла Қаҳҳор "Синчалак" повести тилининг частотали луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1986, – 170 б.

⁶⁶ Ризаев С. Статистическая структура лексики языка "Дивана" Хамзи Хаким-заде Ниязи (частотный словарь и конкорданс). – Ташкент: Фан, 1989. – 248 с.

ma'lum maqsad bilan biror yerga yo'nalmoq, ketmoq ma'nolarini ifodalashi singari turli nutqiy holatlar misolida tahlil namunasi berilgan. Mana shu jihatlari bilan mazkur lug'at ilmiy va amaliy qimmatga ega.

Mazkur olim dastlab "O'zbek tilshunosligida lingvostatistika muammolari" (2006) monografiyasini nashr ettirdi va so'ngra "O'zbek tilining lingvostatistik tadqiqi" (2008) mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. Ushbu monografik ishlarni ayni sohaga bag'ishlangan birinchi yirik tadqiqotlar desak bo'ladi. Professor G.Jumanazarova ushbu ishlarning ilmiy mohiyati, fandagi o'rni haqida quyidagilarni ta'kidlagan: "ungacha mazkur masala o'zbek tilshunosligidagi lisoniy materiallar til va nutqning grafik, fonologik, bo'g'in, morfem va leksik strukturasi matematik-statistik va informatsion-tipologik metodlar asosida tizimli tarzda tahlil qilinmagan edi. S.Rizayev ushbu sohada ilk bor o'zbek tilida eng faol va, aksincha, nafaol qo'llaniladigan tovushlar statistikasi, funksional uslublar misolidagi taqsimlanuvi haqidagi mulohazalarni, ularning matniy ifodasi bo'lgan harflarni takomillashtirish, kelajak o'zbek axborot texnologiyasini hamda kompyuteri modellarini yaratish va bu bilan amaliy tilshunoslikni yangi pog'onaga ko'tarish kabi masalalarni o'rtaga tashladi. Xullas, S.Rizayevning ilmiy ishlarida zamonaviy texnik vositalar, xususan, kompyuterning lingvistik tadqiqotlar jarayonidagi olamshumul imkoniyatlari ko'rsatib berilgan, til materialini tahlil etishning zamonaviy metodlari o'rtaga tashlangan, ilk bor o'zbek matnlarida harflarning qo'llanish chastotasi va entropiyasi ishlab chiqilgan kuzatishlar bu borada boshqa tadqiqotchilar uchun ilmiy-nazariy asos bo'lib xizmat qiladi".⁶⁷

A.Ibrohimovning Bobur asarlari, xususan, "Devon"i tilidagi o'zlashma leksika"ga bag'ishlangan ishi⁶⁸ tilshunosligimizning lug'atchiligidagi an'analarni saqlab qolgani holda, ilmiy mukammalligi bilan alohida mavqega ega bo'lgan tadqiqot sifatida ilmiy jamoatchilik va olimlar tomonidan tan olindi. Lug'at Bobur "Devon"idagi faqat o'zlashma so'zlarni qamrab olgan bo'lib, ularning berilishida

⁶⁷ Жуманазарова Г. Фозил Йўлдош ўғли дostonлари тилининг лингвопоэтикаси. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, - Тошкент, 2012, - 95-96 б.

⁶⁸ Иброхимов А. Бобур "Девон"и тилидаги ўзлашма лексика. - Тошкент: ТДШИ, 2006.

aniqlikka erishishga harakat qilgan. Xususan, devonda tartib raqamidan soʻng soʻzshakllari, soʻzshakldan keyin raqam “Devon” matnida uning necha marta qoʻllanilganligini koʻrsatishi taʼkidlangan. “Devon” tarkibidagi kitobning boshida lugʻatga berilgan 31 betdan iborat sharh alohida ilmiy asar boʻlib hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning navbatdagi boʻlimida A.Ibrohimov Bobur “Devon”i konkordansini tuzish prinsiplari haqida soʻz yuritgan, dastlab “Devon”ning kompyuter xotirasiga kiritiladigan matnining mukammal boʻlishi ustida ish olib borgan va unga “Parij devoni”, “Hind devoni” va “Kobul devoniga takmila (qoʻshimcha)”lardan tashkil topgan mukammal matnni asos qilib olgan, eng muhimi, nashrlardagi xatolar toʻgʻrilangan. Xususan, “Devon”dagi eng yuqori chastotali bitta soʻz (396) ning koeffitsiyenti 0,0497 va u devon matnining deyarli 5% ini, 3 ta eng yuqori chastotali soʻz (1136) esa devon matnining 14,3 % ini tashkil etishi haqidagi; *boʻlmoq* feʼli turli shakllarda jami 562 marta uchrashi, yaʼni uning mazkur asarda uchrash ehtimoli $R1 (boʻlmoq) = 562 : 24980 = 0,0224$ yoki 2,24 % ni tashkil etishi, shuningdek, *boʻlmoq* feʼli Boburning jami asarlarida turli variantlarida 1740 marta uchrashi va mazkur soʻzning Boburning barcha asarlarida uchrash ehtimoli ikkala holatda ham deyarli bir xil ekanligi haqidagi xulosalari diqqatni tortadi.⁶⁹ Mazkur tadqiqotning keyingi boʻlimida “Devon” leksikasida oʻzlashma soʻzlarning oʻrni belgilangan: 3276 ta soʻz 7836 soʻzshakl holatida 24980 marta qoʻllanganligi aniqlangan boʻlsa, bu raqamlardan barcha tahlillarda cheklanilmagan. Ular orasida turkiycha soʻzshakllar – 3432 tani (45%), arabcha – 2609 tani (33%), forscha – 1751 tani (22%), hindcha – 9 tani tashkil etishi maʼlum boʻlgan. Ushbu boʻlimda yana bir qiziqarli kuzatish amalga oshirilgan. Gadoiy, Atoiy, Lutfiy, Husayni, Navoiy va Boburning yuzta soʻz atrofidagi matni leksik tahlil qilinganda, ularning barchasi tilida turkiycha soʻzlarning ustunlik qilishi, arabcha soʻzlar qoʻllanilishi boʻyicha Bobur “oʻrta”, forscha-tojikcha soʻzlarni qoʻllash boʻyicha esa “eng yuqori” oʻrinda turishi aniqlangan. “Asarda bir marta uchraydigan soʻzlarning soni mutlaq koʻpchilikni

⁶⁹ Иброҳимов А. Бобур “Девон”и тилидаги ўзлашма лексика, – 8 б.

tashkil etishi boshqa tadqiqotchilar olgan natijaga mos keladi”,⁷⁰ degan xulosalar o‘z tabiiy asoslariga ega.

O‘zbek tilshunosligida bunday statistik usul yordamida tuzilgan lug‘atlar tobora ko‘payib boryapti. Xususan, eng so‘nggi davrlarda S.Umirova tomonidan yaratilgan “Usmon Azim asarlari tilining lug‘ati”⁷¹ shular jumlasiga kiradi. Ushbu lug‘at uchun adibning “Saylanma” (1995), “Fonus” (2007), “Yurak” (2009) to‘plamlari material vazifasini o‘tagan. Muallif zamonaviy kompyuter dasturlari yordamida uch xil (alfavitli, chastotali va ters) lug‘atlarni yaratgan. Natijada muallif “Saylanma” to‘plami matnidagi so‘zlar 39394 ta, matndagi so‘zshakllari 13666; “Fonus” to‘plami matnidagi so‘zlar 12052 ta, matndagi so‘zshakllari 5698 ta; “Yurak” to‘plami matnidagi so‘zlar 21373 ta, matndagi so‘zshakllar 8841 ta ekanligi aniqlangan va tahlil etilgan.

Badiiy asar yoki badiiy matn tilining tizimli lug‘atini yaratishda lug‘atchiligimizda bir muncha ishlar amalga oshirilgan. Maqsud Shayxzoda, Usmon Nosir, Pirimqul Qodirov, Azim Suyun singari ijodkorlar asarlari tilining lug‘atlari shular jumlasidan. Masalan, “Pirimqul Qodirov tarixiy romanlari tili lug‘ati”da⁷² yozuvchining “Yulduzli tunlar. Bobur”, “Humoyun va Akbar”, “Ona lochin vidosi” tarixiy romanlari materiallari obyekt qilib olingan. Bu lug‘at badiiy asar tili lug‘atiga bag‘ishlab yaratilgan lug‘atlardan ancha farq qilgan. Bu borada mualliflar mavjud tamoyillardan biroz chekingan holda, boshqacharoq yo‘l tutishni ma’qul topganki, ular lug‘atning tuzilishida ko‘zga tashlanadi. Lug‘at tuzuvchilar guruhining rahbari T.Qurbonov bunday yangiliklarni quyidagicha izohlaydi: “Lug‘atning “Kirish” qismida uning tuzilishi va foydalanish tartibi, tarkibi, lug‘at maqolasining tuzilishi, toponimlar va kishi ismlarining ma’nosi, tushunilishi qiyin bo‘lgan so‘zlar izohi, illyustrativ materiallarning berilishi, manbalar va ularning qisqartmalari haqida ma’lumot berildi. Romanlarda qo‘llanilgan so‘zlar konkordansida so‘zlarni berishda bir xildagi so‘z formalarining bittasi olinib, ular

⁷⁰ Иброҳимов А. Бобур “Девон”и тилидаги ўзлашма лексика, – 29 б.

⁷¹ С.Умирова. Усмон Азим асарлари тилининг луғати. (алфавитли луғат, частотали луғат, терс луғат). – Самарқанд: СамДУ нашри, 2019.

⁷² Курбонов Т. Бадий асар тили луғатини тузиш тажрибасидан // Тилшуносликнинг долзарб масалалари (илмий мақолалар тўплами, III) – Тошкент: 2006, – 14-18 б.

qayd etilgan sahifalar keltirildi. Soʻzformadan soʻng qavs ichida uning qaysi qalamga tegishli ekanligi koʻrsatildi”. Ushbu lugʻatda kitoblarning soʻzligi alohida-alohida tartibga keltirilgandan soʻng, mavjud kompyuter dasturi yordamida bir joyga jamlangan va alfavit tartibida berilgan. Masalan, **avlod [a]** – B: 258, 395, 430, HA:218, 317, 324; OLV: 146, 211. **Abo [a], navohi [a], ulufa [a], tabl [a], musohib [a], sahhof [a], miz [f-t], nishon [f-t], dahana [f-t], xufiya [f-t], shabpoʻsh [f-t], ulus [moʻgʻ], megajin [moʻgʻ]** kabi⁷³.

Ushbu lugʻatning keyingi qismida romanlarda qoʻllanilgan kishi ismlarining izohli lugʻati berilgan. Shulardan soʻng esa toponimik joy nomlari lugʻati, romanlarda qoʻllanilgan tushunilishi qiyin (koʻhna va tarixiy) soʻzlar lugʻati tavsif etilgan. Albatta, lugʻatning yaratilishida mavjud kompyuter dasturlari nihoyatda qoʻl kelgan. Matndagi har bir soʻzshakl belgilangan dastur asosida ajratilgan. Ularni farqlashda ajratib yoziladigan qoʻshma soʻzlar (*anhor boʻyi, oq yoʻl, shodu xandon*), juft soʻzlar (*topar-tutar, urf-odat, ostin-ustun, kesatib-netib*), koʻrsatish va boʻlishsizlik olmoshlari (*mana bu, ana shu, ana u, hech kim, hech nima*) inobatga olingan. Shundan soʻng romanlarning matnlari kompyuterga alohida-alohida kiritilgan va har uchalasida ham yuqoridagi tamoyilga amal qilingan. Taʼkidlash lozim: bu singari lugʻat oʻzbek tilshunosligida hali tuzilgan emas. Shuning uchun ham ilmda uning ilmiy-amaliy ahamiyati katta.

Xullas, oʻzbek lugʻatshunosligining tarkibiy qismi sifatida shakllanib kelayotgan yozuvchilik leksikografiyasi lugʻatshunosligimizda yangi davr boshlanganligidan dalolat beradi. Bu, eng avvalo, ushbu soha rivojiga kompyuter texnologiyalarining joriy etila boshlanganligi bilan izohlanadi. Yozuvchilik leksikografiyasi kompyuterning aralashuvi lugʻat maʼlumotlarining ishonchli va aniq boʻlishiga xizmat qilmoqda.

1.2-§. Folklor matnlari statistikasidagi tadqiqotlar tahlili

Tilshunosligimizda folklorning xilma-xil janrlariga daxldor materiallar matnlari asosida yaratilgan statistik tadqiqotlar anchagina. Masalan,

⁷³ Курбонов Т. Кўрсатилган манба, – 17 б.

hammualliflikka tuzilgan T.Mirzayev, J.Eshonqul, S.Fidokorlarning izohli lug‘ati⁷⁴, D.O‘rinboyeva, U.Umurzoqovlarning alfavitli-chastotali lug‘ati⁷⁵, B.Yo‘ldoshev, D.O‘rinboyevaning frazeologik lug‘ati⁷⁶, B.O‘rinboyev, K.Bozorboyevlarning frazeologizmlarning ta‘biri⁷⁷, G.Jumanazarova va H.Hamdamovalarning lug‘ati⁷⁸, G.Jumanazarova va G.Qodirovalarning “Zevarxon” dostoniga bag‘ishlangan lug‘ati⁷⁹, shuningdek, yakka mualliflikda e‘lon qilingan G.Jumanazarova⁸⁰, D.O‘rinboyeva⁸¹, N.Xadjimusayeva⁸² va boshqalarning muayyan dostonlar tiliga oid lug‘atlari shular sirasiga kiradi.

Ular orasida “Rustamxon”, “Orzigul”, “Zevarxon” dostonlari matni asosida tuzilgan lug‘atlar boshqa lug‘atlardan ancha farqlanadi. Har uchala dostonlarning o‘z matnlari bo‘yicha alohida-alohida so‘zlik, alfavitli, chastotali, ters (chappa) singari leksikografik manbalari yaratilgan va chop ettirilgan⁸³. Ularning har biri muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan mustaqil leksikografik tadqiqotlar sanaladi.

T.Mirzayev, J.Eshonqul, S.Fidokorning “Alpomish” dostonining izohli lug‘ati”da⁸⁴ 1157 ta leksemalarning ma‘nolari berilgan. G.Jumanazarova ham Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li tomonidan aytilgan “Shirin bilan Shakar” dostonining izohli lug‘atini tuzgan⁸⁵ va bu lug‘at 311 ta so‘zning izohini o‘z ichiga olgan.

Tilshunosligimizda o‘zbek lug‘atchiligini amalga oshirishda kompyuter dasturlaridan foydalangan D.O‘rinboyeva salmoqli ishlar qilgan. U xalq dostonlari matnini statistik tahlil qilish bilan birgalikda lug‘atlar tuzish ishini bajargan,

⁷⁴ Мирзаев Т., Эшонқул Ж., Фидокор С. “Алпомиш” дostonининг изохли луғати. – Тошкент: ELMUS-PRESS-MEDIA, 2007, – 162 б.

⁷⁵ Ўринбоева Д., Умурзоков У. Ўзбек халқ дostonлари тилининг алфавитли-частотали луғати, – Тошкент: 2006. – 185 б.

⁷⁶ Йўлдошев Б. Ўринбоева Д. Ўзбек халқ дostonларининг частотали-изохли луғати. – Тошкент: 2008. – 100 б.

⁷⁷ Ўринбоев Б. Бозорбоев К. “Алпомиш” дostonи фразеологизмларнинг таъбири. – Самарқанд, 2008, – 120 б.

⁷⁸ Жуманазарова Г., Ҳамдамова Ҳ. “Рустамхон” дostonи тилининг луғатлари. – Жиззах: 2021, – 485 б.

⁷⁹ Жуманазарова Г., Қодирова Г. “Зевархон” дostonи тилининг луғатлари. – Жиззах: 2023, – 300 б.

⁸⁰ Жуманазарова Г. “Ширин билан Шакар” дostonининг изохли луғати. , – Тошкент: Фан, 2007. –150 б.

⁸¹ Ўринбоева Д. Ўзбек халқ дostonлари тилининг частотали луғати. , – Тошкент: Фан, 2006. –180 б.

⁸² Ходжимусаева Н. “Орzigул” дostonи тилининг луғати. , – Тошкент: Фан ва технологиялар, 2012. – 387 б.

⁸³ Жуманазарова Г., Ҳамдамова Ҳ. “Рустамхон” дostonи тилининг луғатлари. – Жиззах: 2021, – 485 б.,

Жуманазарова Г., Қодирова Г. “Зевархон” дostonи тилининг луғатлари. – Жиззах: 2023, – 300 б.

⁸⁴ Mirzayev T. Eshonqulov J. Fidokor S. “Alpomish” dostonining izohli lug‘ati. 2007. – 162 б.

⁸⁵ Jumanazarova G. “Shirin va Shakar” dostonining izohli lug‘ati. 2007.

olingan natijalar asosida ikkita lugʻat nashr etgan.⁸⁶ Mazkur olimaning “Oʻzbek xalq dostonlari tilining chastotali lugʻati” uchun “Alpomish”, “Ravshan”, “Rustamxon” materiallari asos qilib olingan. Ushbu matnlar asosida zamonaviy kompyuter dasturlari yordamida 28499 marta qoʻllangan 19274 ta lugʻaviy birliklarni qamrab olgan soʻzshakllardan iborat har bir dostonning alohida chastotali va alfavitli-chastotali lugʻatlari tuzilgan. Lugʻatda berilgan statistik maʼlumotlarga koʻra, “Alpomish”da 14029, “Ravshan”da 7059, “Rustamxon”da 7411 ta soʻzshakllar kiritilgan va tahlil qilingan. Ushbu lugʻat avvalgi lugʻatlardan farqlanadi: har uch dostondagi soʻzshakllar alfavit tartibida va ularning chastotasi koʻrsatilgan. Soʻzshakllarning bu tartibda berilishining afzalligi shundaki, har bir tadqiqotchiga foydalanish uchun qulaylik tugʻdiradi va ularning uch doston misolida qiyoslash imkonini beradi. Ushbu lugʻatning yana bir ilmiy jihati “Alpomish” va “Ravshan” dostonlarida qoʻllanilgan soʻzshakllarning soʻz turkumlari kesimida berilganligidir. Masalan, ularda ot: 1597 (11,4%), 1359 (19,2%); sifat 425 (3,02%), 245 (3,4%); son 54 (0,4%), 28 (0,4%); olmosh 17 (0,1%), 20 (0,28%); ravish 266 (1,9%), 238 (3,3%); feʼl 1399 (9,9%), 1100 (15,5%) nisbatda qoʻllanilganligi aniqlangan. Ushbu raqamlar miqdori mustaqil soʻzlarning “Ravshan” dostonida qoʻllanishi “Alpomish” matnidagiga qaraganda faol ekanligi haqidagi xulosaga olib kelgan. Masalan, (“Alpomish” dostonida *bu* – 1069, *shu* – 182, *men* – 425, *mening* – 243; “Ravshan” dostonida *bu* – 139, *shu* – 137, *men* – 108, *olib* – 176 va 108, *kelib* – 224 va 57, *aytdi* – 158 va 56, *boʻlsa* – 249 va 77, *boʻladi* – 243 va 76) va atoqli otlar (*Qorajon* – 289, *Alpomish* – 264, *Ravshanbek* – 104, *Hasan* – 211, *Zulxumor* - 83) ikkinchi va uchinchi oʻrinlarda turganligi aniqlangan. Bu dostonlarda ham bir martadan qoʻllangan soʻzlar yuqori koʻrsatkichni tashkil etgan. Masalan, “Alpomish”da – 7476 va 53,3%, “Ravshan”da – 4303 va 60,9%. Shuningdek, 1 dan 10 gacha boʻlgan soʻzlar – 5262 (37,5%) va 2388 (33,8); 10 dan 90 gacha – 1179 (8,4%) va 319 (4,5%); 90 dan

⁸⁶ Oʻrinboyeva D. Oʻzbek xalq dostonlari tilining chastotali lugʻati. – Toshkent, OʻzME, 2006. – 244 b.; Oʻrinboyeva D., Umurzoqov U. Oʻzbek xalq dostonlari tilining alfavitli-chastotali lugʻati. – Toshkent, OʻzME, 2006. – 395 b.

1000 gacha – 112 (0,79%) va 14 (0,19)ni tashkil qilgan. Bir martadan qo‘llangan so‘zlarning asosiy qismini ot va fe‘llar tashkil etgan.

B.Yo‘ldoshev, D.O‘rinboyevaning lug‘ati⁸⁷ni tilshunosligimizdagi frazeologik lug‘atning dastlabki tajribadagi ilk namunasi deyish mumkin. Unga “Alpomish”, “Rustam” va “Ravshan” dostonlari matnlarini (jami: 28499 ta so‘zshaklni) asos qilib olingan. Aniq hisob-kitoblarga ko‘ra, “Alpomish”da – 14029, ya’ni 49,2%, “Ravshan” dostoni – 7059, ya’ni 24,7%, “Rustam” dostoni – 7411 so‘zshakli 26,2% miqdorni tashkil etadi. Matnlarda mualliflar jami 1041 ta frazeologik birliklarning 1641 marta qaytadan qo‘llanilganligini aniqlaganlar. Mualliflarning qo‘lga kiritgan natijalari quyidagicha bo‘lgan: “Alpomish” dostonida qaytalanish chastotasi 2007 so‘zshakl bo‘lib, umumiy tanlanma hajmining 14% ni, “Ravshan” dostonida 534 so‘zshakli umumiy tanlanma hajmining 7,5% ni, “Rustam” dostonida 647 so‘z shakli umumiy tanlanma hajmining 8,7% ni tashkil etadi”.⁸⁸

Lug‘at mualliflarining bu boradagi yutug‘ini G.Jumanazarova quyidagicha e’tirof etadi: “tanlangan dostonlardagi frazeologik birliklarning natijalarini Sh.Rahmatullayevning lug‘ati⁸⁹ bilan solishtiradi, faqat uchta doston matnida qo‘llanilgan 189 ta iboralarning ta’kidlangan lug‘atda uchramaganligini aniqlaydi. Tuzilishiga ko‘ra ikki qismdan iborat bo‘lgan bu lug‘atning dastlabki qismida o‘zbek xalq dostonlari matnidagi frazeologizmlarning qo‘llanish chastotasi qiyosiy yo‘nalishda alifbo tartibida berilgan bo‘lsa, keyingi qismda dostonlar matnidagi frazeologizmlarning qisqacha izohli lug‘ati o‘rin olgan. Tabiiyki, frazeologik birliklarning statistik aspektda tadqiq etilishi folklor tili bilan bog‘liq bo‘lgan barcha nazariy va amaliy masalalarni hal etishda bu lug‘atning ahamiyati juda katta”⁹⁰.

⁸⁷ B.Yo‘ldoshev, D.O‘rinboyeva. O‘zbek xalq dostonlarining chastotasi izohli frazeologik lug‘ati. – Toshkent: O‘zME, 2008. – 100 b.

⁸⁸ Ўринбоева Д. Достонлар тилида фразеологик бирликлар // Ўзбек тили ва адабиёти. –Ташкент: 2007, №6. – 87-90 б.

⁸⁹ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – 408 б.

⁹⁰ Jumanazarova G. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li dostonlari tilining lingvostatistikasi. – 100-101 b.

D.O‘rinboeva o‘zbek xalq og‘zaki ijodining ertak, topishmoq, masal va qo‘shiq singari to‘rtta mustaqil janrlarining matnlarini tanlab olib, kompyuter xotirasiga kiritdi va maxsus dasturlar yordamida salmoqdor qiyosiy, chastotali lug‘atini⁹¹ yaratdi. Bu lug‘atga “O‘zbek xalq ertaklari” (I tom, –T., 2007); Topishmoqlar (–T., 1981); O‘zbek xalq maqollari (–T., 2005); Boychechak (–T., 1984) kabi folklor namunalari tahlil obyektiga jalb etilgan. Tahlil jarayonida jami 46329 so‘zshaklning statistikasini o‘rgangan. Matnlar tahlilida ertak janrining umumiy matn hajmi – 14837, qaytalanishi – 77304, ya’ni 24,7% ni; qo‘shiq janrining 10692 so‘zshakli qaytalanishi – 31858, ya’ni 27,6% ni; topishmoq janrining umumiy matn hajmi 8569, qaytalanishi 27334, ya’ni 23,5% ni; maqol janrining umumiy matn hajmi – 12231, qaytalanishi – 45132, ya’ni 27,5% ni tashkil qilishi aniqlangan. Jami folklorning to‘rt janri materiallarining qiyosiy tahliliga bag‘ishlangan mazkur lug‘atda so‘zshakllarining qo‘llanish chastotasi qiyosiy-chog‘ishtirma tarzda, alifbo tartibida berilgan.

G.Jumanazarova va H.Hamdamovalarning lug‘ati Fozil shoir Yo‘ldosh o‘g‘li kuylagan “Rustamxon” dostoni matni asosida tuzilgan bo‘lib, tuzilishiga ko‘ra u to‘rt qismdan – so‘zlik, alfavitli, chastotali va ters lug‘atlardan iborat. Mazkur lug‘atda birdaniga so‘zlar chastotasining va ters holatining natijalari berilgan. So‘zlik lug‘at kompyuter yordamida tuzilganligi sababli bu borada mualliflar yuqori darajadagi aniqlikka erishgan, deb aytish mumkin.⁹²

Xullas, o‘zbek yozuvchilik leksikografiyasining yanada takomillashib borayotgani, sohaning o‘z mutaxassislari yetishib chiqayotganligi sababli bugun tilshunosligimiz har qanday davrda yaratilgan, zamonaviy kompyuterlarning matnlarning elektron nusxalari asosida leksikografik lug‘atlar tuzish imkoniyatiga ega bo‘lishdi.

⁹¹ Ўринбоева Д. “Ўзбек халқ оғзаки ижоди асарларининг қиёсий частотали луғати”. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2017.

⁹² Жуманазарова Г., Ҳамдамова Х. “Рустамхон” дostonи тилининг луғатлари. – Жиззах: 2021, – 485 б.

1.3-§. “Zevaxon” tili tadqiqidagi metod-usullar va ularning statistik tahlili

Kompyuter lingvistikasining yirik tadqiqotchilaridan biri professor A.Po‘latov “XXI asrda axborot ustida tezlik bilan ishlash jarayonida samaradorlikni oshirishning birdan-bir yo‘li kompyuterdan mahoratli foydalanish va har bir soha o‘z faoliyatini unga moslashtirishi dolzarb vazifa⁹³ ekanligini ta’kidlagan edi. Sohaning yana bir taniqli olimi S.Rizayev ham shunga o‘xshash mulohazani ilgari suradi: “Barcha aniq fanlar qatorida ijtimoiy-gumanitar fanlarida ham, ayniqsa, uning struktural, amaliy va matematik lingvistika sohasidagi nazariy va amaliy muammolarni zudlik bilan oqilona va tez hal etishda kompyuterlar asqotmoqda. Bu esa ham ish kuchi jihatidan, ham vaqt jihatidan ulkan imkoniyatlar yaratmoqda”,⁹⁴ deydi.

O‘zbek tilshunosligida badiiy matnlarni tahlil qilishda statistik tadqiqotlarning bir qator metod va usullaridan foydalanish, olingan natijalarni ilmiy jamoatchilikka tanishtirish masalalari hamon o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Shu boisdan mustaqillik davrida bir guruh olimlar o‘zlarining ilmiy-tadqiqot ishlarida statistik metod va usullarga murojaat qildilar. Buni S.N.Bo‘riyev⁹⁵, Yo.N.Hamroyeva⁹⁶, M.N.Tojiboyeva⁹⁷, D.O‘rinboyeva⁹⁸, G.U.Jumanazarova⁹⁹, N.Xadjimusayeva¹⁰⁰, A.M.Eshmurodov¹⁰¹, H.Hamdamova¹⁰² va boshqa olimlarning dissertatsion tadqiqotlarida kuzatamiz.

⁹³ Pўлатов А. Ўзбек компьютер лингвистикаси муаммолари ва уларни ечиш йўллари // Тилшуносликнинг долзарб масалалари. Илмий мақолалар тўплами. IV. – Тошкент: ЎЗМУ нашри, 2008, – 81-82 б.

⁹⁴ Ризаев С. Ўзбек тили машина фондининг яратилишига доир / Тилшуносликнинг долзарб масалалари. Илмий мақолалар тўплами. IV. – Тошкент: ЎЗМУ нашри, 2008. – 91 б.

⁹⁵ Бўриев С.Н. Ургут тумани микротопонимларининг лексик-семантик таҳлили: Филол.фан.номз. ..дисс.автореф. – Тошкент, 2010.

⁹⁶ Ҳамраева Ё.Н. Ўзбек тилининг идеографик луғатини тузиш тамойиллари: Филол.фан.номз. ..дисс.автореф. – Тошкент, 2010.

⁹⁷ Тожибоева М.Р. Алишер Навоийнинг «Илк девон»идаги арабча сўзларнинг лексик-семантик талқини: Филол.фан.номз. ..дисс.автореф. – Тошкент, 2011.

⁹⁸ Ўринбоева Д. Халқ оғзаки ижоди: жанрий-лисоний ва лингвостатистик тадқиқ муаммолари, Филол.фан.д-ри. ...дисс. – Самарқанд, 2019. – 128 б.

⁹⁹ Жуманазарова Г. Фозил Йўлдош ўғли дostonлари тилининг лингвопоетикаси (лексик-семантик, лингвостилистик ва лингвостатистик таҳлил). Филол.фан.д-ри. ...дисс.автореф. – Тошкент, 2017. – 145 б.

¹⁰⁰ Хаджимусаева Н. “Орзигул” дostonининг статистик, семантик-стилистик ва лингвопоетик тадқиқи. Филол.фан.б.фалс.док... дисс. – Жиззах, 2020. – б.

¹⁰¹ Эшмуратов А.М. “Холдорхон” дostonининг лингвостилистик хусусиятлари (Эргаш Жуманбулбул ўғли варианти асосида). – Филол.фан.б.фалс.док... дисс. – Жиззах, 2021. –180 б.

¹⁰² Ҳамдамова Х. Рустамхон дostonи сўз бойлиги (лексикографик, функционал-семантик ва лингвостилистик таҳлил) – Филол.фан.б.фалс.док...дисс. – Жиззах, 2022. – 170 б.

Fanimizdagi ayni holatlarni kuzatgan professor A.Ibrohimov quyidagilarni ta'kidlaganida mutlaq haq edi: "Statistik usulni tilshunoslikda qo'llash shunchaki maqsad emas, balki tilning nihoyatda murakkab tuzilishi, uning amal qilish sirlarini bilishda an'anaviy usul bilan birgalikda bir vositadir. Aniqlik ilmiy ishning talablaridan biridir. Lekin an'anaviy tilshunoslikning eng katta kamchiligi unda aniqlikning yetishmasligi, ko'pchilik natijalarning taxminiy bo'lishidir. Mana shuning uchun ham tilshunoslar statistikaga asoslangan usulga murojaat qila boshladilar".¹⁰³ Nazarimizda ammo bu mulohazalar masalaning faqatgina bir jihatini qamrab olgan. Uning ikkinchi tomoni ham bor. Statistik tahlilni amalga oshirish maqsadida kompyuter xotirasiga kiritilgan har qanday matn izlanuvchi uchun qayta ishlanishga tayyor material bo'la oladi. Istalgan lug'aviy birlikning chastotasi aniqlangandan keyin uni mikromatnlar qurshovida ajratib olish va bir yerda to'plab, o'rganish imkoniyati ortadi.

Har bir matnni statistik tahlil qilishning o'ziga xos mezonlari va usullari mavjud. Ayni mulohaza tadqiqotimiz obyektiga daxldor o'zbek dostonlari matniga ham tegishli. Bu sohadagi qisqacha mulohazalarimizni tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda "Zevarxon" dostoni matni misolida bayon qilamiz.

"Zevarxon" matnining elektron variantini yaratish natijasida leksikografik lug'atlar tuzish amaliyotida S.Karimov guruhi tomonidan tuzilgan kompyuter dasturlaridan metodologik asos sifatida foydalandik. Shu sababli ushbu guruh tomonidan qayd etilgan kamchiliklarni shu o'rinda keltiramiz. "Jumladan, kompyuterning qo'shtirnoqni farqlamaganligi ("Qo'shchinor chiroqlari"dagi yoki "Mushtum"ni deb yozilgan bo'lsa, uning tarkibidagi *-dagi* va *—ni* ning ham alohida so'z tarzida qayd etilishi yoki *Qo'shchinor chiroqlaridagi*, *mushtumni* tarzida keltirishi va uni izlaganda kompyuterning topib bera olmasligi), A.P.Chexov kabi holatlarda *A* va *P* ning ham alohida so'z, *husniga-husn*, *salmog'iga-salmoq* juft so'zlar sifatida, *10 ta* yoki *8 tasi* tarzidagi shakllardagi son ifodalanmasdan, faqat *ta* yoki *tasi* alohida birlik sifatida qayd etilishi ko'rsatib

¹⁰³ Иброҳимов А. Бобур "Девон"и тилидаги ўзлашма лексика. – Тошкент: ТДШИ, 2006, – 4 б.

o‘tilgan”.¹⁰⁴ “Zevaxon” dostoni matnida bu kabi holatlarga deyarli duch kelinmadi.

Dostonning statistik tahlilida birorta leksemaning matndagi qo‘llanish darajasi haqidagi ma’lumot yetakchilik qiladi. Dostondagi har qanday so‘zning qo‘llanish xususiyati o‘rganilganida, kompyuter dasturidan olingan natijalar tayanch manba sifatida xizmat qiladi. Masalan, *bosh* so‘zining qo‘llanish darajalarini aniqlash zarurati tug‘ildi, deylik. Kompyuter dasturi bu so‘zning doston matnida 31 so‘zshakl holatida 117 marta uchrashini aniqlab beradi: *bosh, boshga, boshda, boshdan, boshdi, boshi, boshiga, boshida, boshidan, boshim, boshima, boshimga, boshimdan, boshimni, boshina, boshing, boshingi, boshingdan, boshingni, boshini, boshlab, boshladi, boshladim, boshlaydi, boshlamay, boshlaringni, boshqa, boshqalarni, boshqargan, boshqargin, boshqarib* kabi.¹⁰⁵ Bulardan tashqari, kompyuter *bosh* so‘zi qo‘llangan 117 holatni mikromatn shaklida bir joyga to‘plab beradi, olingan natijalardan ayrim misollar keltiramiz: *Qarg‘a, zag‘cha uya qo‘yib boshima, // Xafa falak og‘u qo‘shdi oshima* (122); *Ne savdolar tushar boshimga, // Qo‘rqaman shu kecha ko‘rgan tushimdan* (127); *Noinsoflar ketdi ko‘p tashvish berib // Ayamay boshingga qamchilar urib* (138); *Aldamchi bo‘p yursa elni oralab, // Men kesaman unday kishi boshini* (142); *Qirq kunda Semurg‘ kelmasa, // Boshim kesib sen ham dorga ilasan* (145) kabi.

Jahon tilshunosligida tan olingan olimlardan K.B.Bektayev, R.G.Piatrovskiylarning nazariyasiga ko‘ra matndagi so‘zlarning ishlatilish koeffitsiyentini aniqlash masalasi har qanday statistik tadqiqotda eng dolzarb sanaladi. U quyidagi formula orqali amalga oshiriladi: $R_a = \frac{m}{n}$.

n

Bunda R_a – so‘zning ishlatilish ehtimoli koeffitsiyenti, m – tahlil etilayotgan elementning soni, n – so‘zlikning umumiy sonini bildiradi. Yoki fransuz

¹⁰⁴Каримов С., Қаршиев А., Исроилова Г. Абдулла Қаҳҳор асарлари тилининг луғати. Алфавитли луғат, – 10 б.

¹⁰⁵ Зевархон. (Айтгуччи Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи М.Алавия, нашрга тайёрловчи М.Муродов, Тошкент, 1986 й).

matematigi Laplas (XVIII asr) ifodalagan ehtimollikning klassik ta’rifidan ba’zan tilshunoslikda ham foydalanib kelinayotganligi ma’lum.¹⁰⁶ Ushbu nazariyaga ko’ra, masalan, biron bir matndagi, aytaylik, A_I so’z F_I marta qo’llangan bo’lsa, mana shu so’zning mazkur matndagi qo’llanish ehtimoli quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$P(A_I) = \frac{F_I}{N}$$

S.Rizayev doktorlik dissertasiyasida¹⁰⁷ til va nutq birliklarining qo’llanish chastotalariga bo’lgan ishonchlilikni aniqlash maqsadida matematik statistika va ehtimollar nazariyasidagi “Ishonchlilik bahosi” (“Оценка достоверности”), “Ishonchlilik oralig’i” (“Доверительный интервал”) kabi formulalardan foydalangan. Keyingi paytlarda amalga oshirilgan G.Jumanazarova, H.Hamdamovalar dissertatsion ishlarida¹⁰⁸ ta’kidlangan usul va metodlardan foydalangan. Biz ham ta’kidlangan metod va usullar, formulalardan tadqiqotimizda foydalangan holda “Zevaxxon” dostoni matnining statistik tahlilini amalga oshiramiz va ularning o’ziga xos xususiyatlari haqidagi kuzatishlarimizni qisqacha bayon etamiz.

G.Jumanazarova Fozil Yo’ldosh o’g’lining dostonlari leksikasini statistik usullar asosida tadqiq etish, ularning leksikografik manbalarini tayyorlash singari ilmiy amaliy ahamiyatli muammolarni hal qilish uchun quyidagi dolzarb mulohazalarni o’rtaga tashlaydi:

“ a) Fozil shoir dostonlariga asos bo’lgan o’zbek shevalarini, xususan, je-lovchi qipchoq dialektiga xos so’zlikni aniqlash va to’plash; b) Fozil shoirning epik dostonlari tili bo’yicha olib boriladigan ilmiy tadqiqotlarga va navbatdagi tuziladigan lug’atlarga materiallar yig’ish; v) o’zbek xalq dostonlari bo’yicha

¹⁰⁶ Бектаев К.Б., Пиатровский Р.Г. Математические методы в языкознании. Ч. 1. Теория вероятностей и моделирование норма языка – Алма-Ата, 1973. – С.53.

¹⁰⁷ Ризаев С.А. Ўзбек тилининг лингвостатистик тадқиқи. Филол.фан.д-ри...дисс. – Тошкент, 2008.

¹⁰⁸ Жуманазарова Г.У. Фозил Ўлдош ўғли дostonларининг лингвопоэтикаси. – Тошкент, 2012.; Ҳамдамова Ҳ. Рустамхон дostonи сўз бойлиги (лексикографик, функционал-семантик ва лингвостилистик таҳлил) – Филол.фан.б.фалс.док...дисс. – Жиззах, 2022. – 170 б.

navbatdagi tuziladigan izohli lugʻatlarga qoʻshimchalar kiritish; g) hozirgacha tuzilgan oʻzbek shevalarining izohli lugʻatlariga qoʻshimchalar kiritish; d) eng muhimi, Fozil shoirning leksik boyligini aniqlash va tadqiq etish”¹⁰⁹ kabi.

Biz tomonimizdan tuzilgan va nashr etilgan tadqiqot-lugʻat¹¹⁰da rejalashtirilgan quyidagi ishlar amalga oshirildi: a) jahon va oʻzbek tilshunosligida olib borilgan statistik tadqiqotlar tahlil etildi; b) “Zevarxon” dostonining lisoniy xususiyatlarini ochib berishda statistik metod va usullarning ahamiyati tavsiflandi; v) mazkur dostonning leksikografik manbalari ketma-ketlik tartibida berildi; g) “Zevarxon”da 5053 ta soʻzshakl qoʻllanganligi aniqlandi.

Tadqiqotimiz obyekti boʻlgan “Zevarxon” dostonining yozib olinishi, saqlanishi va nashr etilish jarayoni haqida quyidagilarni taʼkidlamoqchimiz: bu asarni dastlab folklorshunos olimi Muzayyana Alaviya 1954-yilda yozib olgan, u hozirgi kunda Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi oʻzbek tili, adabiyoti va folklori ilmiy-tadqiqot institutining folklor arxivida inventar №955 raqami bilan 125 betlik hajmda saqlanmoqda. Doston turli yillarda va har xil hajmlarda eʼlon qilingan. Ular: 1) Zevarxon, doston, nashrga tayyorlovchi M.Murodov, –Toshkent, 1970, 90 bet; 2) Zevarxon, doston, nashrga tayyorlovchi M.Murodov, –Toshkent, 1986, 120-198-betlar. “Zevarxon” dostonining hozirgi kundagi eng mukammal matni 1986-yildagi nashri sanaladi. Biz mana shu manbani tadqiqotimizga asos qilib oldik va zamonaviy kompyuterning maxsus dasturlari yordamida uning leksikografik lugʻatlarini tuzdik. Fozil shoirning “Zevarxon” dostonida ishlatilgan soʻzlar sonini, yaʼni uning soʻz boyligini aniqlashda quyidagi tamoyillar asosida ish olib bordik:

a) soʻzning fonetik variantlari alohida-alohida soʻz hisoblandi – *tov – togʻ, gah – goh, podsho – podshoh – poshsho, zoʻrabor – zoʻravon* va h.k.;

b) barcha soʻz turkumlariga oid soʻzlar alohida soʻz hisoblandi;

v) leksemalarning shakllari (shaxs-son, kelishik qoʻshimchalari bilan, feʼlning zamon, shaxs-son, nisbat, turli mayllardagi shakllari) soʻzlik lugʻatida

¹⁰⁹ Жуманазарова Г.У. Фозил Йўлдош ўғли дostonларининг лингвопоэтикаси. – Тошкент, 2012.

¹¹⁰ Жуманазарова Г.У. Қодирова Г.С. Зевархон дostonи тилининг луғатлари. – Жиззах: ЖизПИИ типографияси нашриёти, 2023. – 300 бет.

bitta soʻz hisoblandi. Masalan, *gul, guli, gulday, gulning, guldayin* kabilar bitta soʻz (*gul*); *daryo, daryoday, daryodayin* kabilar bitta soʻz (*daryo*) kabi.

g) muayyan soʻz birikmalaridagi leksemalar mustaqil birlik namunasi sifatida berildi. Masalan, doston tilidagi *ochilgan gulday* birikmasi alohida-alohida *ochilgan* va *gulday* soʻzlari tarzida berildi;

d) va bogʻlovchisi (-oʻ, -yu) bilan kelgan juft soʻzlar alohida soʻz deb olindi;

y) soʻzlarning alfavitlashtirilishida kompyuterda kirillcha-oʻzbekcha harflarni kodlashtirish natijasida sodir boʻlgan kamchiliklar ham inobatga olindi. *Oʻ, Q, Gʻ, H* harflari kompyuterda xuddi *u, k, g, x* tarzida oʻqilishi soʻz ichidagi alfavitlashtirish jarayoniga salbiy taʼsir koʻrsatganligini taʼkidlash lozim. Ularni amaldagi tartibda alfavitlashtirish katta qoʻl mehnatini talab qilishini va lugʻat matniga kompyuter yordamida qayta ishlov berilganida bu tartibning yana oʻzgarib ketaverishini inobatga olib, kompyuter qanday alfavitlashtirilgan boʻlsa, shu tartib nashrda ham saqlab qolindi.

Mazkur tamoyillar asosida Fozil shoir “Zevarxon” dostonida 15701 ta soʻz (5053 ta soʻzshakl) ishlatilganligini aniqladik. Zamonaviy kompyuterning dasturlari asosida biz dastlabki urinish sifatida doston boʻyicha soʻzlik, alfavitli, chastotali va ters (chappa) lugʻatlarni oʻz ichiga olgan leksikografik manbalarini yaratdik. Xalq dostonlari tili ustida kuzatishlar olib bormoqchi boʻlgan barcha mutaxassislar va tadqiqotchilar ushbu lugʻatlar yordamida Fozil shoir qoʻllagan soʻz, soʻzshakl, bu soʻzshakllarning alifbo yoki ters (chappa) tartibda qoʻllanish chastotasi haqida aniq tasavvurlarga ega boʻla oladi.

Tilshunos S.Rizayevning “Lingvistik tadqiqotlarda tanlanma hajmi (N) qanchalik koʻp boʻlsa, kutilgan natija shunchalik ishonchli va samarali boʻladi”¹¹¹, degan ilmiy fikriga tayanib, “Zevarxon” dostonining elektron variantini tayyorlashda *tanlanma metodini* tanlab oldik.

Tadqiqotimizning dastlabki bobida rejalashtirilgan ishni amalga oshirishdagi *birinchi vazifa* mazkur dostonning elektron matnini zamonaviy kompyuter

¹¹¹ Ризаев С. Ўзбек тилшунослигида лингвостатистика муаммолари. – Тошкент: Фан, 2006, – 21 б.

xotirasiga kiritish bo'ldi va natijada 82 sahifalik matnda berilgan raqamlar umumlashtirilganda 15859 lug'aviy birlik qo'llanganligi aniqlandi.

Ikkinchi vazifa sifatida matnning elektron variantiga asoslanib *alfavitli, chastotali va ters lug'atlar* tuzish ishlarini bajardik. Zamonaviy kompyuter dasturlari asosida dastlab quyidagi natijalar olindi: dostondagi so'zlarning miqdori: so'zshakllar 5053 tani, jami qo'llanish holati 15701 tani tashkil etdi. Tuzilgan lug'atlar yordamida qo'llanilgan so'zshakl va ularning qo'llanish chastotasi ham aniqlandi. Demak, "Zevarxon" dostonida jami 5053 ta so'zshaklni 15701 marta qo'llangan. Bu raqamlarda ba'zi bir farqlar borligi ko'zga tashlanadi. Dastlabki ma'lumotnomada lug'aviy birliklar soni 5053 ta deb berilgan. Bu kompyuter ko'rsatkichi. Lug'atlarda esa matnda 15701 so'zshakl mavjudligi qayd etilgan.

Alfavitli lug'atdagi so'zshakllar va ularning qo'llanish chastotasi o'rtasidagi farqlar aniqlandi. Xususan, dostondagi so'zlarning jami qo'llanishi: *matnda* 15859, *lug'atda* 15701 ta; ularning farqi quyidagicha: *sonda* 158, foiz hisobida: 0,009963%. Ushbu statistik ma'lumotdan ayon bo'ladiki, doston matnining elektron matni ochilganda kompyuter ko'rsatadigan raqam lug'atlar tuzilgandan keyingi raqamlarga qaraganda biroz ko'p. Ammo bu farq 0,009963 dan oshmaydi. Boshqacha aytganda, ular o'rtasidagi farq har 100 ta so'zga 1 farq to'g'ri kelishi mumkin. Demak, bu yerda *nisbiy xato* $\delta = 0,01-0,02$ ga teng.

Bu nisbiy kamchiliklarning asosiy sababi shuki, kompyuter elektron matndagi raqamlarni har bir lug'aviy birlik sifatida qayd etadi, lug'atlarda esa harf (so'z) bilan yozilmagan son hisobga olinmaydi. Shu bois bu nomuvofiqlikka jiddiy kamchilik sifatida qaralmasa ham bo'ladi.

Tadqiqotni amalga oshirishda doston matni bo'yicha alohida-alohida alfavitli, chastotali va ters lug'atlar tuzildi. Lekin har bir lug'atning o'z vazifalari va xususiyatlari bor. Masalan, dostonning *alfavitli-chastotali lug'atida* so'zlar alifbo tartibida berilgan. Ayni paytda, unda so'zshakllarning necha marta va matnning qaysi sahifalarida uchraganligi o'z ifodasini topgan: mazkur lug'atdagi dastlab raqam so'zshaklni, so'zshakldan keyingi raqam – so'zshaklning doston matnida umumiy tarzda necha marta qo'llanganligini, keyingi raqam – doston

sahifasining raqamini, qavs ichidagi raqamlar esa doston sahifasida qoʻllanish darajasini ifodalaydi. Fikr-mulohazalarimizni dalillash maqsadida oʻzimiz tuzgan lugʻatdagi A harfi bilan bogʻliq lugʻat maqolasini bu oʻrinda berishni lozim topdik¹¹²:

¹¹² Жуманазарова Г.У. Қодирова Г.С. Зевархон достони тилининг луғатлари. – Жиззах: ЖизПИ типографияси нашриёти, 2023. – 75 б.

<p>A</p> <p>abgor 6 129(1) 139(1) 182(1) 183(2) 192(1)</p> <p>abgor-abgashtalikni 1 193(1)</p> <p>abgoru 1 130(1)</p> <p>abjillikman 1 166(1)</p> <p>avval 3 165(1) 166(1) 191(1)</p> <p>avlodim 1 136(1)</p> <p>agar 11 124(1) 133(1) 134(1) 135(1) 143(1) 161(1) 162(1) 188(1) 190(3)</p> <p>adab 1 141(1)</p> <p>adashgan 3 132(1) 197(1) 198(1)</p> <p>adashganman 3 157(3)</p> <p>adashdi 1 162(1)</p> <p>adashdik 1 193(1)</p> <p>adashdim 1 187(1)</p> <p>adashib 4 128(1) 168(1) 176(1) 195(1)</p> <p>ado 7 125(1) 128(1) 136(1) 156(1) 177(1) 180(1) 197(1)</p> <p>adolatli 1 126(1)</p> <p>ayollarning 1 129(1)</p> <p>ayolman 1 165(1)</p> <p>ayon 2 155(1) 178(1)</p> <p>ajab 18 128(1) 132(1) 134(1) 140(1) 142(1) 145(1) 154(1) 156(1) 162(1) 167(1) 178(1) 180(3) 182(2) 184(1) 185(1)</p> <p>ajal 2 179(1) 189(1)</p> <p>ajali 1 172(1)</p> <p>ajalning 1 180(1)</p> <p>ajoyib 12 124(1) 131(1) 132(1) 162(1) 176(1) 181(2) 184(2) 185(1) 186(1) 192(1)</p> <p>ajoyib-g'aroyib 3 142(1) 154(1) 193(1)</p> <p>azayimxon 1 125(1)</p> <p>azayimxonlarni 1 124(1)</p> <p>azalda 1 159(1)</p> <p>azamat 2 151(1) 188(1)</p> <p>aziz 5 123(1) 146(2) 160(1) 174(1)</p> <p>azizlab 1 149(1)</p> <p>azizlardan 1 168(1)</p> <p>azizlarni 1 168(1)</p> <p>azizni 1 168(1)</p>	<p>azob 8 123(1) 160(1) 171(1) 172(1) 187(1) 189(1) 195(1) 196(1)</p> <p>azobdan 1 193(1)</p> <p>azobi 1 158(1)</p> <p>azobin 1 172(1)</p> <p>azonni 1 186(1)</p> <p>ayvonlar 1 120(1)</p> <p>ayyomi 1 151(1)</p> <p>ayirib 1 179(1)</p> <p>ayirmay 1 188(1)</p> <p>ayirmaydi 1 165(1)</p> <p>ayirmayik 1 165(1)</p> <p>ayla 5 135(1) 160(1) 168(1) 174(2)</p> <p>aylab 2 158(1) 184(1)</p> <p>aylabsan 1 134(1)</p> <p>aylagil 2 123(2)</p> <p>aylagin 6 135(1) 139(2) 157(1) 191(1) 195(1)</p> <p>ayladi 4 123(1) 144(1) 173(2)</p> <p>ayladim 2 121(1) 126(1)</p> <p>aylading 8 135(1) 176(2) 177(5)</p> <p>aylay 1 123(1)</p> <p>aylaylik 1 166(1)</p> <p>aylama 3 183(3)</p> <p>aylangan 1 121(1)</p> <p>aylandi 2 121(1) 125(1)</p> <p>aylanib 4 134(1) 173(1) 185(1) 187(1)</p> <p>aylansak 1 166(1)</p> <p>aylasa 1 138(1)</p> <p>aylasam 7 129(1) 155(3) 178(2) 184(1)</p> <p>aynalgan 1 188(1)</p> <p>ayni 1 123(1)</p> <p>ayrilgani 2 197(2)</p> <p>ayrildim 3 138(1) 154(1) 159(1)</p> <p>ayrilib 11 127(3) 129(1) 138(2) 160(1) 173(1) 174(1) 195(2)</p> <p>ayriliq 2 128(1) 157(1)</p> <p>ayriliqqqa 1 159(1)</p> <p>ayrilishib 1 175(1)</p> <p>ayrilma 6 127(6)</p> <p>ayrilmaydi 1 163(1)</p> <p>aytaber 1 150(1)</p> <p>aytadi 8 141(1) 146(1) 147(1)</p>	<p>162(1) 165(1) 183(1) 185(1) 189(1)</p> <p>aytayotibdi 1 183(1)</p> <p>aytayotir 6 137(1) 144(1) 151(1) 156(1) 164(1) 178(1)</p> <p>aytay 6 135(1) 136(1) 139(1) 159(1) 164(1) 175(1)</p> <p>aytayin 2 138(2)</p> <p>aytaman 3 124(1) 194(2)</p> <p>aytamiz 1 189(1)</p> <p>aytar 8 147(1) 162(1) 167(1) 177(2) 178(1) 185(1) 186(1)</p> <p>aytardi 1 192(1)</p> <p>aytasan 1 143(1)</p> <p>aytayapti 10 143(1) 152(1) 157(1) 161(1) 167(1) 170(1) 181(1) 187(1) 188(1) 193(1)</p> <p>aytgan 19 125(1) 135(1) 140(2) 143(1) 145(1) 147(2) 149(1) 150(1) 155(2) 165(1) 168(1) 169(1) 187(1) 193(1) 197(2)</p> <p>aytgandan 1 173(1)</p> <p>aytganimizni 1 143(1)</p> <p>aytganingni 2 143(1) 146(1)</p> <p>aytgini 4 143(1) 158(1) 168(1) 190(1)</p> <p>aytdim 4 133(1) 144(2) 157(1)</p> <p>aytib 31 122(1) 124(1) 125(1) 126(1) 128(1) 129(2) 136(2) 138(2) 142(1) 146(3) 150(1) 153(1) 157(1) 159(1) 166(1) 168(1) 171(1) 174(1) 176(1) 178(1) 180(1) 185(2) 186(1) 188(1) 192(1)</p> <p>aytibdi 1 173(1)</p> <p>aytmagin 1 153(1)</p> <p>aytmadi 1 151(1)</p> <p>aytmay 1 144(1)</p> <p>aytmaydi 1 151(1)</p> <p>aytmayman 1 175(1)</p> <p>aytmasa 1 161(1)</p> <p>aytolmay 2 122(1) 149(1)</p> <p>aytolmayman 1 131(1)</p> <p>aytolmas 1 136(1)</p> <p>aytsa 1 142(1)</p> <p>aytsang 2 190(2)</p>
--	--	---

Mazkur lugʻat maqolalarining berilishida matnni hech qanday oʻzgarishlarsiz olish prinsipiga amal qilindi. Masalan, *bormoq* soʻzshaklini olaylik, u matnda qanday holatda boʻlsa, aynan shu koʻrinishda – *bor*, *bor-yoʻgʻi*,

boraverib, borayotganida, borayotib, borayotir, borayin, boramiz, borin, bordi, bordilar, bori, bordim, borib-borib, borib-kelish, boringni, boricha, bormisan, bormoqchi, bormoqchiman, borsa, borsangiz tarzida berildi.

Chastotali lug‘at deb nomlangan ikkinchi leksikografik manbamizning alfavitli lug‘atdan muayyan farqlari bor. Aslida bir so‘zshaklning necha marta va matnning qaysi sahifalarida uchrashligini ko‘rsatishi jihatidan alfavitli lug‘atlarning aynan o‘ziga o‘xshaydi. Ammo lug‘atning bu tipida so‘zlarga alifbo tartibida emas, balki so‘zshakllarning qo‘llanish darajasiga qarab, ko‘pdan kamayishga, yuqoridan pastga qarab tartib beriladi. Fikrimizni dalillash uchun o‘zimiz tuzgan lug‘atdan misol keltiramiz¹¹³.

¹¹³ Жуманазарова Г.У. Қодирова Г.С. Зевархон достони тилининг луғатлари. – Жиззах: ЖизПИ типографияси нашриёти, 2023. – 110 б.

qani 23 129(1) 130(3) 131(1)	156(1) 158(2) 159(2) 167(1)	194(1)
146(2) 155(1) 157(1) 166(4)	168(1) 169(1) 170(1) 184(1)	edim 20 130(1) 132(1) 134(1)
174(2) 182(1) 184(2) 190(1)	188(1) 195(2) 196(2)	136(5) 138(2) 149(1) 151(1)
194(1) 196(3)	o'z 22 124(1) 125(1) 126(1)	166(2) 175(1) 179(2) 191(1)
Hasan 23 123(1) 125(1) 153(2)	133(1) 146(1) 156(1) 163(1)	193(1) 195(1)
156(1) 161(4) 162(1) 163(2)	165(1) 166(1) 169(1) 172(1)	amaldorlar 19 137(1) 138(1)
173(1) 174(4) 184(1) 196(4)	174(2) 175(2) 183(1) 186(1)	141(1) 149(1) 167(3) 171(2)
197(1)	190(1) 192(1) 194(1) 196(1)	172(1) 173(1) 187(1) 188(1)
shoh 23 120(1) 121(1) 133(2)	197(1)	189(3) 193(1) 196(2)
141(1) 146(1) 150(1) 151(1)	haydab 22 147(1) 170(3) 171(3)	aytgan 19 125(1) 135(1) 140(2)
152(1) 155(1) 156(1) 160(1)	172(1) 174(1) 177(1) 178(1)	143(1) 145(1) 147(2) 149(1)
162(1) 169(1) 170(1) 172(1)	187(1) 188(4) 189(3) 191(3)	150(1) 155(2) 165(1) 168(1)
187(1) 189(6)	Hasanxon 22 121(1) 123(2)	169(1) 187(1) 193(1) 197(2)
berib 22 121(1) 124(1) 125(1)	125(1) 126(1) 127(2) 129(1)	javob 19 123(1) 124(2) 125(2)
127(1) 133(1) 138(2) 140(2)	153(1) 157(4) 160(2) 161(1)	135(1) 146(2) 151(1) 157(1)
141(1) 149(1) 155(1) 160(1)	162(2) 174(2) 175(1) 196(1)	188(1) 189(1) 190(4) 191(1)
169(1) 172(2) 175(1) 176(1)	bul 21 133(1) 141(1) 145(2)	192(1) 196(1)
179(1) 188(1) 196(1) 198(1)	148(1) 151(1) 157(1) 161(1)	zamon 19 121(1) 127(1) 129(2)
bog'dod 22 121(2) 122(1)	163(1) 165(3) 172(1) 173(3)	133(1) 134(1) 139(1) 144(1)
123(1) 129(1) 131(1) 141(1)	181(1) 190(1) 194(1) 195(2)	154(1) 164(1) 169(1) 189(1)
150(1) 153(1) 154(1) 156(2)	ikki 21 125(1) 126(1) 129(1)	190(1) 193(1) 194(3) 195(1)
157(6) 196(2) 197(2)	138(1) 142(3) 143(2) 144(1)	197(1)
bular 22 121(2) 128(2) 133(1)	145(1) 146(1) 147(1) 148(1)	ko'rdim 19 121(1) 124(1) 131(1)
137(1) 138(1) 140(2) 141(1)	153(1) 160(1) 161(2) 173(1)	139(1) 142(1) 144(1) 150(1)
145(1) 147(1) 149(1) 153(2)	175(1) 183(1)	154(2) 174(1) 184(1) 186(1)
156(1) 171(1) 176(1) 181(1)	yaxshi 21 120(1) 122(1) 124(1)	187(1) 192(1) 193(4) 197(1)
186(2) 189(1)	126(1) 128(1) 134(1) 149(1)	amaldor 18 141(3) 142(1)
buni 22 121(1) 125(1) 136(1)	157(1) 159(1) 165(1) 166(1)	152(2) 169(3) 175(1) 178(1)
144(2) 151(1) 159(1) 163(1)	176(1) 177(1) 181(1) 184(1)	187(1) 189(2) 194(1) 196(1)
168(1) 172(1) 177(4) 178(2)	185(2) 186(1) 190(1) 191(1)	197(1) 198(1)
180(1) 188(3) 190(1) 191(1)	oldi 20 121(1) 123(2) 124(2)	gap 18 138(1) 145(1) 147(1)
yetdi 22 124(1) 127(1) 129(1)	138(1) 139(1) 149(1) 159(2)	154(1) 156(1) 157(1) 159(1)
133(1) 141(3) 146(1) 151(1)	160(1) 164(1) 165(1) 169(1)	161(1) 168(1) 170(1) 171(1)
159(1) 160(1) 163(1) 172(2)	178(1) 179(1) 182(1) 183(1)	172(3) 173(1) 185(1) 189(1)
179(1) 185(1) 187(2) 196(2)	194(1) 198(1)	195(1)
197(1) 198(1)	podshoning 20 136(1) 143(1)	ko'rgan 18 123(1) 127(1) 128(1)
jonim 22 121(2) 122(1) 123(4)	144(1) 146(1) 149(3) 151(1)	130(1) 131(1) 132(1) 135(1)
124(1) 125(1) 130(1) 139(3)	155(1) 170(3) 171(2) 174(1)	142(3) 152(1) 153(1) 156(1)
160(1) 174(1) 177(1) 184(1)	180(1) 181(2) 188(1) 194(1)	157(1) 179(1) 187(1) 192(1)
189(1) 191(1) 192(1) 193(1)	qiladi 20 137(2) 140(1) 141(3)	195(1)
195(1)	145(1) 151(1) 155(2) 171(2)	ajab 18 128(1) 132(1) 134(1)
turgan 22 124(1) 130(1) 132(1)	172(2) 175(1) 179(1) 185(1)	140(1) 142(1) 145(1) 154(1)
134(1) 136(1) 138(1) 143(1)	186(1) 189(1) 190(1)	156(1) 162(1) 167(1) 178(1)
150(1) 157(1) 159(1) 160(1)	hayron 20 133(1) 134(1) 135(1)	180(3) 182(2) 184(1) 185(1)
161(2) 168(1) 169(1) 170(1)	137(1) 140(1) 141(1) 146(1)	semurg'ni 18 133(1) 135(1)
180(1) 186(1) 190(1) 192(1)	148(3) 149(1) 161(1) 163(1)	136(1) 137(2) 138(4) 140(1)
193(2)	164(2) 171(1) 172(2) 190(1)	143(2) 145(2) 146(1) 147(1)
xubon 22 120(5) 122(1) 154(1)		149(1) 152(1)

Ters lug'at ham o'ziga xos lisoniy xususiyatlarga ega. Bu lug'atda lug'aviy birliklarning qo'llanish chastotasi emas, balki teskari tomondan – so'zning oxiridan boshlanishiga qarab alfavitlashtirish holati e'tiborga olinadi. Bu o'rinda tuzgan va nazarda tutayotgan lug'atimizdan ayrim namuna keltiramiz¹¹⁴:

¹¹⁴ Жуманазарова Г.У. Кодирова Г.С. Зевархон достони тилининг луғатлари. – Жиззах: ЖизПИ типографияси нашриёти, 2023. – 119 б.

ka'ba 1 121 (1)
 va 2 176 (1) 190 (1)
 meva 1 183 (1)
 jilva 2 157 (1) 184 (1)
 buva 1 137 (1)
 quva 1 121 (1)
 o'zgaga 1 169 (1)
 podshozodaga 1 127 (1)
 o'rdaga 2 151 (1) 197 (1)
 ovozaga 1 141 (1)
 darvozaga 5 141 (2) 170 (2) 187 (1)
 yuzaga 1 173 (1)
 dalaga 2 147 (1) 185 (1)
 Sa'dullaga 1 164 (1)
 nolaga 1 147 (1)
 nimaga 2 174 (1) 188 (1)
 g'aznaxonaga 1 138 (1)
 ro'paraga 1 188 (1)
 choraga 1 147 (1)
 kimsaga 2 130 (1) 153 (1)
 narsaga 2 162 (1) 163 (1)
 o'rtağa 11 137 (1) 161 (1) 164 (1) 177 (3) 178 (2) 179 (1) 185 (1) 197 (1)
 ruyobga 1 121 (1)
 g'olibga 1 153 (1)
 ovga 4 123 (1) 127 (1) 138 (1) 143 (1)
 talovga 1 170 (1)
 birovga 1 192 (1)
 zangga 1 138 (1)
 javobingga 1 190 (1)
 birovingga 1 164 (1)
 oldingga 1 167 (1)
 o'zingga 1 188 (1)
 joyingga 1 194 (1)
 ko'nglingga 1 150 (1)
 xayolingga 2 135 (1) 149 (1)
 belingga 1 135 (1)
 holingga 1 178 (1)
 yo'lingga 2 133 (1) 198 (1)
 qo'lingga 2 190 (1) 191 (1)
 bilganingga 1 196 (1)
 bo'yningga 2 189 (2)
 sha'ningga 1 133 (1)
 yoringga 1 151 (1)
 taqdiringga 1 138 (1)
 kirdikoringga 1 151 (1)
 xizmatingga 1 150 (1)
 ortingga 1 158 (1)
 taxtingga 1 121 (1)
 yoshingga 1 170 (1)
 ishingga 4 137 (1) 146 (1) 176 (2)

boshingga 3 138 (1) 170 (1) 176 (1)
 qoshingga 1 135 (1)
 qushingga 2 135 (1) 146 (1)
 tengizto'shingga 1 151 (1)
 maqsadga 5 136 (1) 151 (2) 182 (1) 198 (1)
 bog'dodga 6 125 (1) 155 (1) 156 (1) 158 (1) 195 (1) 196 (1)
 jallodga 2 147 (1) 189 (1)
 murodga 1 151 (1)
 shamshodga 5 129 (1) 130 (2) 152 (1) 155 (1)
 nomardga 1 133 (1)
 nega 2 135 (1) 178 (1)
 dunyoga 3 135 (1) 150 (1) 195 (1)
 daryoga 9 163 (3) 164 (1) 173 (1) 175 (1) 176 (1) 193 (2)
 bizga 14 126 (1) 129 (1) 136 (1) 146 (1) 157 (1) 161 (1) 164 (1) 165 (1) 167 (2) 168 (2) 173 (1) 175 (1)
 jo'rangizga 1 158 (1)
 dengizga 1 176 (1)
 barimizga 1 165 (1)
 shahrimizga 1 177 (1)
 shohimizga 1 170 (1)
 poshshomizga 1 141 (1)
 sizga 11 126 (1) 141 (1) 142 (1) 143 (2) 144 (1) 149 (1) 164 (1) 175 (1) 176 (1) 189 (1)
 qizga 2 191 (2)
 o'zga 3 142 (1) 158 (1) 169 (1)
 yotuviga 1 159 (1)
 oldiga 10 124 (1) 141 (1) 159 (1) 171 (1) 172 (1) 174 (2) 180 (1) 188 (1) 197 (1)
 dardiga 2 140 (2)
 mardiga 1 152 (1)
 qiziga 1 180 (1)
 tarziga 3 140 (1) 142 (1) 185 (1)
 o'ziga 3 135 (1) 151 (1) 180 (1)
 ko'ziga 5 121 (2) 128 (1) 151 (1) 188 (1)
 so'ziga 1 140 (1)
 og'ziga 1 130 (1)
 joyiga 5 170 (2) 174 (1) 175 (1) 194 (1)
 saroyiga 1 124 (1)
 podshoyiga 1 188 (1)
 bo'yiga 3 128 (1) 163 (2)
 zargarnikiga 1 158 (1)

ikkiga 1 174 (1)
 ko'ngliga 4 141 (1) 142 (1) 155 (1) 168 (1)
 beliga 2 135 (1) 171 (1)
 tiliga 2 137 (1) 178 (1)
 jamoliga 4 164 (1) 165 (1) 167 (1) 194 (1)
 holiga 5 137 (1) 165 (1) 172 (1) 177 (1) 178 (1)
 nasliga 1 183 (1)
 yo'liga 2 144 (1) 146 (1)
 qo'liga 10 137 (1) 154 (1) 164 (2) 165 (1) 178 (1) 179 (1) 191 (1) 193 (1) 195 (1)
 eliga 2 127 (1) 197 (1)
 bilganiga 1 149 (1)
 yoniga 1 172 (1)
 bo'yniga 5 133 (2) 134 (1) 144 (1) 180 (1)
 joniga 1 145 (1)
 o'rniga 1 160 (1)
 kuniga 2 155 (1) 156 (1)
 sha'niga 1 156 (1)
 gapiga 1 151 (1)
 bariga 1 165 (1)
 ichkariga 2 141 (1) 143 (1)
 kattalariga 1 196 (1)
 kelariga 1 144 (1)
 so'zlariga 1 155 (1)
 birzbirlariga 1 148 (1)
 ishlariga 1 129 (1)
 tashqariga 2 124 (1) 167 (1)
 shahariga 1 178 (1)
 tangriga 2 132 (1) 152 (1)
 birzbiriga 3 132 (1) 143 (1) 190 (1)
 kampiriga 1 149 (1)
 amaldoriga 1 196 (1)
 to'riga 1 144 (1)
 shahriga 11 150 (1) 151 (1) 152 (1) 153 (1) 156 (1) 163 (1) 170 (1) 175 (1) 179 (1) 187 (1) 196 (1)
 bag'riga 1 197 (1)
 va'dasiga 1 148 (1)
 ovozasiga 1 128 (1)
 darvozasiga 1 128 (1)
 xonasiga 1 149 (1)
 o'rtasiga 1 147 (1)
 orqasiga 1 159 (1)
 qaysisiga 1 153 (1)
 bobosiga 3 134 (1) 140 (1) 149 (1)
 podshosiga 1 137 (1)

esiga 3 129 (1) 182 (1) 195 (1)
 uyasiga 2 133 (1) 137 (1)
 suhbatiga 1 180 (1)
 davlatiga 1 141 (1)
 g'afatiga 1 153 (1)
 suratiga 1 172 (1)
 betiga 1 132 (1)
 chetiga 1 152 (1)
 otiga 1 121 (1)
 ortiga 1 152 (1)
 oldizortiga 1 182 (1)
 yurtiga 5 122 (1) 150 (1) 154 (2)
 197 (1)
 balandzpastiga 1 162 (1)
 ostiga 5 134 (1) 158 (2) 159 (1)
 172 (1)
 ustiga 14 134 (1) 151 (1) 153 (1)
 156 (1) 158 (1) 159 (2) 161 (1)
 162 (1) 168 (1) 170 (1) 185 (1)
 191 (2)
 taxtiga 2 163 (1) 170 (1)
 o'tiga 3 122 (1) 186 (1) 187 (1)
 go'shtiga 1 196 (1)
 zulfiga 1 124 (1)
 ichiga 1 174 (1)
 ishiga 8 140 (2) 148 (2) 156 (1)
 166 (1) 171 (1) 194 (1)
 kishiga 2 150 (1) 166 (1)
 kelishiga 1 148 (1)
 olishiga 1 148 (1)
 boshiga 8 167 (2) 169 (2) 181
 (1) 189 (1) 193 (1) 194 (1)
 qoshiga 15 140 (2) 141 (3) 143
 (1) 147 (1) 153 (1) 170 (2) 171
 (1) 172 (1) 177 (1) 189 (2)
 xalqiga 1 153 (1)
 o'qiga 1 165 (1)
 shohiga 1 192 (1)
 qulog'iga 1 160 (1)
 qayga 6 138 (1) 159 (1) 160 (1)
 164 (1) 176 (1) 177 (1)
 to'qayga 2 180 (1) 182 (1)
 qarchig'ayga 1 167 (1)
 yoyga 1 167 (1)
 vahshiyga 1 177 (1)
 oyga 1 167 (1)
 joyga 9 152 (1) 154 (1) 159 (1)
 165 (1) 178 (1) 183 (4)
 saroyga 1 156 (1)
 karvonsaroyga 1 153 (1)
 uyga 2 194 (2)
 ko'yga 1 185 (1)
 changalga 1 179 (1)
 kalga 1 164 (1)

kasalga 1 124 (1)
 kambag'alga 1 170 (1)
 belga 1 133 (1)
 mazgilga 2 193 (1) 194 (1)
 tilga 1 197 (1)
 kafilga 1 144 (1)
 jing'ilga 1 182 (1)
 molga 1 184 (1)
 shamolga 1 148 (1)
 istambulga 3 168 (2) 169 (1)
 gulga 1 159 (1)
 yo'lga 13 132 (1) 143 (1) 145
 (2) 149 (1) 157 (5) 165 (1) 182
 (1) 186 (1)
 so'lga 4 131 (1) 151 (1) 182 (1)
 198 (1)
 qo'lga 10 133 (1) 137 (1) 156
 (1) 158 (1) 160 (1) 161 (1) 163
 (1) 164 (1) 172 (1) 182 (1)
 elga 8 131 (1) 140 (1) 152 (1)
 158 (1) 169 (1) 198 (3)
 odamga 2 145 (2)
 gilamga 2 168 (1) 169 (1)
 olamga 5 141 (1) 173 (2) 186 (1)
 198 (1)
 mahramga 1 129 (1)
 g'amga 5 138 (1) 159 (1) 160
 (1) 185 (1) 187 (1)
 dardimga 2 124 (1) 127 (1)
 ko'zimga 2 122 (1) 124 (1)
 so'zimga 1 124 (1)
 kimga 5 136 (1) 159 (1) 165 (1)
 170 (1) 178 (1)
 holimga 2 123 (1) 156 (1)
 o'limga 1 129 (1)
 qo'limga 1 172 (1)
 jonimga 2 125 (1) 173 (1)
 yorimga 1 184 (1)
 esimga 1 136 (1)
 hojatimga 1 136 (1)
 ortimga 1 191 (1)
 yoshimga 1 127 (1)
 oshimga 1 127 (1)
 boshimga 5 127 (1) 129 (1) 139
 (1) 179 (1) 195 (1)
 qoshimga 1 170 (1)
 jomga 1 149 (1)
 anga 1 155 (1)
 yaratganga 1 141 (1)
 manga 1 169 (1)
 dushmanga 2 158 (1) 162 (1)
 sanga 1 136 (1)
 shohasanga 1 157 (1)
 tanga 3 120 (1) 155 (1) 156 (1)

gulshanga 1 134 (1)
 yonga 1 154 (1)
 menga 37 120 (1) 125 (2) 131
 (2) 135 (2) 136 (1) 137 (1) 144
 (1) 146 (1) 147 (1) 149 (1) 150
 (2) 155 (1) 156 (2) 157 (1) 159
 (1) 160 (1) 164 (1) 165 (1) 168
 (1) 169 (1) 174 (1) 176 (1) 177
 (1) 180 (4) 181 (1) 186 (1) 190
 (1) 192 (1) 197 (1)
 senga 41 120 (1) 121 (4) 122 (2)
 123 (5) 124 (1) 125 (1) 133 (2)
 135 (3) 138 (2) 144 (3) 150 (1)
 153 (1) 156 (1) 157 (1) 158 (1)
 166 (1) 170 (1) 171 (1) 174 (1)
 178 (1) 181 (1) 183 (1) 189 (1)
 191 (1) 192 (1) 194 (1) 198 (1)
 keyinga 1 194 (1)
 o'yinga 3 181 (3)
 qaysinga 1 125 (1)
 qarindoshinga 1 151 (1)
 xubonga 2 121 (1) 158 (1)
 maydonga 2 134 (1) 161 (1)
 zindonga 9 171 (4) 173 (1) 188
 (3) 191 (1)
 jonga 3 130 (1) 134 (1) 151 (1)
 to'zonga 1 121 (1)
 makonga 1 177 (1)
 o'g'longa 1 177 (1)
 olomonga 1 161 (1)
 osmonga 4 134 (1) 135 (1) 143
 (1) 151 (1)

Mana shunday tartibda tuzilgan lugʻatlar “Zevarxon” dostoni matnini ilmiy asosda tadqiq etish uchun ishonchli manba boʻlib hisoblanadi. Tahlil obyekti qilib olingan har qanday lingvistik birlik dostonida oʻzini barcha shakllari bilan mikroqurshovda namoyon eta oladi. Masalan, doston lugʻatidagi *armon* soʻzini olib koʻraylik. Lugʻatda uning matnda 15 marta qoʻllanganligi koʻrinib turibdi, hatto uning “Zevarxon”dagi qoʻllangan sahifalari ham maʼlum: 129, 138, 149, 155, 159, 170, 174, 178, 186, shuningdek, 134, 177, 198-betlarda 2 martadan jami 15 marta qoʻllangan. Ammo bu kuzatishlardagi oxirgi natija emas. Kompyuter ushbu soʻz qoʻllangan 15 ta gapni quyidagi tarzida bir joyga toʻplab beradi: *Ovga kelib bizlar endi armonda, // Och koʻzingni, koʻtar, xonim, boshingni (123); Oʻlim haqdi navbat yetdi bu zamon, // Qoʻlim bogʻli armon bilan oʻldim man (129); – Armon bilan oʻlding, gʻaming ye, – dedi (134); Aylabsan oʻzingni bundayin sarson, // Armon bilan oʻlib ketma, bobojon! (134); Mehnat qilib tutib edim Semurgʻni, // Armon bilan men qushimdan ayrildim (138)* kabi. Aslida 15 raqami *armon* soʻzining alohida qoʻllangan holatini ifodalaydi.

Fozil shoirning mazkur dostonidagi soʻzlarning fonetik statistik qurilishi tahlilini berishdan avval tilshunos S.Rizayevning quyidagi fikr-mulohazalariga eʼtiborni qaratamiz: “Hozirgi oʻzbek tilining badiiy prozaik matnlari boʻyicha eng koʻp qoʻllangan – yuqori chastotali harflar: *a, i, n, r, l, o, d, b, t, g, m, u, k* (kamayish tartibida) kabilar. Shulardan *a, i, n, r, l, g, m* harflari soʻz boshidagiga nisbatan soʻz oxirida; *o, d, b, t, oʻ, k* harflari esa soʻz oxiridagiga nisbatan soʻz boshida koʻp qoʻllangan... Poetik matnlar boʻyicha eng koʻp qoʻllangan – yuqori chastotali harflar *a, i, n, r, l, o, d, t, b, g, u, m, k* kabilar. Shulardan *a, i, n, r, l, g* harflari soʻz boshidagiga nisbatan soʻz oxirida; *o, d, b, t, m, u, k* harflari esa soʻz oxiridagiga nisbatan soʻz boshida koʻp qoʻllangan”¹¹⁵. Shu tipdagi kuzatishlarni professor G.Jumanazarova oʻzining doktorlik dissertatsiyasida ham xalq dostonlari misolida olib borgan.¹¹⁶

¹¹⁵ Ризаев С. Ўзбек тилшунослигида лингвостатистика муаммолари. – Тошкент: Фан, 2006, – 40 б.

¹¹⁶ Жуманазарова Г. Фозил Йўлдош ўғли дostonларининг лингвопоэтикаси. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2012.

Ushbu mulohazalarga suyanan holda, zamonaviy kompyuter xotirasidagi “Zevarxon” dostoni matni maxsus dastur asosida o‘rganildi va tahlil qilindi, olingan natija yomon emas. Matn tarkibidagi so‘zshaklning qo‘llanish chastotasi harflar kesimida quyidagicha bo‘ldi: **A** – 218, **Б** – 529, **В** – 34, **Г** – 89, **Д** – 205, **Е** – 64, **Ё** – 96, **Ж** – 116, **З** – 95, **И** – 114, **Й** – 76, **К** – 442, **Л** – 20, **М** – 197, **Н** – 89, **О** – 237, **П** – 85, **Р** – 30, **С** – 307, **Т** – 432, **У** – 127, **Ф** – 20, **Х** – 113, **Ц** – 0, **Ч** – 111, **Ш** – 132, **Э** – 113, **Ю** – 99, **Я** – 33, **Ў** – 204, **Қ** – 456, **Ғ** – 51, **Ҳ** – 119 kabi. **Jami: 5053.**

Kuzatishlarimizning tasdiqlashicha, “Zevarxon” dostonidagi so‘z shakllarning qaysi tovushlar bilan boshlanishiga ko‘ra joylashish tartibi quyidagicha bo‘ldi: *б, к, м, с, о, ъ, а, м, ѓ, э, у, ч, ж, и, х, ш, х, ю, ё, з, н, н, ѳ, е, з, э, я, в, р, л, ф* kabi.

S.Rizayevning kuzatishlarida tovushlar bilan boshlanuvchi so‘zlarning yuqoridan pastga qarab qo‘llanish faolligi quyidagicha: 1-*o*, 2-*d*, 3-*b*, 4-*t*, 5-*o‘*, 6-*k*. Poetik matnlarda bu ro‘yxatga *m* va *u* ham qo‘shiladi. Eng faollik darajasiga ko‘ra olingan bu sakkiz tovush natijalaridan kelib chiqqan holda, biz ham “Zevarxon” dostonidan yuqoridan pastga qarab shuncha miqdordagi tovushlar bilan boshlanuvchi so‘zlarni belgilab oldik va natijasi quyidagicha bo‘ldi: *b* – 724; *q* – 574; *k* – 552; *t* – 517; *s* – 353; *o* – 335; *o‘* – 279; *a* – 266. Bir guruh olimlarning dissertatsiyalaridagi natijalarni bir-biriga qiyoslaymiz:

S.Rizayevda	<i>o</i>	<i>d</i>	<i>b</i>	<i>t</i>	<i>o‘</i>	<i>k</i>	<i>m</i>	<i>u</i>
G.Jumanazarovada	<i>b</i>	<i>q</i>	<i>k</i>	<i>t</i>	<i>s</i>	<i>o</i>	<i>o‘</i>	<i>a</i>
H.Hamdamovada	<i>b</i>	<i>q</i>	<i>k</i>	<i>t</i>	<i>s</i>	<i>o</i>	<i>o‘</i>	<i>a</i>
«Zevarxon»da	<i>b</i>	<i>q</i>	<i>k</i>	<i>t</i>	<i>s</i>	<i>o</i>	<i>o‘</i>	<i>a</i>

S.Rizayevning tahlillarida tovushlarning so‘z boshida *o*, *d*, *b*, *t* bilan boshlanuvchi so‘zlar faol kuzatiladi. Xalq dostonlari matnida esa boshqa manzaraning guvohi bo‘lamiz. G.Jumanazarova, H.Hamdamova ishlarida bo‘lganidek, bizning tadqiqotimizda ham faollik darajasining *b*, *q*, *k*, *t* tartibidagi holat aniqlandi. Faqatgina *t* bilan boshlanuvchi so‘zlarning joylashish tartibi

S.Rizayev kuzatishlariga mos kelmoqda, xolos. Ana shu to'rtlikdan **b** bilan boshlanuvchi so'zlar borligini ham qayd etamiz. Qolganlarida bu muvofiqlikni ko'rmaymiz. Shunga qaramasdan ushbu tahlillar bilan S.Rizayev qarashlari o'rtasida muvofiqlik mavjud, degan fikrga kelamiz. Buning uchun e'tibor qilamiz: "Hozirgi o'zbek tilidagi harflarning so'zdagi o'rniga ko'ra qo'llanishi (kamayish tartibida) quyidagicha: so'z boshida eng ko'p va tez-tez uchrab turadigan harflar: **b, k, t, q, m, h, s, o, u** kabilar; so'z o'rtasida: **a, i, l, n, r, o, d, t, g, u, m, y, yo** kabilar; so'z oxirida **i, a, n, r, g, b** kabilar".¹¹⁷

Ushbu tovushlar bilan boshlanuvchi so'zlar va so'z shakllarning faolligi sababini aniqlash maqsadida "Zevarxon" dostoni matni bo'yicha tuzilgan lug'atlarga murojaat qilib, lisoniy tahlilni davom ettiramiz. **B** bilan bog'liq birgina holatni tahlil qilib ko'ramiz. Masalan, "Zevarxon" dostonida ushbu tovush bilan boshlanadigan so'zshakllar juda faol qo'llangan. Ular orasida 10 tadan 400 gacha bo'lgan so'zlar quyidagilar: *bu* -288, *bir* - 218, *bo'lib* - 139, *bilan* - 93, *bunda* - 85, *bo'ldi* - 75, *bor* - 58, *bobo* - 40, *bo'lsa* - 34, *bo'b* - 31, *borib* - 31, *bular* - 22, *bunday* - 22, *berib* - 22, *biz* - 27, *birga* - 27, *bo'lgan* - 27, *bo'ldim* - 26, *bilmay* - 15, *biladi* - 13, *boshim* - 10, *boshima* - 10 tadan qo'llanilgan.

Harqalay, S.Rizayev tahlil qilgan prozaik va poetik mazmundagi matnlarda **o, d, b, t** bilan boshlanadigan so'zlarning faolligi o'zining mantiqiy asoslariga ega. Bu matnlarning kitobiy xarakterdaligi, tasvir ko'lamining kengligi ana shunday asoslardan bo'lib hisoblanadi. Shu ma'noda garchi badiiy asar sifatida qaralsa ham, Fozil Yo'ldosh o'g'lining "Zevarxon" dostoni tili so'zlashuv uslubi, xususan, jellanuvchi qipchoq shevalari xususiyatlarini o'zida to'la aks ettirganligi, kuylangan dostonning esa maishiy, qahramonlik eposi uslubi ularni kuylashdagi o'ziga xos poetik yo'li bo'lganligi¹¹⁸ bilan izohlanadi. "Zevarxon" dostoni matnida uchraydigan **b** bilan boshlanuvchi so'zshakllar tahlili ham buni tasdiqlaydi.

Qo'llanish chastotasiga ko'ra "Zevarxon" dostonida mutlaq ustunlikni egallaydigan so'zlar mavjud. Mazkur dostonlar matnida uchraydigan, qo'llanish

¹¹⁷ Ризаев С. Ўзбек тилшунослигида лингвостатистика муаммолари. – Тошкент: Фан, 2006, - 78 б.

¹¹⁸ Имомов К., Мирзаев Т., Саримсоқов Б., Сафаров О. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. Дарслик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1990. – 236 б.

chastotasi 100 dan yuqori boʻlgan birliklarni quyidagicha koʻrsatish mumkin: **B harfi** -724 marta, **q harfi** – 574 marta, **k harfi** – 552 marta, **t harfi** – 517 marta. Jami qoʻllangan birliklarning 37 foizi ($R=20008:53840=0,3716$) ana shu tovushlar bilan boshlangan soʻzlar yoki soʻzshakllarga toʻgʻri keladi. Matnda soʻz qoʻllanishining ikkinchi qutbida kam qoʻllanilgan elementlar turadi. “Zevaxon” dostonida 1 martadan qoʻllangan soʻzshakllarning chastotasi 3833 tadan iborat.

Endi eʼtiborimizni soʻzshakllarning oxirgi tovushlariga qaratamiz. S.Rizayevning tahlillariga koʻra **a, i, n, r, l, g, m** tovushlari bilan tugaydigan soʻzlarning qoʻllanishi badiiy matnlarda faol. Biz bu xulosani ham Fozil shoirning “Zevaxon” dostoni misolida koʻrib chiqdik va bunda doston matni yuzasidan tuzilgan ters lugʻatdan foydalandik. Zamonaviy kompyuterning maxsus dasturiga asoslangan natijalarga koʻra, bu dostonda soʻzlarning qaysi tovushlar bilan tugaganligini quyidagi lingvostatistik maʼlumotlar orqali aniqlash imkoniyati tugʻildi: **A** – 218, **Б** – 529, **В** – 34, **Г** – 89, **Д** – 205, **Е** – 64, **Ё** – 96, **Ж** – 116, **З** – 95, **И** – 114, **Й** – 76, **К** – 442, **Л** – 20, **М** – 197, **Н** – 89, **О** – 237, **П** – 85, **Р** – 30, **С** – 307, **Т** – 432, **У** – 127, **Ф** – 20, **Х** – 113, **Ц** – 0, **Ч** – 111, **Ш** – 132, **Э** – 113, **Ю** – 99, **Я** – 33, **Ў** – 204, **Қ** – 456, **Ғ** – 51, **Ҳ** – 119 kabi. **Jami: 5053.**

Ushbu maʼlumotda ters lugʻatni tuzish maqsadida yaratilgan kompyuter dasturi bilan bogʻliq holda ayrim kamchiliklar borligi koʻzga tashlanadi. Oxiri **oʻ, q, gʻ, h** tovushlari bilan tugaydigan soʻzshakllarini berish imkoni mukammal oʻylanmaganligi va bizga maʼlum boʻlmagan kamchiliklarga koʻra alfavitli-chastotali lugʻatlar yakunida berilgan raqamlar ters lugʻatlar tarkibidagi soʻzshakllar soni bilan mos kelmagan. Ana shu harflar hisobidan doston boʻyicha tuzilgan ters lugʻatlarda soʻzlar miqdori kam chiqmoqda. Bu koʻrsatkich “Zevaxon”da 119 ta.

Tadqiqotimizning ushbu qismini yakunlash arafasida doston matnida qoʻllangan birliklar chastotasining soʻz turkumlari boʻyicha faollik darajasiga eʼtibor qildik va yana bir bor doston matnidagi qoʻllanishi 50 dan kam boʻlgan soʻzshakllar qaytadan oʻrganib chiqildi. Bunday soʻzshakllarning umumiy natijasi quyidagicha boʻldi: soʻzshakllar – 49 ta, ularning absolyut chastotasi – 4801 ta.

Doston matnida 50 martadan yuqori qo‘llanilgan faol so‘z turkumlarining absolyut chastotasi 4801 bo‘lib, u 49 so‘zshaklni qamrab olgan. Lug‘atni tuzishda dostonning matni e‘lon qilingan nashrda qanday bo‘lsa, shunday holicha, hech bir o‘zgartirmasdan zamonaviy kompyuter xotirasiga kiritdik. Bunday yo‘l tutishdan asosiy maqsad shuki, tilshunos olim A.Ibrohimovning “Konkordans tuzishda eng qiyin va mas’uliyatli vazifa – kompyuterga kiritiladigan matnning bexato bo‘lishini ta’minlashdan iborat. Nuqsonli nashr, matn asosida konkordans tuzish muallif tili haqida xato tasavvur paydo qilish, noto‘g‘ri xulosaga kelish demakdir”¹¹⁹ degan mulohazasini inobatga oldik. Fozil shoirning “Zevarxon” dostonida ishlatilgan so‘zlar sonini, ya’ni uning so‘z boyligini aniqlashda quyidagi tamoyillarga suyardik:

a) so‘zning fonetik variantlari alohida-alohida so‘z hisoblendi – *tov – tog‘, gah – goh, podsho – podshoh – poshsho, zo‘rabor – zo‘ravon va h.k.*;

b) barcha so‘z turkumlariga oid so‘zlar alohida so‘z hisoblendi;

v) leksemalarning shakllari (shaxs-son, kelishik qo‘shimchalari bilan, fe‘lning zamon, shaxs-son, nisbat, turli mayllardagi shakllari) so‘zlik lug‘atida bitta so‘z hisoblanadi. Masalan, *gul, guli, gulday, gulning, guldayin* kabilar bitta so‘z (*gul*); *daryo, daryoday, daryodayin* kabilar bitta so‘z (*daryo*); *bo‘ta, bo‘taday, bo‘tadayin* kabilar bitta so‘z bo‘la oladi.

Xulosa sifatida quyidagilarni ta’kidlamoqchimiz:

1. “Zevarxon” dostoni matnining statistik tahlili matn lingvistikasining muayyan masalalarini to‘ldirish va mukammallashuviga ko‘maklashadi.

2. “Zevarxon” dostoni matniga leksikografik ishlov berishda kompyuter dasturlarini tuzish va amaliyotda qo‘llash jarayonida ayrim kamchiliklar bo‘lishiga qaramasdan, ushbu tipdagi matnlarning lingvistik tahlilini olib borish oldinga qo‘yilgan qadamdir. Ushbu yumushlar kelajakda takomillashtirib borilishi va bu usullarni amaliyotga tatbiq etish yuzasidan metodik ishlar yaratilishi lozim.

3. “Zevarxon” dostonining leksikografik lug‘atlarining eng afzallik tomoni shundaki, unda boshqa tipdagi lug‘atlarning birortasida, hatto dialektal lug‘atlarda

¹¹⁹ Иброҳимов А. Бобур «Девон»и тилидаги ўзлашма лексика. – Тошкент, 2006. – 13 б.

ham aks etmagan lugʻaviy birliklarga duch keldik. Ana shu jihati bilan u boshqa tipdagi anʻanaviy lugʻatlardan farq qiladi. Aslida bu elementlar ham umumxalq tilining ajralmas qismi hisoblanadi.

Bob boʻyicha xulosalar

1. Statistik metod va usullar jahon tilshunosligiga oʻtgan asrning boshlarida kirib kelgan. Buning natijasida olimlar tomonidan koʻpgina chastotali lugʻatlar, leksikografik manbalar va ularning tahliliga daxldor ilmiy tadqiqotlar yaratilgan. Yozuvchilik leksikografiyasi bilan bogʻliq chastotali va izohli lugʻatlar bu boradagi mulohazalarni toʻliq tasdiqlaydi.

2. Turkiy, xususan, oʻzbek tilshunosligida lugʻat tartib berish ishlari, asosan, XIII-XIV asrlardan boshlangan va bu anʻana uzoq tarixiy bosqichlarni bosib oʻtgan. Lekin alohida olingan matn, masalan, muayyan shoir va yozuvchilar yoki ularning alohida olingan asarlari matni lugʻatini tuzish va olingan natijalarni chop etish masalasi birmuncha keyingi davrlarning mahsuli sanaladi. Masalan, bir jildlik “Navoiy asarlarining izohli lugʻati” (1983-1985) shular jumlasidandir. Mustaqillik davrida besh jilddan iborat “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”ning nashr etilishi bu anʻananing bardavomligini taʼminladi.

3. Konkordans xarakteriga ega boʻlgan lugʻat va chastotali lugʻatlar ham tilshunosligimizning nisbatan keyingi bosqichlarida paydo boʻldi. Ularga muayyan shoir va yozuvchilarning asarlari, shuningdek, folklor materiallari tayanch obyekt boʻldi.

4. Tadqiqotimiz uchun obyekt boʻlgan “Zevarxon” dostoni ham alohida statistik qurilishga ega. Ishning ushbu bobida amalga oshirilgan qismi – doston matnining axborot-statistik tahlili matn lingvistikasining nazariy va amaliy masalalarini obyektiv hal qilishga muayyan darajada koʻmaklasha oladi.

II BOB. “ZEVARXON” DOSTONI TILINING GRAMMATIK

XUSUSIYATLARI (mustaqil so‘z turkumlari kesimida)

“Zevarxon”da qo‘llangan har bir so‘zni nisbiy mustaqil deb tan olishimiz, “so‘ngra ulardagi umumiylik va xususiylikni aniqlash, ya’ni muayyan guruhlarga ajratib tasniflash”¹²⁰ masalasini amalga oshirish nihoyatda dolzarb sanaladi. Doston tilidagi so‘zlarning semantik qurilishi, tabiati, ulardagi umumiylik (o‘xshatish) va xususiylik (farqli jihatlarini) ma’nolari tasniflanganda bir lisoniy qonuniyatga – umumiylikdan xususiylikka borishi yoki xususiylikdan umumiylikka tomon ko‘tarilishi qonuniyati¹²¹ mavjudligini kuzatamiz. Ayni jihatlarini amaliyotda isbotlash uchun “Zevarxon”dagi so‘zlarning ma’noviy xususiyatlarini mustaqil so‘z turkumlari kesimida o‘rganishni lozim topdik.

2.1-§. Narsa-predmetning nomlarini, harakat va holatni ifodalovchi so‘zlar

Dostondagi narsa-predmetning nomlarini ifodalovchi so‘zlarda “moddiylik, qurilish, tarixiylik, genetik, maxsuslik, shuningdek, ma’no, shakl, qo‘llanish, uslubiy”¹²² va boshqa qator xususiyatlar mavjud. Bu o‘rinda jins kategoriyasini olaylik: o‘tgan asrning 70-yillarida A.B.Boldorenko, J.B.Bo‘ronov va boshqalar tomonidan jahon tilshunosligida biologik rod va grammatik rod kategoriyalarining o‘zaro chambarchas bog‘liq ekanligi allaqachonlar isbotlangan.¹²³ “Zevarxon” tilida jonli predmetlarning jins kategoriyasini ifodalovchi so‘zlar ikki xil: leksik-semantik va morfologik vositalar orqali yuzaga kelgan:

Leksik-semantik vositalar jins ma’nosini ifodalovchi, ya’ni atovchi so‘zlar orqali yasalgan. Bunday so‘zlar tarkibidagi ma’nolar biz o‘rgangan dostonida quyidagi holatlarda ko‘zga tashlanadi:

1. *Shaxs ma’nolarini* ifodalovchi so‘zlar: *ota* (213, 184); *o‘g‘il* (179); *qiz* (157, 164, 165, 166, 190, 191, 197); *juvon* (171); *er* (179); *xotin* (179, 161, 180,

¹²⁰ Қаранг: Мадрохимов И.С. Ўзбек тилида сўзнинг серкирралиги ва уни таснифлаш асослари: Филол.фан.номз... дис.автореф. – Тошкент, 1994, – 8 б.

¹²¹ Ўринбоев Д. Ўзбек халқ оғзаки дostonлари тилининг лингвостатистик таҳлили. – Самарқанд: СамДУ нашри, – 136 б.

¹²² Ўринбоева Д. Таъкидланган асар, – 60 б.

¹²³ Бўронов Ж.Б. Инглиз ва ўзбек тиллари қиёсий грамматикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1973, Бондоренко А.В. Грамматическая категория и контекст. – Ленинград, 1971.

194); *bobo* (132, 133, 152); *ena* (196, 198); *yigit* (137, 149, 150); *mard* (131, 155, 178); *kelinchak* (182); *kuyov* (150, 151) kabilar. Doston matnida uchragan bunday tipdagi soʻzlarda ikki xil: erkak va ayol jinsiga mansub¹²⁴ maʼnolar mavjud. Bunday leksemalar “Zevaxon”da qarindoshlik va nikohga daxldor soʻzlar tarzida namoyon boʻlgan:

a) *qarindoshlikka daxldor*¹²⁵ *jins bildiruvchi soʻzlar* dostonda kam qoʻllangan: *ota*, *oʻgʻil*, *qiz*, *ena*, *momo*, *bobo* kabilar. Bu oʻrinda doston matniga murojaat qilamiz va olingan misollarning oʻrnini qavs ichida berib boramiz. *Ota, enam Bogʻdod elda, // Holimdan bexabar qoldi (131); Bu toʻqayda oʻgʻil, qizlarim koʻpdi(r) (179); Senga bu bobongni soʻzi shu bular, // Qayt, juvonmarg, senga bunda nima bor? (133)* kabi.

Nikohga daxldor leksemalarning ayrimlari dostonda qarindoshlikka oid umumiy maʼno-tushunchalarni ifodalagan: *er*, *xotin*, *kuyov* kabilar. *Ilgarida arqirgan er edim, // Yoshim yetib endi men ham qaridim (179); Podshoning xotini katta odamning qizi boʻlsin», deb Itboshining qiziga xabar qilgan (180); Bobo Saqqo qaytadan dunyoga kelib // Yigitdek podshoga kuyov boʻlgandi (150)* kabi.

Keltirilgan matnlardagi nikohga daxldor leksemalar maʼno jihatidan farqlangan. Xususan, *bobo*, *momo*, *ota*, *ena* soʻzlarining maʼnosini quyidagicha ajratish mumkin: 1) “qarindosh”, 2) “qon-qarindosh”, 3) “bevosita mendan katta”¹²⁶. Bu maʼnolar har toʻrtala soʻz maʼnolari uchun umumiy sanaladi. Xususan, “I avlod” maʼnosi “*bobo*, *momo*”ni “*ota*, *opa*”dan ajratadi; “*ota*” va “*ena*” soʻzlariga “*men*” bilan bir avlodga mansublik” maʼnosiga xosdir¹²⁷. Bunday soʻzlar “Zevaxon” tilida epik qahramonlarning qarindoshlarga hurmat yuzasidan qoʻllanganligini kuzatamiz.

b) *murojaat maʼnosi asosida jins bildiruvchi soʻzlar*. “Zevaxon”da uchrovchi bunday tipdagi soʻzlar “erkak” jinsiga mansub *bek*, *begim*, *bekbachcha*, *vazir*, *buva*, *toʻra*, *qiblagoh*, *sardor*, *sarkarda*, *sulton*, *podsho* singari leksemalar,

¹²⁴ Жалилова Н.Р. Бадиий матндаги қон-қариндошлик терминларининг типологик ва структурал-грамматик таснифи. Филол.фан.б.фалс.док...дисс.авторреф. – Самарқанд, 2019, – 9 б.

¹²⁵ Қўрсатилган манба, – 9 б.

¹²⁶ Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995, – 65 б.

¹²⁷ Жалилова Н.Р. Таъкидланган манба, – 9 б.

shuningdek, “ayol” jinsiga xos *mehribon, sarvinoz, mohitabon* kabi soʻzlar orqali ifodalangan. Ularning anglatgan maʼnosida “ayol // erkak” “mendan katta // kichik”, “kuchli // kuchsiz”¹²⁸ maʼnolari mavjud: *Sap-sarkarda, beklar yigʻilib, davlat qushini uchirib yurgan edi (167); Karvonlarni joʻnatayin bekbachcha, // Xonim, xizmat qilay senga oʻlguncha (156); Quloq soling mening arzima, // Javob bering, qiblagohim, ketarman! (124); Titrar mening shirin jonim, // Qani mening mehribonim (130); Toʻrt boʻp qoldi ikki koʻzim, // Qoʻldan ketdi sarvinozim (160); Bir gazanda boʻlgan tarob, // Qaysi dushmanning qoʻlida, // Mohitabonim oʻpkalab (160)* kabi.

2. *Kishi (shaxs) – epik qahramon ismlarini ifodalovchi atoqli otlar.* “Zevarxon” matnidagi “Erkak jinsiga mansub” atoqli otlar shular jumlasiga kiradi: *Zevarxon, Iskandar, Sadulla, Farhod, Hasanxon, Hasanjon, Shohasan* kabi. Doston matniga murojaat qilamiz: *Zevarxonning oʻzi dori soladigan xalta-xulta quti-qutivachcha qiladi. (140); Ovozasi olamga ketgan, Iskandarning lashkari bilan halok qilgan bu uyrumda koʻp aylanib yurdi (173); Shul vaqtda Saʼdulla kalga har yerni, choʻlni bosib olib yurgan qirq qaroqchi yoʻliqib, oʻrab ushlab oldi (164); Yoʻlida ayladi Majnun-u Farhod, // Tilladan yuzigi, tarogʻi shamshod (123); Xisray shohning Zevarxon degan oʻgʻli, Hasanxon degan vaziri bor edi (121)* kabi.

3. *Hayvonot, parranda va boshqa jonzodlarning nomlarini ifodalovchi soʻzlar.* Bu tipdagi leksemalar doston matnida anchagina. Masalan: *Daraxtlar mevazor, gullar ochilib, bulbullar bir-biriga chaq-chaq uchirib, toʻti, maynalar sayrab, qushlar har turli ohang qilib turibdi (123); Qulon, kiyik, necha olqor otadi, // Odami yoʻq bu toʻqayda netadi? (128); Bu nolani unda maymunlar bildi, // Har tarafdin qancha maymun yigʻildi (177); Semurgʻ qush qaytib Zangarga ketdi, // Boshin quyib Zevarxon bunda yotdi (152)* kabi.

II. Morfologik vositalar. “Zevarxon” dostonida bu usul bilan jins maʼnosi maxsus qoʻshimchalar (masalan, *-xon, -oy, -bonu, -poshsha, -boy, -jon, -bek, -*

¹²⁸ Жалилова Н.Р. Таъкидланган манба, – 10 б.

bachcha kabilar) yordamida ifodalangan; ular matndagi yo erkak, yo ayol ismiga¹²⁹ qo‘shilgan: *Semurg‘ qush qaytib Zangarga ketdi, // Boshin quyib Zevarxon bunda yotdi (152); Qayda qoldi, bayon ayla, Hasanxon, // Armon bilan mendan judo bo‘ldimi? (174); Sen kelibsan o‘zi yolg‘iz qoldimi, // Sultonimdan bayon ayla, Hasanjon? (174); Birga kelgan bekbachchalar, // Ergashmang bizga munchalar (126) kabi.*

Xullas, bu tipdagi so‘zlarni maxsus o‘rganish dostonning uslubiy xususiyatlarning muayyan qirralarini ochib berishga xizmat qiladi.

Kelishik kategoriyasi doston tilida eng faol holatda uchraydi. Bu kelishikning ko‘rsatkichi yo‘qligi, o‘zbek adabiy tilidagi kabi “Zevarxon” dostoni tiliga ham taalluqlidir.

Qaratqich kelishigining asosiy shakli *-ning* hisoblansa-da, dostondagi *men, sen* olmoshlariga qo‘shilganida *-ing, -im* shakllariga ega bo‘lgan. Masalan: *Shohim sening xizmatingda men bo‘ldim // Ko‘chalarda behad odamni ko‘rdim (142). Bobo, hayron qoldim sening ishingga // Kafil bo‘ldim uchib yurgan qushingga (146) kabi.* Dostonda qaratqich kelishigi belgisiz holda ham uchraydi: *Chin shahrida qolsin qavm-u qarindoshim // Yor yo‘linda endi sarf aylab boshim (209); Yor ishqida yuragima o‘t tushdi, Bag‘rimdan o‘t chiqib tanim tutashdi (210); Yor yo‘linda // yorning yo‘lida, Yor ishqida // yorning ishqida (215).*

Ko‘ramizki, har ikkala matnda doston ijrosiga uslub talabi bilan baxshi qaratqich kelishigi qo‘shimchasini ishlatmagan, ya’ni belgisiz qo‘llangan. Buning bosh omili og‘zaki nutqning qisqalikda ifodalanishi, doston ijrosi auditoriya ahliga tushunarli bo‘lishini talab qilganligidir.

Dostonda tushum kelishigi qo‘shimchasining bir necha variantlari (*-ni, -di, -ti, -in*) qo‘llangan: *Zevarxonni uyat o‘ldirdi dog‘ing // Ajab badnamodir boshdan oyog‘ing (180); Ichki uyga ul o‘zi bordi // Ustidan libosin chechib tayladi (194) kabi.* Dostonda mazkur tushum kelishik qaratqich kelishigi kabi belgili va belgisiz holatlarda qo‘llangan: *Ajal yetsa ushbu kunda o‘lasan // O‘lim haqqi, yurak-bag‘ring tilabon (189); Qilgan ishing agar mendan yashirsang // Qirqingni ham*

¹²⁹ Жалилова Н.Р. Кўрсатилган манба, – 9-10 б.

bunda yakson etaman (190). Mazkur misollarda tushum kelishigi qo‘shimchasi baxshining doston ijrosida tushib qolgan, ya’ni qisqaruv hodisasi yuzaga kelgan. Adabiy me’yorga mos kelmaslik kabi bunday qonuniyat folklorning barcha materiallarida mavjud.

Jo‘nalish kelishigining ko‘rsatkichi adabiy til va folklor materiallarida *-ga, -ka, -qa, -g‘a, -na, -a* kabi shakllarda ishlatiladi. Ushbu lisoniy qonuniyatning *-ga* shakli “Zevarxon” dostoni tilida faol qo‘llangan. Masalan: *Qirqini chiqarib olib zindondan // Shoh kishiga haybat keldi shu zamon (189); Sizga xabar qildim aqlim shoshib // Izlanglar daryo-yu dengizga tushib (176)* kabi. Jo‘nalish kelishigining ko‘rsatkichi kishilik olmoshlarining I, II, III shaxs birlik shakllariga ega bo‘lganida va ular birga qo‘llanganida – *mag‘an, sag‘an, ug‘an* shakllarining ishlatilishi og‘zaki so‘zlashda nutqqa, xususan, qipchoq shevasidagi aholi nutqiga xos. Ayni lisoniy xususiyatni biz o‘rgangan “Zevarxon” dostonida uchratmadik. Lekin doston matnida jo‘nalish kelishigi vazifasini qaratqich kelishigi qo‘shimchasi bajarganligini, ya’ni biri o‘rnida ikkinchisi ishlatilganligi holati kuzatildi: *G‘arib bo‘lib qoldim, ishqingda yig‘lab // Qayda ketding o‘zing kelgin so‘roqlab (122); Qayda ketding yor-u do‘stim // Yemish bo‘lmaganda go‘shim (131)*. Ushbu misollardagi *qayda ketding // qayerga ketding* tarzida adabiy tilda qo‘llanishi zarurligini ko‘pchilik bilishadi, lekin matndagi shakli (*qayda ketding*) doston ijrosida epik qahramon nutqida ishlatilgan.

“Zevarxon” dostonida o‘zbek adabiy tilida bo‘lganidek, o‘rin-payt kelishigining qo‘shimchasi *-da, -ta* shakllarida qo‘llanilgan: *Bahorda ochilgan bog‘ning gulisan // Sen ham bir-birovning joni dilisan (168); Bu chorvoqda ancha seskanib turgan // Yana tavakkalni tangriga qilgan (132)*. Doston matnida ba’zi hollarda baxshining ijrosidagi uslub talabi bilan jo‘nalish kelishigi, o‘rin-payt kelishigi va ta’kid yuklamasi omonimiya hosil qilganligi kuzatiladi. Buning asl sababi qo‘shimcha boshidagi tovushning tushib qolishi bilan belgilanadi, lekin matndagi epik qahramon nutqiga xos she’rning qofiyasini saqlab qolish ikkilamchi hodisa sanaladi. Quyidagi matnga e’tibor qilamiz:

Qushlarning podshosi — Semurg‘ shohim-o,

*Quloq solib eshit aytgan nolishima,
Mushkul ishlar tushdi mening boshima,
Tabib bo'ldik, duchor bo'ldik bu ishga.
Qayta boshdan bizlar qoldik koyishga. (143)*

“Zevarxon” dostonida chiqish kelishigining *-dan, -din, -nan* kabi qo‘shimchalari juda faol qo‘llangan: *Bu hunarni ham bilding, men sendan o‘rgandim (149); Ul vaqtida zangilardan qutulib chiqib edim (132); Qaytadan dunyoga o‘lmayin kelib // Xabar bergin, bobo, qaydin bo‘lasan? (135); Dard-ug‘aming bo‘ldi sening ziyoda // Xabar bergin, jonim qaydin bo‘lasen? (192) kabi. taxtiga qo‘ydi // Podsho bo‘lib taxt ustiga turgan so‘ng // Zamon shahanshoi, -dedi chaqirdi (170); Anglab so‘ng // anglagandan so‘ng, yoki turgan so‘ng // turgandan so‘ng tarzida qo‘llanmog‘i va ijro etilmog‘i zarur. D.O‘rinboyeva ta’kidlaganidek, “Bunday lisoniy konstruksiyalar, asosan, (so‘z+ko‘makchi) qolipining hosilasidan vujudga kelgan, ayni lisoniy holat adabiy me’yorga mutlaqo zid sanaladi”¹³⁰.*

“Zevarxon” dostoni tilida sheva unsurlari xalq epik badiiyatini tayin etuvchi asosiy omil sanaladi. Shu boisdan baxshi ijrosida kelishiklarning ko‘pchiligi almashtirilib, biri ikkinchisining o‘rnida qo‘llanganligini kuzatamiz. Bulardan tashqari, doston tilida kelishik qo‘shimchalarining miqdor jihatdan ko‘p ishlatilishi, eng avvalo, matnda ohangdoshlikni ta’minlashga xizmat qilishi bilan izohlanadi. Xullas, “Zevarxon” dostoni tilidagi kelishiklarning o‘ziga xos xususiyatlari, “ularning boshqa vositalar bilan sinonimiyasi matnda ekspressivlik, ta’sirchanlikni ta’minlovchi vosita sifatida stilistik nozikliklarni ifodalovchi me’yor bo‘lib xizmat qilgan”¹³¹.

Egalik kategoriyasi “Zevarxon” dostoni matnida o‘zining ko‘rsatkichlari o‘zbek adabiy tilidagi shakllari kabi bir xil, lekin qo‘llanilishida muayyan stilistik jihatdan farqlanadi. Xususan, buni biz “so‘zning unli va undosh bilan tugallanishida, egalikni olgan so‘z oldidan alohida qaratuvchining bo‘lishini talab

¹³⁰ Ўринбоева Д. Ўзбек халқ дostonлари тилининг лингвостатистик таҳлили. – Самарқанд: СамДУ нашри, 1994, – 35-36 б.

¹³¹ Кўрсатилган манба, – 37 б.

qilmasligida”¹³² kuzatamiz. Masalan, *Ota, enam Bog‘dod elda // Holimdan bexabar qoldi (131); Ena senga oq sut bergan // Intizor bo‘l bunda qolgan (198); Enasi Zevarni bilib // -Bolam, – deb oldiga kelib // Shul zamon bag‘riga bosib...(197); Yurakdan kechirib dog‘-u alamni // Bog‘dod elda oq sut bergan enamni (157).*

Doston matnida egalik qo‘shimchalari orqali hosil qilingan vokativ shakllar anchagina qo‘llanilgan, ularda chaqirish, murojaat, undash ma‘nolari ustuvorlik qilgan va II shaxsni ko‘rsatgan. Bunday lisoniy qonuniyat hozirgi o‘zbek adabiy tilida ham mavjudligi tilshunoslardan B.O‘rinboyev, D.O‘rinboyevalar tomonidan allaqachonlar ta‘kidlangan¹³³. Dostondagi *begim, avlodim, sarvinozim, oyim, bulbulim, xotinim, mohitabonim, jonim, darmonim, mastonim, dilbarim, gavharim, yorim, madorim, shunqorim, qiblagohim, bolam, diydam, xonzodam, sanam, bo‘tam* kabi leksemalar egalik qo‘shimchasiz kelsa, matnda dastlabki o‘z ma‘nosida qo‘llanilishini kuzatish mumkin. “Agarda bunday so‘zlarga egalik qo‘shimchasi qo‘shilib kelsa, shu qo‘shimchalar orqali epik qahramon (so‘zlovchi)ning asosiy maqsadi ifodalanganligini, nutqning emotsional-ekspressiv qimmati”¹³⁴ yanada oshganligini ko‘ramiz. Ayni holatlarda egalik qo‘shimchasidan ko‘ra murojaat, hurmat kabi ma‘nolar ustuvorlik qiladi. Kuzatishlarni asoslash maqsadida matndan olingan quyidagi misollarga e‘tibor qilamiz: *Musofirmiz, begim, shahri Shamshodda // Bundayin yotmagin sen ham g‘aflatda (152); Yurardim har yoqqa ostimda otim, Bog‘dodning shahrida qoldi avlodim (136); Quloq soling mening arzima // Javob bering, qiblagohim, ketarman! (124); Ul vaqtda menga yo‘liqqan yorim // Ko‘rib qolmadi-ku sabri qarorim // Qani qo‘lda bo‘lsa ul ixtiyorim // Izlab kepti shunday lochin shunqorim! (155).* Namuna sifatida olingan ushbu matnlardagi *begim, avlodim, qiblagohim, yorim, shunqorim* kabi so‘zlar [ot+egalik] qolipida hosil qilingan va ularda vokativ ma‘no hurmat, murojaat kabi ma‘nolarda voqealashgan.

¹³² Kўрсатилган манба, – 38 б.

¹³³ Ўринбоев Б., Ўринбоева Д. Ҳозирги ўзбек тилининг сўзлашув услуби. –Тошкент: Фан, 1991. – 114 б.; Ўринбоев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида вокатив категория. –Тошкент: Фан, 1972, – 32 б.

¹³⁴ Ўринбоева Д. Таъкидланган манба, – 38 б.

“Zevaxon” dostoni matnida egalik kategoriyasining *-i*, *-si*, shuningdek, qarashlilik shakli hisoblangan *-niki* shakllari ham ancha faol qo‘llangan. Misollarga e’tibor qaratamiz: – *Kitob ko‘ringlar, – dedi. Bulardan hech qaysisi bilmadi (124); Bu o‘yinga kelayotir // Kelgan o‘yin qilayotir // Tomoshasini ko‘rsatib // Har qaysisi turayotir (182)*. Ushbu misollardagi *qaysisi* so‘zida dastlabki *-si* va *-i* o‘zakka shu qadar singib ketganligi sababli kuchaytiruv-ta’kid ma’nosi ustuvorlik qilgan. Tilshunosligimizda bir guruh olimlar tomonidan (*-i*) + (*-si*) shaklining qo‘llanishi ikki xil hodisa (ekspressiv-stilistik va leksikalizatsiya) bilan bog‘liqligi isbotlangan¹³⁵. Shu nuqtayi nazardan qaraganda dostonidagi (*-i*) + (*-si*) shakli ma’noni kuchaytirishga xizmat qilgan, ayni holat shevalarga va dostonlar tiliga xos lisoniy xususiyat sanaladi. Bulardan tashqari, dostonida qarashlilik shakli ma’nosini ifodalovchi *-niki* qo‘shimchasi shakli ot va olmoshlarga qo‘shilib kelganida ham kuchaytiruv-ta’kid ma’nosi ko‘zga tashlanib turadi. Doston matnidagi quyidagi misollarga diqqat qilamiz: *Poshshoning qanoti — qushin olibsan, // Tuhmat qilib meniki deb turibsana (138); O‘z oyog‘i bilan jonon yetishdi, // Biz talash qilmaymiz, bo‘ldi seniki! (165); Bari, endi seniki bo‘ldi, biz hech nima deymaymiz... (166)*.

Umuman, “Zevaxon” dostoni tilida qo‘llangan egalik qo‘shimchalari adabiy tilimizdagi egalik shakllariga yaqin turadi. Lekin dostonning epik qahramoni nutqida hosil bo‘lgan xilma-xil funksional-stilistik vaziyatlar egalik qo‘shimchasining o‘zi birikib kelayotgan leksik birliklarning semantik ma’nosining va boshqa ma’nolarning biroz kengayishiga sabab bo‘ladi.

Ko‘plik kategoriyasi doston tilida quyidagi leksik-semantik vositalar orqali ifodalanganligini kuzatdik:

1. *-lar* qo‘shimchasi orqali ko‘plik hosil qilinadi va ko‘pincha ot, olmosh va otlashgan so‘zlarga qo‘shiladi: *Hoy, amaldorlar, xizmatkorlar, ko‘chada yurgan qancha chollar, bir necha kampirlar ham tabibning suvidan olib, yosh bo‘lamiz*

¹³⁵ Ўзбек халқ шевалари морфологияси. – Тошкент, 1984, – 26 б. Назаров К. Эгалик аффиксларининг –иси формаси ҳақида. ТашДУ илмий асарлари. – Тошкент, 1962, – 39 б.

deb, yosh bo'lib oldi (149); Bularning yaxshi etiklarini kiyib, to'nlarini, jiyakli sallalarini o'rab, erkak suratida bo'lib, tuyasini minib ketib qopti (166) kabi.

2. *-lar* son kategoriyasini ifodalovchi qo'shimchasi yordamida fe'llarda ko'plik shakli hosil qilingan (masalan, *izlanglar, qilmanglar* kabilar shular jumlasiga kiradi).

3. *-miz, -siz, -dilar* kabi hozirgi zamon shaklidagi, shuningdek, *-k, -ingiz, -dilar* kabi o'tgan zamon shaklidagi shaxs-son qo'shimchalari fe'llarga qo'shilganida ko'plikni ifodalashga xizmat qiladi (masalan, *kelamiz (140), bilamiz (140), qilamiz (137), o'ldiramiz (183), tuzatamiz (170), ketamiz (158), topasiz (143), o'lasiz (143), ko'ribsiz (193), boqibsiz (126), ketdilar (194), bordilar (140), berdilar (126), keldilar (191)*, shuningdek, *borsangiz (147), bersangiz (124), qilmasangiz (143), soldingiz (197)* kabi yuzlab variantlar ko'plikni hosil qilgan).

4. *-sh, -ish* kabi birgalik nisbat ifodalovchi qo'shimchalar ishtirokida ko'plik hosil qilingan (masalan, *yetishdi, urishdi, qilishdi* kabi).

Doston tilida ko'plik kategoriyasi quyidagi morfologik vositalar orqali ifodalanganligini kuzatdik:

a) ot so'z turkumlari orqali ko'plik ma'nosi so'zning o'zagining o'zida ifodalangan. (Masalan, *avlod, haq, xaloyiq, fuqaro, sel, juft, poda* kabilar shaklan birlik shaklida bo'lsa ham, doston matnida ko'plik, jamlik ma'nosini ifodalagan).

b) sifat so'z turkumiga xos so'zlar orqali (*adoqsiz, serob, behad, go'zal* kabilar shular jumlasidan).

v) olmoshlar vositasi orqali: (*biz, siz, hamma, jami, barcha, necha, qancha* kabilar).

g) sonlar orqali: (*tuman, lak, oltov, ikkam to'qson* kabi).

d) ravishlar orqali: (*behisob, ko'p, ancha, bisyor* kabi).

y) takroriy va juft so'zlar orqali: (*kecha-kunduz, bola-chaqa, dasta-dasta, katta-kichik, uzun-yaqin, xotin-xalaj* kabi).

Xullas, "Zevarxon" dostonida qo'llangan ko'plik kategoriyasi, asosan, leksik-semantik va grammatik vositalar orqali ifodalangan. Bu vositalarning ayrimlari nafaqat ko'plik, balki "bir qancha", "ko'plik+o'xshash",

“ko‘plik+jamlik”, “ko‘plik+chama+taxmin” kabi ma’nolarni epik qahramonning nutqi jarayonida yuzaga chiqargan. Ayni lisoniy holat ko‘plik kategoriyalarining uslubiy vosita vazifasini bajarishidan, qolaversa, lug‘aviy va uslubiy imkoniyatlarining kengligidan dalolat bera oladi. Bizning “Zevarxon” dostoni bo‘yicha bayon qilgan ushbu kuzatishlarimiz bu boradagi dastlabki urinishdir.

Tilimizdagi *harakat va holatni ifodalovchi so‘zlar* fe’ldagi leksik ma’noni o‘zgartirmaydi, balki muayyan harakat bilan bog‘langan shaxs-son va zamon kabi ma’nolarni aniqlaydi. Fe’llar o‘timli-o‘timsizlik, daraja, mayl kabi kategoriyalarga ham ega.

Tilshunosligimizda fe’l so‘z turkumi bilan bog‘liq ko‘plab ilmiy ishlar qilingan; qator dissertatsiyalar yozilgan, monografik tadqiqotlar chop etilgan. Xususan, fe’llarning leksik-semantik yoki mavzuiy guruhlarga bo‘lib o‘rganilganligini I.Qo‘chqortoyev,¹³⁶ R.Rasulov,¹³⁷ B.Bafoev,¹³⁸ A.Sobirov¹³⁹ va boshqa olimlarning ishlarida kuzatamiz. “Zevarxon” dostonidagi harakat va holat ifodalovchi so‘zlarni quyidagi guruhlarga ajratdik:

1. Yumush fe’llari: *abzallamoq, egarlamoq, qantarmoq, cho‘ktirmoq, aylanmoq, bitkazmoq, boylamoq, bog‘lamoq, yechmoq, yetkarmoq, yetkizmoq, ichmoq, kiygizmoq, ortmoq, sindirmoq* kabi.

2. Subyektiv hukm fe’llari: *do‘qlamoq, moytormoq (dilga ozor bermoq), nah urmoq (kamsitmoq), ayirmoq, birikmoq, bog‘lamoq, bosabermoq, boshlamoq, buyurmoq, bo‘shatmoq, zo‘rlamoq* kabi.

3. Gapiruv fe’llari: *bo‘zlamoq, tilga enmoq, joriy qaytarmoq (aynan takrorlamoq), jilonmoq (elanmoq), sinasib bo‘lmoq (suhbatdan o‘tmoq), boshqarmoq, deyishmoq, ingramoq, so‘zlamoq, gapirmoq* kabi.

4. Sukut fe’llari: *bo‘shamoq, ilinmoq, ko‘nmoq, naflanmoq, dimlamoq, botmoq (joni uzilmoq), tun qotmoq (bedorlik), chenkamoq (tinglamoq)* kabi.

¹³⁶ Кўчқортоев И. Сўз маъноси ва унинг валентлиги. – Тошкент, 1977, – 56 б.; Ўзбек тилида нутк феълларининг валент таҳлили. – Тошкент, 1978.

¹³⁷ Расулов Р. Ўзбек тилида ҳолат феъллари ва уларнинг облигатов валентликлари. – Тошкент, 1989.; Ҳолат феълларининг лексик-маъноантик гуруҳлари ва уларнинг валентлиги. – Тошкент, 1991.

¹³⁸ Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1983, – 21-27 б.

¹³⁹ Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини систем сифатида тадқиқ этиш. Филол.фан.д-ри.дисс.автореф. – Тошкент, 2005. – 60 б.

5. Talaffuz fe'llari: *allamoq, aytalmoq, bo'zlamog, chuvullamoq, chuvlamoq, arqiramoq, chaqchaqlashmoq, kovkovlashmoq, kovlamoq, to'ng'illamoq, yozdirmoq, so'zlashmoq, po'shtlamoq, qo'zimlamoq* kabi.

6. Nutqiy da'vat fe'llari: *qimtimoq (biror ishni tezroq bajarishga undash), avramoq (va'dalar bilan ko'ndirmoq), aldamoq (yolg'on gapirish), bildirmoq, boshqarmoq, gapirtirmoq, jo'natmoq* kabi.

7. Ifodalov fe'llari: *bukchaymoq, jo'ramoq (tush ta'birini aytmoq), tusmollamoq (taxmin qilmoq), ag'darib so'zamoq (batafsil so'ramoq), bo'ylamoq, bo'lishmoq, bo'linmoq, yoqmoq, yonmoq, yotmoq, yormoq, jo'namoq, otlanmoq* kabi.

8. Holat fe'llari: "Zevarxon" dostonidagi bu tipdagi fe'llarni leksik-semantik jihatdan quyidagicha guruhlashtirishni ma'qul topdik:

a) tabiiy holat fe'llari: *bo'ylamoq, balqimoq (yuzning qizarib turishi), jinjiraqmoq (jimirlamoq), bukchaymoq, rostlamoq, tiklamoq, eshmoq (sochni o'rmoq), toblanmoq, tikilmoq, tebranmoq.*

b) ruhiy holat fe'llari: *bog'lanmoq, gangimoq, seskanmoq, tangraymoq, titramoq, achchiqlanmoq, jo'mmoq (ruhiy ezmoq), mung'aymoq (kayfiyatsiz o'tirmoq), qabarmoq (ko'ngli qolmoq), qobilmoq (yonmoq, kuymoq), xun dovlamoq (xunini talab qilmoq).*

v) fiziologik holat fe'llari: *adashmoq, sandiramoq, dovdiramoq, tezlanmoq, xezlanmoq (oldinga intilmoq), to'valashmoq, alanglamoq, ag'darmoq, dog'lamoq, jerkmoq, varqiramoq (kuchli terlash, qizib ketish), aymashmoq (o'ralib olmoq, chirmashmoq).*

g) obrazli holat fe'llari: *sayramoq, ko'kallamon, selenglamoq, chilinglamoq, cho'changlamoq, cho'chirmoq.*

d) faqat insonga xos holatni ifodalovchi fe'llar: *tilamoq, taranmoq, tanimoq, angimoq (kuzatmoq), zinkaymoq (tik turmoq), anqaymoq (hayron bo'lmoq), kayqamoq, aymashmoq (ustma-ust, uyilib yotmoq).*

9. Harakat fe'llari. "Zevarxon" dostoni tilidagi bunday tipdagi fe'llarni shartli ravishda ikki xilga ajratish mumkin:

a) faqat insonga xos harakat ifodalovchi fe'llar: *angnimoq (kuzatmoq), zinkaymoq (tik turmoq), anqaymoq (hayron bo'lmoq), kayqamoq, aymashmoq (ustma-ust, uyilib yotmoq), axtarmoq, bormoq, iyarmoq, tinglamoq, dorimoq (teng kelmoq, oralamoq, kelmoq).*

b) hayvonlarga xos harakat ifodalovchi fe'llar: *tashlanmoq, tarmashmoq, tirkalmoq, yo'rtmoq (asta yurmoq), jilpimoq (irg'imoq), jultak tashlamoq (otning o'ynoqlab yurishi), asirlamoq (tez, ildam yurish).*

“Zevarxon” dostoni tilidagi fe'lni, ya'ni harakat va holatni ifodalovchi so'zlarning leksik-semantik guruhlarini o'rganish davomida yana bir lisoniy qonuniyatga duch kelindi: bular doston tilida qo'llangan, lekin hozirgi adabiy iste'molda ishlatilmaydigan fe'llardir. Masalan, *changg'irmoq, chiltanglamoq, port bo'lib qolmoq, satqang bo'lmoq, savashmoq, seblamoq, shovshatmoq, jubanmoq, tayranglamoq, akillashmoq* va boshqalar shular jumlasiga kiradi. Bunday fe'llarning ayrimlari qipchoq je-lovchi shevasiga mansub etnik aholining og'zaki so'zlashuv nutqida ham uchrab turadi. Masalan, *port bo'lib qolmoq – hammaning oldida yuzi shuvut bo'ldi, allashmoq – maslahatlashib oldi, chiltanglamoq – odobsizlik, hurmatsizlik qildi, shovshatmoq – bor-budidan ayrilmoq* kabi ma'nolarni ifodalashga xizmat qiladi.

Fe'lning o'zak-negizidan yetarli daraja shaklini hosil qiladigan **-dir** qo'shimchasi *bildirmoq (135, 195), kuldirmoq (168, 198), mindirmoq (168, 195, 191), oldirmoq (192, 183), to'ldirmoq (143), o'ldirmoq (191, 183, 147, 170, 177, 185, 189, 128, 180, 146, 185, 190, 161), kuydirmoq (150, 160)* singari fe'llar tarkibida qo'llangan va uning qo'llanish chastotasi (miqdori) daraja hosil qiluvchi qo'shimchalar orasida eng faoli hisoblanadi. Doston tilida mazkur qo'shimcha bilan sinonimik munosabatga kirishish imkoniyatiga ega bo'la oladigan *-g'iz, -giz* qo'shimchalari ham juda ko'p bo'lmasa-da, matnda uchraydi. Ayni lisoniy hodisaning nazariy asoslarini isbotlab bergan professor X.Doniyorov shunday ta'kidlagan edi: “Adabiy tilimizdagi fe'lning orttirma darajasini yasovchi **-dir** affiksining ma'nosi sharqiy guruh shevalarida, asosan, shu affiksning qisqargan formasi bo'lgan **-t** orqali ifodalanadi... Shevalardagi **-dir** affiksining qisqarib **-t** ga

aylangan formasi xalq dostonlarining tilida ham tez-tez uchrab turadi”¹⁴⁰. Olimning bu mulohazalari “Zexarxon” dostonidagi ayrim lisoniy dalillarga to‘liq mos keladi. Masalan: *bajartir – bajarti, boshqartir – boshqarti, jugurtir – jugurti, qabartir – qabart* kabi. Ayni lisoniy hodisalar qipchoq shevasining je-lanuvchi guruhiga ham to‘la mos keladi.

Hozirgi zamon fe’li hisoblanadigan *–yapti* elementi doston matnida 25 marta qo‘llangan: *kelayapti (191), qulayapti (141), qarayapti (141), berayapti (196), borayapti (140, 141, 159), so‘rayapti (141, 174), aytayapti (143, 152, 157, 161, 167, 170, 181, 187, 188, 193), tushayapti (191), deyapti (165), tashlanayapti (159), borayapti (186, 196)* kabi. Doston tilida davomlilik ma’nosini ifodalaydigan *–yotir* birmuncha kam qo‘llangan bo‘lib, u 6 ta so‘z tarkibida 12 marta qo‘llangan: *Shovqinman yig‘ilib maymun, // Bu o‘yinga kelayotir, // Kelgan o‘yin qilayotir, // Tomoshasini ko‘rsatib, // Har qaysisi turayotir (181-182); Bu so‘zlarni aytib borayotir: (185); «Biz u qizni hech nima qilganimiz yo‘q», deb bir-biriga shivirlashayotir (191); Unda bobo bu so‘zni aytayotir: (137)* kabi. “Zexarxon” dostoni tilidagi bunday lisoniy hodisalar tahlili prof.X.Doniyorovning *–yotir* adabiy tilga qipchoq shevalari orqali kirib kelganligi haqidagi fikr-mulohazalarini tasdiqlaydi.¹⁴¹ Qolaversa, doston ijrochisi Bulung‘urlik Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lining o‘zi ham je-lovchi qipchoq shevasiga mansub aholining vakili edi. Shuning uchun doston tili ham qipchoq shevasiga tamomila mos kelgan va o‘zbek adabiy tilining muhim tarmog‘i ekanligi kuzatildi.

Doston tilidagi o‘tgan zamon ma’nosining kelasi zamon shaklida ifodalanishi barcha an’anaviy xalq dostonlari kabi xalq baxshisi Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lining uslubiga xos bo‘lgan xususiyat sanaladi: *Rahmi kelmay sho‘rning qari holiga // Nimpushta qip bu boboni uradi. // Semurg‘im, deydi, fig‘on qiladi, // Bu boboning nochor holin biladi (137); yoki: Zexar asli Bog‘dod elda turadi, // Tabiblikni kasb qilib yuradi, // Ko‘ngliga kelgan ishni qiladi. // Har kimning dardini o‘zi biladi. // Dardmandlar shifo topib boradi, // Tavakkalni yaratganga*

¹⁴⁰ Дониёров Х. Эски ўзбек тили ва қипчоқ диалектлари. – Тошкент: ТошДПИ нашри, 1976, – 109-110 б.

¹⁴¹ Кўрсатилган манба, – 111 б.

qiladi (141) kabi. O'tgan zamon ma'nosining kelasi zamon shaklida ifodalanish hodisasiga juda ko'plab misollar keltirish mumkin, albatta. Biroq biz yuqoridagilar bilan cheklanamiz.

Doston tilida fe'lning istak mayli asosan **-gin** ko'rsatkichi yordamida ifoda etilgan. Bu qo'shimcha matnda juda faol qo'llangan. Xususan, *tila, ayla, o'yla, kelma, qilma, qolma, o'lma, bo'lma, o'ksinma, yurma, yotma, aytma, yo'liqma, yasha, kel, bil, qil, ol, sol, bo'l, min, en, bitkar, ko'tar, qutqar, boshqar, ber, ketaber, tilayber, gapir, topshir, bor, tur, ko'r, yur, yet, ket, berkit, eshit, ayt, tort, tut* singari fe'l so'zlariga **-gin** ko'rsatkich qo'shilishi natijasida fe'lning istak mayli hosil qilingan. Biz tuzgan lug'atlardagi ma'lumotlarga ko'ra ta'kidlangan fe'l so'zlar 128 marta qo'llangan. Ularning ichida eng faollari: *olgin, aylagin* – 6 martadan, *kelgin* – 9 marta, *bo'lgin* – 8 marta, *bergin* – 14 marta, *qilgin, solgin* – 6 martadan, qolganlari – 5 martadan qo'llangan va undan kam miqdorda ishlatilgan.

Doston tilidagi ba'zi morfologik shakllarning og'zaki, yozma va kitobiy variantlarining bab-baravar qo'llanishiga sabab, birinchidan, doston matnda og'zaki va an'anaviy, sheva unsurlarining mosligi bo'lsa, ikkinchidan, ayrim kitobiy ifodalarning mo'l qo'llanganligidan dalolat beradi. Masalan, fe'lning kelasi zamon shakli **-(a)san** matn tarkibidagi 24 ta fe'l so'zga qo'shib ishlatilgan: *bilasan, urilasan, tutilasan, olasan, qolasan, qutilasan, o'lasan, bo'lasan, berasan, borasan, ko'rasan, yurasan* va h.k. Shuningdek, fe'lning kelasi zamon istak shakli **-gaysan** ham matnda *saqlagaysan, bo'lgaysan, bergaysan* kabilar tarkibida kelganligi aniqlandi: *Saqlagaysan o'zing endi salomat. // Kezib yurdim necha cho'l-u daryoni (173); Men seni tanidim Malikai Xubon, // Dunyo turgancha bo'lgaysan omon! (195); – Unday bo'lsa borib bergaysan xabar, // Meni davlatima op kelmoq darkor (142)* kabi. Doston tilidagi bunday lisoniy holatlar matnda epik qahramon nutqidagi istak ottenkasining ustunligini ta'minlashga va ularga nisbatan hurmat-izzat va badiiy obrazlilikka xizmat qilgan.

Doston tilida fe'lning shart mayli shakli istak mayli ma'nosini ifodalashga xizmat qiluvchi *so'ylasak (143), o'lmasak (127), kelsak (191), bilsak (167), qilsak (177), bo'lsak (127), aylansak (166), topsak (183), bersak (190), o'ldirsak (178),*

tursak (158), *yursak* (127), *ko'rsak* (140) singari fe'l so'zlarining qo'llanganligi shu turkumga oid so'zlarning ishlatilish ko'lamini kengligini yana bir bor tasdiqladi.

“Zevaxon” dostoni bo'yicha olib borgan kuzatishlarimizning guvohlik berishicha, payt va sabab ma'nosini ifodalovchi **-gach, -kach, -g'ach, -qach** qo'shimchalari mutlaqo qo'llanmagan. Ayrim nufuzli manbalarda ularga ravishdosh yasovchi **-ib** qo'shimchasi sinonim bo'lishi mumkinligi qayd etilgan¹⁴². Biz tomonimizdan doston bo'yicha tuzilgan ters lug'atda ushbu qo'shimcha bilan tugallanuvchi 875 ta so'zshakl qayd etildi. Ularning ichida 54 marta *kelib*, 89 marta *qilib*, 91 marta *olib*, 139 marta *bo'lib*, 31 marta *borib*, 67 marta *ko'rib*, 31 marta *aytib*, 25 marta *axtarib* kabi fe'l so'zlari eng ko'p qo'llanganlar guruhiga kiradi. Dostondagi lisoniy birliklar tahlilining ustunlik batamom **-ib** da ekanligini ko'rsatadi.

Doston tilida fe'l turkumiga oid so'zlarning qo'llanish ko'lamining juda keng qamrovligini tasdiqlovchi ikki omil mavjud: Ularning birinchisi – doston matnidagi bu birliklarning umumxalq tilidagi boshqa fe'llardan farqlanuvchi jihati – qipchoq shevasining ustunligi bilan belgilanadi. Ikkinchi omil esa, xalq baxshisining doston ijrosidagi jo'shqinligi epik bayonda favqulodda tanlangan fe'l so'zlarining poetik ifodaga moyilligi, ularning qofiyaga mosligining ta'siri sezilib turadi. Masalan, birgina ***aylamoq*** fe'lini nazardan o'tkazaylik. Nufuzli manbalarda qayd etilishicha, mazkur fe'l *qilmoq* va *etmoq* fe'lga qaraganda birmuncha kitobiy, obrazli sanaladigan, uslubiy jihatdan chegaralangan¹⁴³. Mazkur ***aylamoq*** fe'li dostonda bor-yo'g'i 5 marta qo'llangan. Epik qahramonlar nutqida uning *aylab, aylabsan, aylagil, aylagin, ayladi, ayladim, aylading, aylay, aylaylik, aylama, aylangan, aylandi, aylanib, aylansak, aylasa, aylasam* kabi so'zshakllari umumiy holda 46 marta qo'llangan. Bunday statistik ma'lumotlar ushbu so'zga nisbatan bo'lgan doston aytuvchisi – xalq baxshisining o'ziga xos munosabatini va uslubini belgilay oladi.

¹⁴² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. (Беш томлик. –Т.1. – Тошкент: ЎзбМЭ, 2006, – 407 б.

¹⁴³ Хожиев А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. –Тошкент: Ўқитувчи, 1974, – 254 б.

Tilimizning lug‘at bisotida *javlón* so‘zi bor. U aslida “*jilva bilan o‘ynoqlab, chopib yuradigan*” ma‘nosini ifodalab keladi¹⁴⁴. Bu so‘z dostonida *etmoq* birikmali fe‘l tarkibida *aylamoq* shaklida uchraydi: *Ruxsat olib shikor ketgan, // Yor yo‘lida javlón etgan, // Go joylarda azob chekkan, // Xatarli karvoning keldi!* (196). *Aylamoq* fe‘li va uning *qilmoq, etmoq* singari birikmali fe‘l tarkibida qo‘llanishi haqida bahs borarkan, bu o‘rinda, *bayon aylamoq, shod aylamoq* kabi birikmalar tarkibidagi *aylamoq* ham dostonning she‘riy bayonida poetik ifoda uchun xizmat qilganligini qayd etish lozim: *Necha so‘zni Zevar o‘g‘lon o‘yladi, // Siru ahvolini bayon ayladi* (144); *Hasan vazir dod ayladi, // G‘arib ko‘nglin shod ayladi* (173) kabi.

Xullas, Fozil shoir “Zevaxon” dostonini kuylash jarayonida yuksak ijro va badihago‘ylik bilan qofiya talabi asosida aytayotgan so‘zlariga mas‘uliyat bilan munosabatda bo‘lganligi, ularga qo‘shimcha ma‘nolar yuklashga harakat qilganligi, eng muhimi, doston syujetini bayon etishdagi auditoriyani – tinglovchilarni o‘ziga jalb qilish maqsadida yangi ma‘no va shakllarni qo‘llanganligi ko‘zga tashlanib turadi. Ayni holatlar doston kuylovchisining badiiy uslubini belgilovchi omillardan sanaladi.

2.2-§. Belgi-xususiyatni, ish-harakat va holatning belgisini ifodalovchi so‘zlar

“Zevaxon” dostoni tilidagi *belgi-xususiyatni ifodalovchi* so‘zlarni quyidagi semantik guruhlariga bo‘lib o‘rganishni lozim topdik:

1. Holatni bildiruvchi sifat so‘zlar.
2. Shakl-ko‘rinishni bildiruvchi sifat so‘zlar.
3. Hajm-o‘lchov va masofa bildiruvchi sifatlar.
4. Rang-tus bildiruvchi sifat so‘zlar.
5. Hayvon va parandalar tuslarini ifodalovchi sifat so‘zlar.

¹⁴⁴Ўзбек тилининг изоҳли луғати. (Беш томлик. –Т.1. – Тошкент: ЎзБМЭ, 2006, – 268 б.

1. **Holatni bildiruvchi sifat soʻzlar.** Bu tipdagi sifat soʻzlar tilshunosligimizda birmuncha oʻrganilgan (biz bu oʻrinda M.Sodiqova,¹⁴⁵ Z.N.Pardayeva¹⁴⁶larning ilmiy ishini nazarda tutyapmiz). Biz tadqiq qilgan “Zevarxon” dostoni matnida bu tipdagi soʻzlar semantik jihatdan quyidagi holatlarda namoyon boʻlganligini kuzatdik:

a) epik qahramon tabiiy holatining belgisini ifodalovchi sifatlar (ular ijobiy va salbiy maʼnoni ifodalab kelishi mumkin). Masalan: *Malikai Xubon koʻp sohibjamol edi (120); Husni chiroyli, barkamol qiz ekan (191); Koʻzlari jodugar, husni munavvar (124); *Malikai Xubon koʻshkidan tushib Saʼdulla kalning orqasiga mingashdi, tuyani turgʻizib, joʻnab ketdi (159).**

b) epik qahramonning jismoniy va fizik holatlarini ifodalovchi sifatlar: *Husni chiroyli, barkamol qiz ekan (191); Zevarxon bu boboning soʻzini haq qilib, qari kishi yolgʻon gapirmas, rost aytadi, deb chiqib joʻnadi (185); Qancha ishni yosh ham boʻlsam oʻtkazib, // Boshimga koʻp ogʻir xizmat yetkazib, // Yosh ham boʻlsam, bobo, aytay nasihat...(139); Oʻzi qarib, yoshi ulgʻaygan edi. Yigirma yashar yigit boʻldi (149).*

v) epik qahramonning muayyan hayotiy holatini ifodalovchi sifatlar: *Bu soʻzlarni aytib bobo bechora koʻp tayoqni yeb, Semurgʻdan ayrilib qoldi (138); Oʻzini oʻldirib molin olibsan, // Bechora boʻp bu zindonda qolibsan? (190); Podsho edim, gado qilgan, // Abgoru aftoda qilgan. // Podsholik davlatim qolib, // Bu choʻllarda gado boʻlib...(130); Umrinni boricha yursam soʻroqlab. // Gʻarib boʻlib qoldim, ishqingda yigʻlab (122); Gʻamzasi jon olur, koʻzlari zolim. // Bir koʻrinmas, zabun boʻldi ahvolim (122).*

g) epik qahramonning ruhiy holatini ifodalovchi sifatlar: *Koʻz yugurtib Zevar boʻylab qaradi, // Bir tarafda bir Chorvoqni koʻradi. // Burilib Chorvoqqa borayin desa, // Dushman bor deb ancha gʻamgin boʻladi (132); Mening ketishimni koʻrib, // Koʻngli parishon kazolar! // Gadoylarga saxovatli, // Miskinlarga adolatli (126); Musofirman bunda gangigan boshim, // Bogʻdod elda*

¹⁴⁵ Содикова М. Ҳозирги ўзбек тилида сифат. – Тошкент: Фан, 1974.

¹⁴⁶ Пардаева З.Н. Ўзбек тилида сифатларнинг маъновий-услубий хусусиятлари. Филол.фан.номз...дисс. автореф. – Самарқанд, 2004.

bordi mening sirdoshim (157); Bunda kelib turgan suratni ko'rdim, // Behush yig'lab o'zimni urdim (193). Namuna sifatida keltirilgan ushbu matnlarda dostonidagi epik qahramonlarning kundalik hayot qiyinchiliklaridan ruhiy jihatdan qiynalganligi, chuqur iztirob chekkanliklari, chorasizlikdan hech bir imkoniyat topolmaganlik holatini baxshi ijro davomida syujet oqimiga mos holda *behush, gangigan, musofir, miskin, gadoy, g'amgin* kabi sifat so'zlarini maqsadli ishlata olganligini ko'ramiz.

2. Shakl-shamoyil (muayyan ko'rinish)ni bildiruvchi sifatlar: *Hech kim bilmas bu podshohning ishini, // Tor zindonga soldi qirqta kishini (171); Juda ham aqlimni olgan, // Kipriklari xanjar zolim (131); Aqlim olib ketdi bu parizod, // Husni yaxshi, qomati shamshod (122); Jonim oldi jodu ko'zli bir pari // Tilladan yuzigi, tarog'i shamshod (123)* kabi.

3. Hajm-o'lchov va masofani ifodalovchi sifatlar: *Yonashib qoshima yaqin kelmagin, // Semurg'ga hadik berib yurmagin (133); Bobosi uzoq yashagan odam, o'tlarni tanib terib yuribdi (140); Bedov mingan bari g'uchchoq, // Mingani bari to'bichoq (139); Yetti marta Ka'ba bordim, // Yo'llarida jafu ko'rdim (121).*

Tahlil uchun namuna sifatida berilgan quyidagi matnlardagi sifat guruhlarning deyarlik hammasi epik qahramonning nutqidagi ekspressiv-emotsionallik munosabatlari ustuvorlik qilganligi kuzatiladi. Masalan, *Mingin taxtingga, sultonim // Yo'lingda bu shirin jonim, // Men ayladim qurbon senga! (121); Jonim oldi shirin so'zli bir pari // Ko'zimga ko'rindi bir dona gavhar (124); Titrar mening shirin jonim, // Qani mening mehribonim (130); Har so'zing tayoqdan yomon o'tibdi, // Zahardan achchiqdir so'zlaring sening (181)* kabi.

4. Rang-tus bildiruvchi sifatlar. “Zevaxxon” dostonida bu tipdagi so'zlar predmetning belgi-xususiyatlaridan birini ifodalashga xizmat qilgan. Masalan, *qizil (133), qora (121, 123, 132, 159, 180, 186); oq (157, 198); ko'k (152, 148, 134, 151); yashil (144, 148); gulgun (122, 130); qirmizi (162, 130, 156)* kabilar shular jumlasiga kiradi.

Sifatlarning semantik-uslubiy xususiyatlarini maxsus o'rgangan M.Sodiqovanning qayd etishicha, “tabiatdagi ranglarning chegarasi yo'q. Lug'at

boyligimizda ham rang bildiruvchi maxsus soʻzlar rang, tuslarning hammasini ifodalay olmaydi. Shuning uchun tilda qoʻshimcha bir rang bildiruvchi soʻz bir necha rangni ifodalaydi va semantik qamrovi kengayadi. Ularning uslubiy imkoniyatlari, okkozional maʼnolari faqat nutq jarayonida yuzaga chiqadi”¹⁴⁷. Binobarin, koʻpgina olimlar, xususan B.Toʻxliyev, K.Mustayev, S.Oʻtanova va boshqalar tomonidan yozma va xalq ogʻzaki ijodi namunalariidagi rang va tus bildiruvchi soʻzlarning semantik-sermaʼnolik xususiyatlari ham birmuncha oʻrganilgan boʻlsa-da¹⁴⁸, aynan “Zevarxon” dostonidagi rang-tus bildiruvchi soʻzlarning lisoniy xususiyatlari oʻrganilmagan. Biz ayni holatni inobatga olib, ularning ayrimlari haqidagi ilk kuzatishlarimizni bayon etishga urindik.

Adabiy tilda koʻk – tiniq osmon rangidagi; *moviy, zangori*¹⁴⁹ kabi maʼnolarini bildirib, “belgi”, “sifat belgisi”, “rang bildiruvchi belgi” atash maʼnosida birlashadi. “Zevarxon” dostonida “koʻk” soʻzining quyidagi maʼnolari mavjudligi aniqlandi:

a) “osmon” maʼnosi: *Qanotli hush uchib dunyoni koʻrgan, // Tavakkalni bunda tangriga qilgan. // Xudo dedi Zavar koʻkda joʻnadi. // Na joyga boramiz xudo biladi (152).*

b) “osmondan yuqoridagi makon” maʼnosi: *Semurgʻ ham koʻtarildi osmonga. // Koʻkka chiqib ketdi uchib jonivor, // Ustida boradi Zevarday nomdor! // Falakda bulutman boʻlib barobar (151).* Ushbu matnda koʻk soʻzining sinonimlik xususiyati mavjud. Buni *osmon* → *koʻk* → *falak* tarzida ifodalash mumkin.

Doston tilidagi *“qizil”* soʻzi matnda salbiy maʼno tashish uchun xizmat qilganligini kuzatamiz: *Yaqin kelib xayolimni boʻlasan, // Sen ham oʻzing qizil koʻzli bolasan, // Ketabergin toʻgʻri kelgan yoʻlingga! (133).* Dostonning ayrim

¹⁴⁷ Содиқова М.С. Слова обозначающие цвет и окраску в узбекском языке. АКД. Ташкент, 1963; Пардаев З.Н. Ўзбек тилида сифатларнинг семантик-услубий хусусиятлари. Филол.фан.номз...дисс. автореф. - Самарқанд, 2004.

¹⁴⁸ Тўхлиев Б. “Кутадғу билиг” ранг рамзига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, - Тошкент, 2001, №3; Мустаев К. Поэтика и числовых знаков – символов в узбекском и французском героическом эпосах: АКД, Самарқанд, 1994.; Ўтанова С. Алишер Навоий ғазалиётда ранг символикаси. Филол.фан.номз...дисс. автореф. - Тошкент, 2007.

¹⁴⁹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. (Беш томлик. –Т.:1. - Тошкент: ЎзбМЭ, 2006, - 412-бет.

o‘rinlarida *qizil* so‘zi rang-tusni ifodalovchi “*qirmiz*” so‘zi bilan sinonimiyani ham vujudga keltirgan: *Men bermayman bunga omon, // Qilichdan to‘kib qirmiz qon (162); Kiygani gulgun qirmizi, // Aqlimni olgan jodu ko‘zi (130)*. Qizil, umuman, qizillik tushunchasini ifodalashda xalq baxshisi *alvon, parcha, gulgun* kabi lisoniy birliklardan ham foydalangan: *Qatorga tirkaldi lo‘k bilan norcha, // Ustiga yukladi qirmizi parcha (156); Urush bo‘lib alvon-alvon, // Hasan yolg‘izdi mard o‘g‘lon, // Dushmanlarga qirrin solgan (163); Gulgun kiyib kelgin yana qoshima, // Xamoyilday soya solgin boshima (122)*. Keltirilgan matnlardagi *qizil, gulgun, qirmizi, alvon* so‘zlari “rang bildiruvchi belgi” ma’nosida birlashsa-da, *qizil, qirmizi* “me’yordan ortiq”, “adabiy”, *gulgun* me’yordan ortiq, “doston tiliga xos” ma’nolari bilan bir-biridan farqlanadi. Ayrim hollarda dostonidagi *alvon* so‘zi “rang-tus” ma’nosidagina emas, balki “turli”, “xabari xilma-xil” ma’nolarini ifodalashga xizmat qilgan: *Endi senga timsol aytay bir alvon, // Bahodir bo‘p yurdim, eynimda qalqon (136); So‘z aytadi alvon-alvon, // Bandam desa Qodir mavlon (162); Urush bo‘lib alvon-alvon, // Hasan yolg‘izdi mard o‘g‘lon, // Dushmanlarga qirrin solgan (163)*.

“Zevarxon” dostoni tilidagi rang-tus bildiruvchi so‘zlardan yana biri *qora* so‘zi ham faol qo‘llanilgan. Uning quyidagi leksik-semantik ma’nolarini uchratdik:

a) “uzoqdan ko‘ringan biror sharpa, o‘lja” ma’nosi: *Bir quyundan to‘polon-to‘zon o‘taberdi. Zevarxonning ko‘ziga to‘zonning ichida bir qora ko‘rindi (121)*.

b) “razil, qabih, yovuz, dushman” ma’nosi: *Bayon aylay oshiqlikning dardidan, // Qonim to‘kdi qora ko‘zli, bir pari (123)*;

v) “soch” ma’nosi: *Qora zulflari tol-tol, // Bersang yetmaydi dunyo-mol! (132)*;

g) “mo‘ljalga olingan, muayyan maqsadga qaratilgan reja” ma’nosi: - *O‘ng‘ayib, menga qarab tiklab, o‘ltirgin. (180)*;

d) “ilojsiz to‘da, sho‘rli, baxtsiz” ma’nosi: *Ketmaydi kuchuklar chinorga boqib // Bir nechasi qora, birovi ola (186)*;

y) “muayyan vaqt” ma’nosi: *Tuya yulduzday olib ketdi. Qorong‘i kechada qayerga ketganini bilmaydi, – Zevarxon, deb Malikai Xubon so‘z qotadi (159)*;

j) “buyruq vazifasini bajarishlik” ma’nosi: *Nima bo‘lsang o‘z ishingman bo‘lasan, // Qorangni ko‘rsatib bunda turasan (133).*

Keltirilgan tahlillardan ayon bo‘ladiki, rang-tus bildiruvchi qora so‘zining “Zevarxon” dostonida muayyan uslubiy vosita sifatida funksional imkoniyatlari anchagina. Ulardan xalq baxshisi Fozil shoir doston kuylashda o‘z va qahramonlar nutqini obrazli ifodalashda auditoriyaga ta’sirchanlikni oshirishda muvaffaqiyat bilan qo‘llay olgan.

Xullas, rang-tusni ifodalovchi so‘zlarning “Zevarxon” matnidagi mavjud ma’nolari kontekstual, xilma-xil va serqatlamligi bilan alohida ajralib turadi. Ayni chog‘da, sinonimik qatorlar, ma’nodoshlik uyalarini hosil qilishda bir qator lisoniy xususiyatlarga ham ega. Eng muhimi, ayni xususiyatlar, bir tomondan, doston tilidagi lug‘aviy birliklarning qay darajada ekanligini ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan, baxshi-ijodkorning ulardan samarali foydalanishdagi poetik mahoratini ochib beradi.

5. Hayvon, parrandalar va ozuqa tuslarini ifodalovchi sifat so‘zlar. Xalq dostonlari tilida hayvonlarning rang-tuslarini bildiruvchi sifat so‘zlar salmoqli darajada qo‘llanilgan. Masalan, “Alpomish” dostonida uchrovchi *jiyron* (sarg‘ish qizil yoki qizil sariq tusli ot nomi), *to‘riq* (qizg‘ish jigar rangdagi ot nomi), *saman* (sariq tusli ot nomi) kabi faqat ot tuslarini ifodalovchi so‘zlar; *ola*, *bo‘z* (ko‘kimtir oq yoki kulrang rangdagi ot nomi), shuningdek, *bo‘zchipor*, *oq to‘riq*, *chovkar ko‘k*, *qora yol saman*, *tarlon ko‘k* kabi ot rang-tuslarini ifodalovchi birliklar shular jumlasidandir. Bu birliklarning ayrimlariga izoh beramiz: *chovkar ko‘k* – ko‘kimtir kulrang tusli, ustida qoramtir, qizg‘ish yoki oqish dog‘lari bor ot; *tarlon ko‘k* – ola rang ustiga qoramtir, qizg‘ish dog‘lari bor ot tusi; *bo‘z alvon* – kulrang va qizg‘ish aralash yoki qizg‘ish dog‘lari bor ot tusi. Bulardan tashqari, yana “Alpomish” dostonida *olapocha* (oyoqlari oq-qora, oq-malla kabi qorishiq tusli ot), *chovkar//chavkar//chipor* – (ola tusli otlar nomi, ularda oq tusli otlarda qora, qizg‘ish dog‘lar mavjud), *oq tuyoq* – (tuyoqdan yuqori qismi oq, qolgan qismi boshqa rangda bo‘lgan ot nomi) kabi. Biz tadqiq qilgan “Zevarxon” dostoni matnida esa bunday lisoniy holatlar qo‘llanilmagan, ya’ni otning rang-tuslarini

ifodalovchi sifat soʻzlar uchramadi. Matnda faqatgina ot soʻzining oʻzigina mavjud, xolos. Ayni holatni *tuya* nomi qoʻllanilgan matnga nisbatan ham aytishimiz mumkin. Aniq hisob-kitoblarga koʻra, *ot* soʻzi 10 marta, uning shakldoshlaridan *otiga, oting, otini, otining, otlarni* 2 martadan, *otim, otingning, otili, otdan, otdi (otni)* 3 martadan qoʻllanilgan. Shuningdek, hayvonlardan yana biri – *tuya* soʻzi ham 10 marta, mazkur soʻzning shakldoshlaridan *tuyam, tuyamni, tuyangizning* 2 martadan, *tuyaga* 3 martadan, *tuyasini* 4 marta, *tuyani* 7 marta, *tuyaning* 10 martadan qoʻllanganligi aniqlandi, lekin ularning birortasida ham rang-tusni ifodalovchi sifat soʻzlar ishlatilmagan. Masalan: *Ot, anjomingiz vaziringizda tursin. Biz tuyaga minib ketamiz. Mening tuyamni Balxi shutir, deydi (158), Bu tuyaning xosiyati shu: qayerni istasang yulduz oqqanday shu yerga olib boradi (121).*

“Zevarxon” dostoni tilidagi hayvon va parrandalar tuslarini ifodalovchi sifat soʻzlarni oʻrganish davomida **boʻz** soʻziga duch keldik. Aslida bu leksema *boʻz, bjz. Alvon* variantlarida boshqa xalq dostonlarida muayyan rangni ifodalovchi soʻz sifatida qoʻllangan. Hayvonlarning rangini ifodalovchi **boʻz** soʻzi yoki birikmasi “Zevarxon” dostonida otlarga nisbatan qoʻllanmagan. Faqatgina paranda – qush nomlaridan qarchigʻayga nisbatan ishlatilgan: *Jamoling oʻxshaydi osmonda oyga, // Qoshing kelishibdi egilgan yoyga, // Jasading oʻxshaydi boʻz qarchigʻayga, // Qarchiray changallim, qaydan boʻlasan? (167).* Anʻanaviy xalq dostonlari matnida juda faol qoʻllanadigan qarchigʻay soʻzi aslida “kalta qayrilma tumshuqli, tirnoqlari uzun va oʻtkir, ovga solinadigan yirtqich qush” (OʻTIL, I, 380 b.) nomini ifodalaydi. Dostondan olingan yuqoridagi matnda Istanbul shahri amaldorlarining tuyaga minib borayotgan Malikai Xubonga qarata aytgan murojaati aks etgan: unda davlat qushi qoʻngan Malika Xubonning boʻlajak podsholikka munosibligi, ajib suratli yigit ekanligi qayd etilgan, xolos. Isteʼdodli xalq baxshisining epik qahramon nomidan kuylagan bu misralari doston ijrosi talabi bilan a-a-a-b shaklidagi qofiyaga toʻla mos keladi, matn ijrosini doʻmbira ovozi eshitgan har qanday tinglovchi-auditoriya ahlining diqqatini oʻziga jalb etishga undaydi.

“Zevaxon” dostonida *sut*ning rangini ifodalovchi (oq rang) soʻzlarni ham uchratdik: *Yurakdan kechirib dogʻi alamni, // Bogʻdod elda oq sut bergan enamni (157); Enang senga oq sut bergan, // Intizor boʻp bunda qolgan (198)*. Matnlardagi *oq sut* birikmasi onaning koʻkrak suti nomini ifodalagan, unda oqlik rangi va tusi ustivorlik qilgan, bosh epik qahramon Zevaxonning yoshligidagi isteʼmol qilgan ozuqasi sifatida taʼkidlangan.

Doston matnida muayyan predmetning rang-tusini ifodalovchi birikmalar (masalan, *zarrin poʻta, zar zavar*..... kabi) ham uchraydi: *Tangrim kechirsin-da qilgan xatomni, // Belima boylayin zarrin poʻtamni (157); Aytgan soʻzda koʻpdir xatom, // Belimda bor zarrin poʻtam. // Yoʻlingga qaraydi otang (198); Qancha tuya zaru zavar yuklab, necha xizmatkorlarni hamroh qilib, davlatidan qancha bahodirlarni qoʻshib... otasi, bir soʻz aytib turibdi (125)*. Ushbu matnlardagi *zar, zarin, zar-zavar* soʻz va birikmalari asosidagi *zar* soʻzi aslida forscha soʻz boʻlib, oltin, tilla, pul va, umuman, katta boylik maʼnosini ifodalaydi. Poʻta – oltin yoki kumush suvi yuritilgan, zarlangan ipak matodan tayyorlangan kiyim. *Zarrin poʻtam* birikmasi bel qismi bogʻlanadigan va belbogʻ vazifasini bajaradigan pishiq ipakli matoga nisbatan qoʻllanilgan va xalq dostonlari tilida juda faol uchraydi.

Xullas, rang-tus bildiruvchi sifat soʻzlar “Zevaxon”da epik qahramon nutqining ifodali, obrazli va taʼsirchan boʻlishini, matnda ohangdorlikni taʼminlashga xizmat qilgan.

Ish-harakat va holatning belgisini ifodalovchi soʻzlar “Zevaxon” dostoni tilida matnda holat, oʻrin, maqsad, daraja-miqdor maʼnolarini ifodalab kelgan. Ulardan ayrimlarini tahlil davomida kuzatamiz:

1) muayyan harakatning birgalikda bajarilishi maʼnosi: *Qirq qaroqchi oʻgʻri bunda jam boʻlib // Hammasi oʻrtaga qizni oladi (164); Qiz qirq gazandaning qoʻliga tushdi, // Bir-birlari bilan rosa tortishdi (164)*.

2) ish-harakatning bajarilish oʻrni maʼnosi: *Podsho kelsin dedi, soʻngra bu odamlarga qaray berasizlar,— deb ichkariga olib kirib ketdi (143); Bu mevadan hech kim totolmas edi. Odam nasliga taqdir qilmas edi. Shunda qaysi daraxtga yaqin borsa, Zevardan hazar qilib, nari turdi, mevasidan oldirmadi(183); Har*

yoqdan darvozaga mirshab, shabgir, dahaboshi, qo'rboshi, darvozonlar qo'ydi (170). Namuna sifatida berilgan matnlarning oxirgisidagi *har yoqdan* so'zi "tegishli, belgilangan tomon, makon" ma'nolarini ifodalagan, har yoqdan so'zida sinonimik qatorni hosil qilgan: har yoqdan→xilma-xil, turli makon→muayyan o'rin kabi.

3) harakat uzunasiga qarab emas, balki ikki tomon bo'ylab bajarilishi ma'nosi: *Ot chopib o'ng-u so'lga // Xabar ketdi necha elga* (198); *Oralab ketgan jing'ilga // Maymun chopar o'ng-u so'lga* (182); *O'ngu so'lga Zavar suzub qaradi, // Mamlakatni suv bosganday bo'ladi* (151). Ushbu matnlarda qo'llanilgan *o'ng-u so'lga* so'zi esa doston ijrochisining fikrini ta'kidlab, yanada kuchaytirib ifodalashga xizmat qilgan.

4) ish-harakatning bajarilish paytidagi xavotirlik, ogohlik, ogohlantirish ma'nosi: *Musofirmiz, begim, shahri Shamshodda, // Bundayin yotmagin sen ham g'aflatda. // Tura kelib bedor bo'lgin, albatta, // G'aflat olib bunday uxlab yotmagin, // Har kimsaga sen siringni aytmagin* (152-153).

5) ish-harakatning yuzaga kelish payti ma'nosi: *Bari, endi seniki bo'ldi, biz hech nima deyolmaymiz, deb kelsa tuya ham yo'q, boyagi qiz ham yo'q* (166); *Kunlardan bir kun qirqta qalandar kelib, darvozadan kirgan hamonda haligi suratni ko'rib, "Shul!"— deb urinib yotibdi* (170); *Istambul darvozasidan kirib bordi. Boyagi suratni ko'rib, ongi kirib qoldi* (174); *Darvozaga tortilgan Malikai Xubonning suratini ko'rdi. Ko'rib aylanib qoldi. Haligi suratga qarab bu so'zlarni aytayapti...* (187). Ushbu matnlardagi *haligi, boyagi* so'zlari sinonimik hodisasini yuzaga keltirgan. Doston matnining bir o'rnida izoh sifatida berilgan *boyagi* so'zi *bog'anigi* tarzida qo'llangan: *Maymun chopar o'ng-u so'lga, // Bog'anigi yigit bormi?*(182).

"Zavarxon" dostoni tilidagi ish-harakatning yuzaga kelish payti ma'nosini bildiruvchi leksemalar ancha faol qo'llangan. Masalan: *Podsho bo'lib taxt ustiga turgan so'ng, // – Zamon shahanshohi,— dedi chaqirdi, // Shahanshohi yangidan podsho bo'ldi* (170); *Bir palla uyqu oldi, bu uxlab qoldi. Tuyaning bo'yni ostida*

(159); *Ko‘p yo‘lga uzoqlab ketdi yoy o‘qi, // Bir palla to‘pillab bir joyga tushdi* (165); *Makka Madinadan keldim, // Uchradim shu zamon senga!* (121); *Bir zamon ko‘rmasam oromim yo‘qdir, // Yusufi kan‘onim mendan ayrilma!* (127); *O‘lim haqdi navbat yetdi bu zamon, // Qo‘lim bog‘li armon bilan o‘ldim man* (129); *Uyasida turib bul zamon ul qush, // Sirtmoq bo‘yniga tushib qolibdi. // Shu zamonda Semurg‘ xayoli qochdi, // Parvoz qip Semurg‘ havoga uchdi* (133); *Bunday savdolarni falak solibdi; // Hozir aql-u hushim tangrim olibdi* (136); *Poshshomizga borib beraylik xabar, // Hozir endi darvozaga eltayik, // Sizni qo‘yib, shoh qoshiga yetayik* (141); *Malik shoh ham mendan umid qiladi, // Kunduz emas, oqshom ketsam bo‘ladi* (155); *Oqshom yotib, erta-mertan tong otdi* (175); *Oradan bir kam qirq kun o‘tdi. Ertan bularning o‘ladigan kuni, deb turibdi* (145) kabi. Ish-harakatning yuzaga kelish payti ma‘nosini ifodalovchi so‘zlar ishtirok etgan matnlardan xohlagancha keltirish imkoniyati bor, albatta. Biroq biz qayd etilganlar bilan cheklanamiz va bu o‘rinda ular bilan bog‘liq muayyan kuzatishlarimizni bayon etamiz.

“Zevarxon” dostoni tilida *hozir, boyagi, haligi, bog‘onag‘i, yangi, yangitdan* so‘zlari sinonimik qatorni tashkil qiladi: *hozir* “kitobiylik, ommaboplik, ifoda” ma‘nosida, *boyagi, haligi, bog‘onag‘i, yangi, yangitda, boshqa* “dostonlar tiliga xoslik” ma‘nosida, “qipchoq shevasiga moslik” holatida ko‘proq qo‘llanishi kuzatildi. Bularidan tashqari, takrorlanayotgan so‘zlarning ma‘nosida qisman farq mavjud. Masalan, *hozir* so‘zi epik qahramon nutqi so‘zlanib turgan paytning o‘zida, *yangi* so‘zi nutq so‘zlanib turgan paytdan salgina oldin, *boyagi, haligi, bog‘anag‘i* epik qahramonning nutqidan yoki nutq so‘zlanayotgan paytdan birmuncha oldin kabi ma‘nolarni ifodalashga xizmat qilgan. Yanada aniqroq aytsak, *yangi, yangitadan* ham *boya, boyagi, haligi, bog‘anag‘idan* ham qandaydir daqiqalar orasida farq qiladi, ya‘ni ish-harakatning yuzaga kelish payti ma‘nosi epik qahramon nutqi jarayonidan uzoqlashmaganligini ko‘rsatadi. Keltirilgan matnlardagi *yangi, yangitda, bir palla, shu zamon, bir zamon, hozir, oqshom, ertan (ertan-mertan)* kabi so‘zlarning qo‘llanishida ham birmuncha farq bor. Masalan, *bir palla, shul zamon, yangi, yangitdan* kabilar hozirni, ya‘ni epik qahramon nutqi

soʻzlangan jarayonni, ish-harakatning yuzaga kelish payti maʼnosini ifodalaydi. *Bir zamon, ertan (ertan-mertan)* kabilar esa nutq soʻzlanib turgan paytdan oldin yoki keyin kabi maʼnolarni bildirib kelishga xizmat qilgan.

6) ish-harakatning miqdoriy sifati, darajasi maʼnosi: *Burilib Chorvoqqa borayin desa, // Dushman bor deb ancha gʻamgin boʻladi // Zevar xafa, yuragini boy bergan. // Bu Chorvoqqa ancha seskanib turgan (132); Ota-enam bilib qolar, deb Malikai Xubon ularning yotuviga qarab ancha hayallab qoldi (158-159); Gadoylarga saxovatli, // Miskinlarga adolatli, // Haq yoʻlida karomatli, // Xoʻp shayxlar, xush qol endi! (126); Bobo endi xoʻp sharmanda boʻladi. // Chinorning shohida tayin oʻladi (134); Har gap boʻlsa sening oʻzing bilasan, // Bogʻdod borsang xoʻp hikoya qilasan. // Oʻlmasang oxiri omon borasan (157)* kabi. Bu matnlarda ancha soʻzi ish-harakatning miqdoriy sifatiga tegishli maʼnoni, xoʻp soʻzi esa “nihoyat darajada”, “rosa” maʼnolarini taʼkidlashga xizmat qilgan.

7) “faqat”, “nuqul” maʼnosi: *Zevar qochib yoʻlga kirdi. // Boradi Zevar moʻralab, // Satta daraxtni oralab... (182).*

8) “juda”, “takror”, “umid”, “rosa”, “toʻliq” maʼnolari: *Sabil qilib keldim toza gavharim. // Zolimlar qoʻlida zabundir holim (129); Erta bilan tong otdi. Qirq kun muhlat toza bitdi (146); Gulgun kiyib kelgin yana qoshima, // Xamoyilday soya solgin boshima (122); Semurgʻ aylanib havoda turar, // Yana qaytib kelib uyaga qoʻnar (134); Senda Semurgʻ nima qiladi? Tagʻin bizning podshoyimizning Semurgʻini oʻgʻirlab olgan boʻlmasin? (138); — Bobo aqlingni yitirma, bizlar u mamlakatga ham borarmiz, Semurgʻni tagʻin topib olarmiz! (138).* Namuna sifatida keltirilgan matnlardagi *yana*, *tagʻin* soʻzlari sinonimik qator hosil qilib, *yana* “kitobiylik”, “ommaboplik”, “zamonaviylik” ifoda maʼnosida qoʻllansa, *tagʻin* (*tagʻin*) “qipchoq shevasi” va “soʻzlashuv nutqiga xoslik”, “yangilik”, “doston tiliga moslik” maʼnosida koʻp qoʻllanadi.

Xullas, ish-harakat va holatning belgisini bildirib keladigan soʻzlar, yaʼni ravishlar doston matnida holat, oʻrin, maqsad, daraja-miqdor maʼnolarini ifodalashga xizmat qilgan.

2.3-§. Miqdor va sanoq tushunchalarini ifodalovchi va ishora bildiruvchi soʻzlar

Miqdor va sanoq tushunchalarini ifodalovchi soʻzlar son soʻz turkumi nomi bilan yuritiladi. Sonlar oʻzining bir qator xususiyatlari bilan otdan farqlanadi: a) son maʼnan mavhum xususiyatga ega boʻlib, predmetning son va miqdorini ifodalaydi; b) sonlar koʻplikni qabul qilmaydi, agar bordi-yu qabul qilgan taqdirda, u otlashadi; v) sonlar oʻzidan oldin aniqlovchini qabul qilmaydi. Ayni lisoniy meʼyorlar oʻzbek adabiy tilida va xalq dostonlari tilida ham deyarlik bir xil darajada.

“Zevarxon” dostoni tilidagi sanoq va miqdor tushunchalarni ifodalovchi soʻzlarning lisoniy tabiatini oʻrganish natijasida bir qator fikr-mulohazalarga keldik. Ularning ayrimlarini bu oʻrinda bayon qilamiz.

Bir sanoq soni doston tilida 218 marta qoʻllangan. Masalan: “*Tuyani bir minib koʻrayin*”, *deb dunyoni bir aylandi* (121); *Bir necha nomardga koʻngil bermagin*, // *Koʻp yashagin, koʻp yilgacha oʻlmagin* (133) kabi. Doston matnida *bir* soni oʻrnida *yolgʻiz, yakka, toq* soʻzlarining qoʻllanilishi *bir oʻzi, tanho* maʼnolarini ifodalab kelishga sabab boʻlgan: *Arqiragan erday boʻlib*, // *Yolgʻiz oʻzim sherday boʻlib* (162); *Sen kelibsan oʻzi yolgʻiz qoldimi*, // *Yo boʻlmasa paymonasi toʻldimi?* (174) kabi.

Doston tilidagi ikki soni oʻrnida baxshining ijrosidagi matn talabi bilan *qoʻsha* soʻzi sinonim sifatida ishlatilgan: *Itboshining qizi bilan*, // *Qoʻsha qarib oʻynab-kulsin* (181); ikki soni doston matnida 21 marta qoʻllangan.

“Zevarxon” dostonida sonlar orasida *bir* nihoyatda mahsuldor leksik birlik sifatida qoʻllangan. U birikib kelgan soʻzlarni matn tarkibidan tanlab olish va oʻziga xos lisoniy xususiyatlarini tekshirish doston ijrosidagi baxshining uslubini belgilanishida ushbu sonning ishtirokini aniqlashga har bir tadqiqotchi uchun birmuncha imkoniyat beradi. *Bir* soʻzi alohida qoʻllanilganda sonlik maʼnosidan tashqari, yana quyidagi maʼnolarni ham ifodalaydi:

-ma'no kuchaytirish: Bir ish boshlab ketma bundan yo'q bo'lib, // Bir gapimni olgin, xonim, ayrilma! (127); Shu zamon o'rningdan turgin, // Bir bo'lak ishlarni qilgin (139) kabi.

- ta'kidlash: Ko'z yugurtib Zevar bo'ylab qaradi, // Bir tarafda bir Chorvoqni ko'radi (132); Borib ko'rsa, bir xushbahor go'zal joy ekan (128); Bir ajoyib urush bo'lsin, // Tomosho ko'rgin, Zevarxon (162) kabi.

-taxmin: Uning yo'lida tilsimot — duo bilan bir-biriga to'qishib turgan har bir tog'lar bor (143); Jo'natib albatta bir narsani muhlat qilaman (144); Bir yerdan xudo yo'l berar, bir harakat qilaylik (161) kabi.

-ajratib ko'rsatish: Hech nimani olmagandan so'ng Zevarga bir xurjun tillo berdi (151); Bir ko'rinib judo bo'lgan, // Pari-paykar sanam qani? (166) kabi. Ushbu matnning ikkinchi misolidagi ma'noni bitta so'zi ifodalagan, dostonda bir marta qo'llangan: Yorim menga yo'liqqanda. // Minib yurgan bitta tuya (131) kabi.

“Zevarxon” tilida bir so'z birikmasi juda faol uchraydi va bu doston ijrochisi ya'ni baxshining epik bayoniga mos lisoniy xodisa sanaladi. Masalan, bir so'z aytdi, bir so'z aytayapti, bir so'z aytib turgan ekan, bir so'z so'rayapti, bir so'z so'rayotir kabi. Ba'zi hollarda bir-ikki so'z aytibdi, bir-ikki so'z aytayotir kabi matnlar ham uchraydi.

Bulardan tashqari, dostonda 27 marta qo'llangan birga so'zida hamkorlik, birga-birga, birdayda tenglik, yonma-yonlik; birdanda favqulodda, kutilmagan; birovi, birovingada ajratish; birovnida taxmin, gumonsirash kabi ma'no ottenkalarini ifodalashga xizmat qilgan o'rinlar uchraydi.

Doston matnida ikki so'zi 21 marta qo'llangan bo'lsa-da, alohidalik va syujet voqea tafsilotlariga uyg'unlik, shuningdek, epik qahramonlar faoliyati va hattiharakatlariga taalluqlilik seziladi; To'rt qildi boboning ikki ko'zini, // Tortib olib Semurg'ning o'zini (138); Pastlikda ikki tog' ikki yoqdan kelib, urib mayda-mayda bo'lib ketadi (143); Ko'rinmay ketguncha qarab turibdi. // Ikki tabib umri oxir bo'libdi (145); Siyosatman qonxo'r jallod haydadi, // Tabiblarning ikki qo'lin boyladi (147) kabi.

Doston tiliga *ikkiga* soʻzi bor-yoʻgʻi bir martagina qoʻllangan va matnda *boʻlinish* maʼnosini ifodalagan: *Daryo ikkiga boʻlinib ketganda Hasan vazir Istanbul tarafga qarab ketgan ekan (174)*. 16 marta qoʻllangan *ikkovi*, *ikkovimiz*, *ikkovlari* kabi soʻzlari dostonda birga, birgalikda maʼnolarini ifodalagan: *Bu soʻzlarni soʻylab, ikkovi nima qilamiz, deb oʻylab, parlarini silab oʻltiruvdi (137)*; *Yigʻlay bersang, bobo, boʻlasan nodon. // Ikkovimiz ham choʻlda bir sargardon (138)*; *Zevarxon bilan Hasanxon ikkovlari shuncha mol-dunyo bilan Bogʻdoddan chiqib joʻnayberdi (125-126)* kabi.

Uch soʻzi doston matnida 10 marta qoʻllangan. Uning alohida qoʻllanganda sonlik maʼnosidan tashqari, yana quyidagi maʼno ottenkalarini ifodalagan:

-vaqt hisobi: *Uch kungacha ikkovidan boʻlak odam boʻlmadi. Uch kun oradan oʻtdi (196)*; *Uch kungacha bundan xabar olmaydi (194)*; *Aytgan soʻzim endi barin anglanglar, // Uch kungacha bunda sira turmanglar (193)*; *Oʻz saroyiga kirib uch kun oradan oʻtdi. Zevarxon suv ichmadi, ovqat yemadi (124)* kabi.

- miqdor: *Uch ming kuchuk bu chinorni aylanib, // Chinorga tarmashib, hamla qiladi. // Uch ming kuchuk bari huradi (185)*; *Uch ming kuchuk tenglib quvib keladi, // – Oʻldim,— dedi Zevar qochib boradi, // Keyindan kuchuklar quvib keladi (185)*; *Uch ming kuchukdan qutulgan, // Piyoda yoʻlda Zevarxon (187)* kabi.

Toʻrt soʻzi doston tilida bor-yoʻgʻi 2 martagina qoʻllangan. Matnda uning sonlik maʼnosidan tashqari intiqlik: *Dod aylasa eshitmadi soʻzini, // Toʻrt qildi boboning ikki koʻzini (138)*; *shuningdek, bezovtalik: Toʻrt boʻp qoldi ikki koʻzim, // Qoʻldan ketdi sarvinozim (160)* kabi maʼnolarni ifodalaganligini kuzatamiz. Doston tilida *toʻrt* va *besh* sonlarining qoʻshilib kelishi matnda sonlik maʼnolaridan tashqari yana muayyan vaqt hisobi maʼnosini ifodalashga xizmat qilgan: *Toʻrt-besh kun yurgandan keyin ular bilan omonlashib bir soʻz aytib turibdi (126)* kabi.

Besh soʻzi matnda bir marta qoʻllangan. Matnda uning sonlik maʼnosidan tashqari yana maʼnoni kuchaytirish maqsadida muayyan miqdorni taʼkidlash uchun xizmat qilgan: *Bobo Saqqo ham yigirma besh yashar yigit boʻldi (149)* kabi.

Doston tilida olti soni uchramadi. *Yetti* soni 2 marta qo‘llangan, xolos: *Yetti marta Ka’ba bordim, // Yo‘llarida jafo ko‘rdim (121)*. Ushbu son matnda sonlik ma’nosidan tashqari, bir o‘rinda, doston ijrosi talabi bilan je-lovchi shevasida muayyan o‘ringa *yetmoq, yaqinlashmoq* ma’nosida ham qo‘llanilgan: *Daryoga sololmas otni, // Qamab dushman tagi yetti (163)*.

Sakkiz, to‘qqiz sonlari doston tilida qo‘llanilmagan. *O‘n* soni esa 9 martagina ishlatilgan, ularning hammasida miqdor tushunchasi ifodalangan: *Erkaklari ham yetishib, ayollarning ishlariga dimog‘lari chog‘ bo‘lib, o‘t yoqib, o‘n mahramni o‘tga tashlab pishira boshladi (129); Zevarxon o‘n mahrami bilan ov ovlamoq bo‘lib ayrilib ketdi (127); O‘n mahram bilan Hasanxonning nasihatini qabul qilmay o‘ttiz-qirq kun deganda bir chorvoqqa yetishdi (128)* kabi. Doston tilida *o‘n* soniga *bir* soni qo‘shilishidan hosil bo‘lgan *o‘n bir* so‘z birikmasi ham uchradi, ularda ham miqdor tushunchasi ustuvorlik qilgan: *O‘n bir ot o‘tlab yuruvdi. Bari otlarni ushlab sarhavuzning bo‘yiga bordi. O‘n bir odam uxlab yotibdi (128)* kabi.

Qirq soni doston matnida boshqa sonlarga nisbatan ancha – 29 marta qo‘llangan. Bu xalq og‘zaki ijodida, xususan, xalq dostonlari va ertaklarida ko‘p qo‘llaniladigan *qirq* sonining ramziylik va an’anaviylik xususiyati bilan bog‘liq. Masalan, *qirq yigit, qirq azamat, qirq chilton, qirq tuya, qirq pari, qirq kun, qirq o‘g‘ri, qirq kecha-kunduz, qirq qalandar* va h.k. “Zevarxon” dostoni matnida ham ushbu birikmalarning ko‘pchiligi syujetning epik bayonini tavsiflashda ishlatilgan: *Qirq mahram bilan Hasanxon bosh bo‘lib, izma-iz kelib, Zevarxonning ahvolini ko‘rib bu g‘azalni o‘qidi (123); Shul vaqtda Sa’dulla kalga har yerni, cho‘lni bosib olib yurgan qirq qaroqchi yo‘liqib, o‘rab ushlab oldi (164); Qirq qalandar yetib bordi qoshiga, // Hayron qoldi bu podshoning ishiga (171); Kelayotib qirq o‘g‘rining qo‘liga tushdim. Ul o‘g‘rilar meni quduqqa soldi (191); – Sizlar nimaga so‘ramasdan qirq kishini zindonga soldi, degansizlar,— deb bir so‘z aytayapti (188)* kabi. Bunday misollarni yana ko‘plab keltirish mumkin, albatta. Gap ularning sonida va qancha marta qo‘llanishi emas. Doston tilidagi *qirq* so‘zi bilan bog‘liq matnlarni ko‘zdan kechirar ekanmiz, ularda chegaralash, ajratish,

ta'kidlash, tasodif, muayyan tomonga yo'nalganlik, vaqt, miqdor kabi ma'no ottenkalar ifodalanganlikni kuzatdik. Shulardan ayrimlarini namuna sifatida keltiramiz: *Bu uchar qush g'ayratini ko'rsatib, // Qirq kecha, qirq kunduz havoda uchdi (152); Shohim, qarab, bo'lib turgin xabardor. // Qirq kunda yetib kelar jonivor, // Tayrilmasa boshda toji davlatim // Qirq kun bo'ldi mening aytgan muhlatim. // Qirq kunda Semurg'im kelmasa, // Shohim, meni dorda turar jasadim. (145); Oradan bir kam qirq kun o'tdi. Ertan bularning o'ladigan kuni, deb turibdi (145)* kabi. Ko'ramizki, avvalgi va keyingi keltirilgan misollar matnidagi *qirq* so'zining qo'llanishida aniq bir raqamni ifodalashdan ko'ra folklor asarlariga xos an'anaviy ifoda va shartlilik ko'zga tashlanib turadi.

Doston tilida o'nlik sonlar ichida *ellik, yetmish, sakson* sonlari umuman qo'llanilmagan. *Oltmish* so'zi matnda 2 marta, *to'qson* so'zi 1 marta, *yuz* so'zi esa 4 marta ishlatilgan, xolos. Masalan: vaqt hisobi: *Boyagi to'ti aytdi: Shamshod shahri oltmish yillik yo'l keladi (129); yil, yosh hisobi: Itboshining qizi to'qsonga kirib, bo'yi yetib barkamol bo'lib o'ltirgan edi (180); miqdor, hajm: Podshosi Malik shoh menga tegadi, deb har kuni yuz tanga nafaqa berar edi (120); afsuslanish: Shu ahvolda o'lib ketsam, yaratgan, // Ketar yuragimda meni yuz armon! (178)* kabi ma'no ottenkalarini farqlashga xizmat qilgan. Ko'ramizki, birinchi va oxirgi misollarda yil, armon kabi otlar, ikkinchi misolda *kirmoq* fe'li, uchinchi misolda *tanga* kabi numerativlar bilan birgalikda qo'llangan.

Doston matnida *ming* ham 9 marta qo'llangan. Uning deyarlik yarmi, ya'ni 4 tasini *uch ming* birikmasi tashkil etadi va bu birikma musofirchilikda yurgan bir mo'ysafid kishining Zevarxonni begona shahardan zudlik bilan chiqib ketish zarurligi haqidagi ogohlantirishidan so'ng, Zevarxonning faoliyati va xatti-harakatlarining epik bayonida keltiriladi: *Bu shahardan Zevar chiqib dalaga, // Shunday burilib Zevar keyin qaradi, // Uch ming kuchuk tenglib quvib keladi (185); Ko'p kuchukdan ketdi aqli shoshib, // Chinorning ustiga o'zin oladi, // Uch ming kuchuk bu chinorni aylanib, // Chinorga tarmashib, hamla qiladi. // Uch ming kuchuk bari huradi (185); Uch ming kuchukdan qutulgan, // Piyoda yo'lda Zevarxon (187)* kabi. Bu misollardagi *uch ming kuchuk* birikmalari aslida

son+son+ot tarzida voqealangan. Quyidagi misolda esa sonning *tilla* numerativi bilan birikib kelishi matnda *sovg'a, hadya* ma'no ottenkasini ifodalashga xizmat qilgan: *Ularni ko'p ziyofat qildi, ikki ming tilla berdi (153)*; Quyidagi matnlarda *son+son+ot* tarzidagi birikmalar matnda "*masofa*", "*yo'l*" ma'nolarini ifodalagan: *Orasida bir ming yillik yo'li bor, // Xizmat qilib borib kelgin jonivor! (144)*; *Va'dasiga vafo qilib, // Qirq kunda keldi yetib (148)*; *Har parlaridan ter quyiladi, ming yillik yo'lga borib-kelish eson emas (149)* kabi.

"Zevaxon" dostoni tilida qo'llangan sonlar bo'yicha shunday qisqacha xulosaga kelish mumkin: ular orasida *bir, uch, qirq, ming* elementlari ancha faol qo'llangan. *Bir* so'zining dostonidagi semantik-stilistik imkoniyatlari ancha keng, *qirq, ming* singari elementlarning doston matnidagi qo'llanishida shartlilik va an'anaviylik mavjud. Bulardan tashqari, *uch, to'rt, besh, yetti* sonlari juda kam darajada qo'llangan, *olti, sakkiz, to'qqiz* so'zlari dostonida mutlaqo qo'llanmagan.

Dona son ham doston tilida uchraydi: *Axir yo'llar bo'lib qiyo, // Yorim menga yo'liqqanda. // Minib yurgan bitta tuya (131)*; *Qirqta shogirdi bor edi (120)*; *Hech kim bilmas bu podshohning ishini, // Tor zindonga soldi qirqta kishini (171)* kabi. Doston tilida *bitta* soni 1 marta, *qirqta* soni 3 marta qo'llanilgan.

Tartib sonlar *birinchi* sonining ma'nosi doston tilida *avval* so'zi orqali sinonimik holda ishlatilgan: *Yoyim o'qin qaysing ilgari olsang, // Avval yetib olganingman bo'layin (165)*; *Abjillikman avval borib olgandi, // Bachchag'arning yo'li bo'lib qolgandi (166)*; *Shu yoyning o'qini qaysing avval olsang, shunga tegaman,— dedi (191)*.

"Zevaxon" dostonida jamlovchi son qo'shimchalari *-ov, -ala, -ovlon*, asosan, yettigacha bo'lgan sonlarga qo'shib qo'llanilgan: *Hasanxonday birodarim bor edi, // Ikkov birga kelib daryoga tushdik, // Sol bo'linib ul daryoda adashdik (193)*; *Qarasa, tuyani ushlab birov uxlab yotibdi (159)*; *Podshosidan birov so'rab bilmaydi (172)*. Namuna sifatida berilgan ushbu matnlarda jamlovchi sonlardan miqdor-leksik ma'no susayib, o'rnini shaxs ma'nosi egallaganligini kuzatamiz.

Bu o'rinda yana bir lisoniy holatni ta'kidlaymiz: predmetning noaniq miqdorini, taxminiy hisobni bildiradigan chama sonlar, shuningdek, *oshgan*,

yanashgan, ortiq, yaqin kabi soʻzlar yordamida ham chama maʼnosi yasaladigan namunalarni “Zevarxon” dostoni matnida uchratmadik. Dostondagi *bir* soʻzining xilma-xil maʼnolari haqida bizning fikr-mulohazalarimiz, asosan, quyidagilardan iborat:

1. “Sanoq son” maʼnosi: *Shamshod shahrida Zargari Gʻolib degan bir kishi bor edi (120); Jonim oldi shirin soʻzli bir pari (124).*

2. “Taʼkidlash” maʼnosi: *Hasanxonni bosh qilib, necha mahramlar bilan Zevarxonni yoʻldosh qilib, otasi, bir soʻz aytib turibdi (125); Bir ish boshlab ketma bundan yoʻq boʻlib, // Bir gapimni olgin, xonim, ayrilma! (127).*

3. “Inkor” maʼnosi: *Bir gap bilan oshno-yordan, // Begona boʻldim, bobojon! (147); Bir ariq boʻyida uxlab qolibsana, // Uyqu gʻaflatiga duchor boʻlibsana (153).*

4. “Gumon”, “umid” maʼnosi: *Yon-yoqda alanglab qarayapti, bir necha beklar, «Bir narsa topdingmi?» – deb soʻrayapti (141); Boʻlgan ishni joʻrangizga bildirsangiz bir tayin yerda boʻlib turadi,— dedi (158); Malik shoh, “menga tegadi”, deb umid qilib, unga nafaqa berib turgan (160).*

5. “Kuchaytirish” maʼnosi: *Shaharga kirgizib, bir saroyni boʻshatib berdilar, Shamshod shahriga ovoza boʻldi. “Bir yosh sohibjamol savdogar kelibdi”,- deb barcha odamlar kelaberdi (153); Bir yerdan xudo yoʻl berar, bir harakat qilaylik (161).*

6. “Faqat, yolgʻiz” maʼnosi: *Saʼdulla kal degan bir shabgir bor edi (159); – Bul bizning barimizga tegami? Olganda birimiz olamiz-da (165); Bir odam ketibdi daryoga tushib, // Yoʻl bilmaydi, ketgan bizdan adashib (176).*

7. “Noaniqlik” maʼnosi: *Kezayik ushbu dunyoni, // Bir koʻringan jonon qani? // Bir koʻrinib judo boʻlgan, // Pari-paykar sanam qani? (166); Tirik boʻlsa bir kun kelar qoshima (175).*

8. “Sanash va ketma-ketlik” maʼnosi: *Bular ovdan qaytib dasht yerda kelayotsa bir chol, bir yigit bir Semurgʻni ushlab oʻtiribdi (137); Yaradori otdan ovib, // Nechovlar jazosin tovib, // Bir nechalar qulab qoldi (162).*

9. “Hayronlik”, “ajablanarli” maʼnosi: *Holing bilmay bir ish boshlab kelasan. // Shunday asl qiz sening tengingmi? (164).*

10. “Shart, sinov” ma’nosi: *Mening bir shartim bor, shuni qilayin, // Men ham endi yoyini tortib ko‘rayin (165); Bir bois begona bo‘ldi qismatim, // Chinmochin shahrida hukm-farmonim (179).*

11. “Bechora”, “mehnatkash” ma’nosi: *Horib-charchab bittasi yetishdi. // O‘zgasi charchadi, yo‘llarda qoldi. // Bir sho‘rlik opqochib quduqqa tushdi, // O‘z oyog‘i bilan jonon yetishdi (165); Endi bo‘ldim bir parcha non gadoyi (179).*

12. Ravishdosh, fe‘l oldidan kelganda, harakatning miqdorini, harakatdan anglashilgan ma’noni kuchaytiradi: *Zevarxon aytdi:— Agar bir Semurg‘ bo‘lganda olib kelar edi (143) kabi.*

“Zevarxon” dostoni tilidagi *bir* so‘zining matndagi semantik va stilistik ma’nolarini izohlashni yuqoridagi kuzatishlarimiz orqali cheklaymiz. *Bir* so‘ziga qo‘shimchalar qo‘shilganida qanday ma’nolarni ifodalashi haqidagi ma’lumotlarni keltirish bilan bu boradagi mulohazalarimizni yakunlashni lozim topdik. Binobarin, *bir* so‘ziga qo‘shimchalar qo‘shilganida matn tarkibida quyidagi ma’nolar ifodalanadi:

1. *Bir* so‘ziga -ga qo‘shimchasi qo‘shilsa, matnda muayyan harakatning birdan ortiq epik qahramonlar tomonidan birgalikda, hamkorlikda bajarilganligini ifodalaydi: *Pari sifat mening ismim Xiromon, // Birga ketsam qolmas tanimda armon (155); Sening bilan birga bo‘lib yotaman, // Malikani birga olib ketaman (156) kabi.*

2. *Bir* so‘ziga -ov qo‘shimchasi qo‘shilganida matnda gumon ma’nosi voqealanadi: *Buning ko‘zi yo‘l bilan ko‘shkning ostiga tushib qoldi. Qarasa, tuyani ushlab birov uxlab yotibdi (159); Nima gunoh qilgan, hech kim bilmaydi, // Podshosidan birov so‘rab bilmaydi, // Sipohiyalar bari hayron qoladi (172) kabi.*

3. *Bir* so‘ziga -day qo‘shimchasi qo‘shilganida matnda faqat, barobar, aynan, bir xil degan ma’nolar hosil qilinadi: *Senam agar talab qilsang, // Mening bilan birday bo‘lib, // Qilich olaman qo‘lima (162) kabi.*

4. *Bir* so‘ziga -or qo‘shimchasi qo‘shilganida “qandaydir bir” ma’nosi anglashiladi. Masalan: *Biror kecha qo‘nib o‘char yer bormi? (164); So‘ramaysan sen, amaldor, holimni, // Biror odam chog‘ishtirgan o‘g‘limni (181) kabi.*

“Zevaxon” dostoni tilida predmetning son miqdorini ifodalovchi soʻzlar, yaʼni sanoq son bilan predmet oʻrtasida qoʻllanadigan maxsus soʻzlar guruhi (numerativlar) ancha faol qoʻllanganligi aniqlandi. Bu tipdagi soʻzlarni quyidagi guruhlarga ajratishni lozim topdik:

1. **Butunning, toʻdaning bir qismini koʻrsatish uchun qoʻllanilgan numerativ soʻzlar** (*boʻlak, parcha, ogʻiz kabi*). Masalan: *Shu zamon oʻrningdan turgin, // Bir boʻlak ishlarni qilgin (139)*. Matndagi *boʻlak* soʻzi dostonning boshqa oʻrinlarida omonimik qatorni hosil qilgan: *Xayolingga boʻlak gaplar keldimi? // Yo boʻlmasa boʻlak ahmoq qildimi? (135); Kal ekandir, oʻzi yurgan sharmanda, // Boʻlak oʻzi yotsin yolgʻiz zindonda! (172)*. “Zevaxon” dostonidan olingan quyidagi matnlarda *parcha, ogʻiz* kabi numerativ soʻzlar ham butunning yoki toʻdaning bir qismini koʻrsatishga xizmat qilgan. Masalan: *Endi boʻldim bir parcha non gadoyi (179); Qatorga tirkaldi loʻk bilan norcha, // Ustiga yukladi qirmizi parcha (156); Zevaxon nima qilarini bilmay bir-ikki ogʻiz soʻz aytib turgan ekan (180);*

2. **Yosh hisobi uchun qoʻllanilgan numerativ soʻzlar:** Bu tipdagi soʻzlarning ayrimlari epik qahramonlar uchun, yana bir boshqalari hayvon va oʻsimliklar uchun ishlatilganligini kuzatamiz. Masalan: *Qancha ishni oʻn yosh ham boʻlsam oʻtkazib, // Boshimga koʻp ogʻir xizmat yetkazib, // Oʻn yosh ham boʻlsam, bobo, aytay nasihat, // Jabr koʻrdim menda qolmadi toqat (139); “Bir yosh sohibjamol savdogar kelibdi”, – deb barcha odamlar kelaberdi (153); Necha kun, necha oy zindonda yotsin, // Oʻlgancha tiriklay azobin tortsin (172) kabi.*

3. **Vaqt oʻlchovi uchun ishlatilgan numerativ soʻzlar:** *Oradan bir kam qirq kun oʻtdi (145); Erta bilan tong otdi, // Qirq kun muhlat toza bitdi (146); Shamshod shahri oltmish yillik yoʻl keladi (129); Bu maxluqot xizmat qilib, // Ming yillik yoʻlni koʻrib, // Vaʼdasiga vafo qilib, qirq kunda keldi yetib (148)*. Doston matnida muayyan sutkaning boʻlaklarini ifodalovchi *kecha, kunduz* kabi numerativ soʻzlar ham vaqt oʻlchovi uchun ishlatilganligi kuzatildi: *Qirq kecha-yu qirq kunduz yoʻl yurib, bir bogʻli yerga yetdi (127); Bu uchar qush gʻayratini koʻrsatib, qirq kecha qirq kunduz havoda uchdi (152)*. Bulardan tashqari, *kecha, kunduz* kabi

soʻzlar koʻpincha feʼl va ravishga, baʼzan otga bogʻlanib, vaqt oʻlchovining kichik miqdorini ifodalab kelgan.

4. **Qiyamat hisobi uchun ishlatiladigan numerativ soʻzlar:** Masalan: *Podshosi Malik shoh menga tegadi, deb har kuni yuz tanga nafaqa berar edi (120); Necha beklar bilan sharob ichardim, // Inʼom berib, tanga-tilla sochardim (179); Ularni koʻp ziyofat qildi, ikki ming tilla berdi (153).*

5. **Taxminiy hisob uchun qoʻllanadigan numerativ soʻzlar:** “Zevarxon” dostoni tilida bunday soʻzlar ogʻirlik oʻlchovi emas, balki taxminiy hisobni koʻrsatishga xizmat qilgan. Masalan: *Topsang tan beraman qilgan ishingga, // Laʼli gavhar sochay sening boshingga (176); Menga ham bir kosa ber. Men ham ichayin (149);* Matnlar tarkibidagi *laʼli gavhar, kosa suv* soʻzlari predmetlarning joylashgan oʻrniga qarab hisobni koʻrsatgan. Quyidagi matnlarda esa predmetlarni tashuvchi vosita (*tuya*) nomi bilan oʻlchov ifodalangan: *Bir tuya mingan qizda ajoyib dilbar (124); Yorim menga yoʻliqqanda // Minib yurgan bitta tuya (131).*

“Zevarxon” dostoni tilida predmetning son miqdorini ifodalovchi soʻzlar, yaʼni sanoq son bilan predmet oʻrtasida qoʻllanadigan yana bir qator maxsus soʻzlar guruhi (numerativlar) uchradi, ular quyidagilardan iborat:

a) ogʻirlikni oʻlchash uchun ishlatiladigan numerativ soʻzlar (*pud, qadoq, chorak, botmon, dahsor, nonsor va h.k.*);

b) uzunlik oʻlchovi uchun ishlatiladigan numerativ soʻzlar (*quloch, qarich, tanob, tosh, qadam, chaqirim, gaz va h.k.*);

v) toʻdalab, guruhlab koʻrsatuvchi numerativ soʻzlar (*toʻda, gala, toʻp, dasta, baydoq, hovuch, bogʻ, toʻp, lak va h.k.*).

Xullas, doston tilidagi numerativlar, asosan, predmetning son miqdorini ifodalovchi soʻzlar, yaʼni sanoq son bilan predmet oʻrtasida qoʻllanadigan maxsus soʻzlar guruhi muayyan predmetning miqdoriy obrazini yuzaga keltirishda muhim lisoniy omil boʻla olgan.

Ishora bildiruvchi soʻzlar “Zevarxon” dostonida faol uchradi. Ularning hammasi bir-biridan farqlanib, xilma-xil uslubiy maqsadlarni birlik va koʻplik sonlarda ifodalash uchun xizmat qilgan.

“Zevaxon”da kishilik olmoshlari (men/man), *sen, u; siz, (biz, siz, ular)* dostonda bir qator uslubiy ma’nalarni ifodalagan:

a) epik qahramonning o‘z oilasi (ota-onasi, farzandlari, xotini kabi) yaqin qarindosh-urug‘lari, yor-birodarlari bilan samimiy o‘zaro hurmat muloqoti ma’nalari: *Qalandar aytdi: – Mendan so‘raguncha sen talabingni so‘ra... (120); Suvsiz qolding, jonim begim, // Beray suvi Ravon senga. // Qiyomatlik sen sevganim, // Fido bo‘lsin bu jon senga! (121); Seni ko‘rib meni bag‘rim ezildi, // Ey navqironim, holing na bo‘ldi? (123) kabi.*

b) epik qahramon nutqidagi sensirash, andishasizlik, tarbiyasizlik, mensimansizlik, dag‘allik kabi ma’nolar: *Sen sayrab berasan bizga, deb Zevarni tilla qafasga solib qo‘ydi (129); Sen qaraysan bunda suxsurday bo‘ylab, // Qaysi go‘rdan kelding bunda hay-haylab (133); Ular do‘qlab: – Bu Semurg‘ni sen qayoqdan topding?— dedi (137); Sen qariding qamchi urdi, // Ular ham manmanlik qildi (139); Sen keldingmi, benomus, gunohkor. // U so‘raydi sening nima ishing bor? // Kal ekandir, o‘zi yurgan sharmanda (172) kabi.*

v) epik qahramon nutqidagi o‘zaro hurmat, izzat-ikrom, mehribonlik va g‘amxo‘rlik ma’nalari: - *Sizlar tabibmi, mening tomirimni ko‘ringizlar! — dedi (143); Sizga Obihayotning suvi bo‘lsa shifo topasiz (143); Sizlar uchun podsho bizni yubordi, // Bildirib turibmiz Sizga xabardi (189); - Endi, mehmon, siz bilan gaplashayin,— deb, bir so‘z dedi: (191) kabi.*

g) epik qahramon nutqidagi *biz* olmoshi *men, sen, ular* ma’nosida, ya’ni uchala shaxs ma’nosida qo‘llangan. Masalan: *Och ko‘zingni, ko‘tar, xonim, boshingni // Biz so‘raymiz ko‘rgan kulfat ishingni (123); Biz kechayik bu yo‘llarda to‘p bo‘lib, // Dushmanlar yo‘liqsa yursak ko‘p bo‘lib (127); O‘qni olib kelsak, u qiz bizning yaxshi kiyimlarimizni kiyib, tuyasini minib ketib qolibdi (191).* Ko‘rinadiki, matnlarning birinchisida *men* va *sen* ma’nosi, ikkinchisida uchala shaxs ma’nosi, nihoyat, uchinchi matnda *men* va *u* ma’nosi ishlatilgan. Doston matnining ba’zi o‘rinlarida *men, sen* olmoshlarining *man, san* shakllari ham uchradi. Masalan: *Boshimga tushibdir qayg‘uli tuman, // Zolimlar qo‘lida g‘arib o‘ldim man (129); Manga kelib qo‘ndi bu davlat qushi (169); San ko‘nglingni shod*

aylagin // Dunyoni barbod aylagin (139); Qochgan qizni nima qilding, aytgin san? kabi.

d) epik qahramon nutqida tinglovchiga hurmat yuzasidan *men* olmoshi oʻrnida *biz* olmoshi ishlatilganida, xayrihohlik, kamtarlik maʼnolari yuzaga kelgan boʻladi. Masalan: “Biz u qizni hech nima qilganimiz yoʻq”, deb bir-biriga shivirlashayotir (190-191); Shunda boshini koʻtarib gunohkorlar: — Ey, podsho, boʻlgan voqeani bizdan soʻradingiz (191) kabi.

y) doston matnida kishilik olmoshlarining har uchala shaxs birliklariga joʻnalish kelishigi qoʻshimchasining (-ga) qoʻshilishi natijasida lisoniy oʻzgarish sodir boʻlgan. Bu xildagi oʻzgarishlari fonetik holatlarning qipchoq shevasiga xos (*men+ga, men+ge, san-gʻa, o+n+ga*), soʻngra murakkab metateza hodisasi yuzaga kelgan (*ma+gʻ+yen, sa+gʻ+an, o+gʻ+an* kabi). Bulardan tashqari dostonda III shaxs birlik koʻrsatkichi *ul, an* shaklida qoʻllanish holatlari ham uchraydi. Masalan: *Joyi Shamshod ul ham gulyuzli dilbar! (125); Ul nodon oʻzini bilsa, // Qari deb ul hurmat qilsa (139); Ani koʻrib larza tushdi tanda jon, // Oshiq boʻlib izlab kelgan mehribon! (155); Siru holim anga bayon aylasam, // Bu Shamshod shahrini orqa taylasam (155); Aslo qolmang, shohim, andan bexabar (142)* kabi.

Doston matnidagi koʻrsatish olmoshlari (*bu, shu, u, oʻsha* kabi) shaxs va narsa-buyumlarini koʻrsatish, taʼkidlash maʼnolarini ifodalashga xizmat qilib, kishilik olmoshlariga nisbatan mavhumligi bilan ajralib turadi. Doston tilida koʻrsatish olmoshlari oʻziga xos bir qator xususiyatlari bilan bir-biridan farqlanib kelgan. Buni quyidagi jihatlarda kuzatdik:

a) *bu, bul* olmoshi yaqindagi muayyan narsani koʻrsatish uchun xizmat qilgan: *Koʻshkida turib, bu dovushni eshitib, Malikai Xubon pastga qarab, qalandarni koʻrdi (120); Uyasida turib bul zamon ul qush, // Sirtmoq boʻyniga tushib qolibdi (133).* Doston matnida *bu* olmoshining koʻplik va kelishik qoʻshimchalarida turlanishi, bir *n* orttirilishi, ayrim hollarda esa olmoshlarning boshidagi *b – m* tarzida (*munda, muning*) talaffuz etilishi kabi lisoniy hodisalar ham uchradi: *Bular necha bahodirlar bilan ov ovlab yurgandi (121); Buning bilan*

biz qo‘ya bermaymiz buni (144); O‘tkazganmiz bu armonli kunlarni, // Podsho bo‘p so‘rasang munday shaharni (196).

b) doston tilida *u (un), shu (shul)* olmoshlari ham faol qo‘llangan, lekin har ikkalasining biroz farqi bor: birinchisida epik qahramon nutqida ilgari qayd etilgan narsaga diqqatni jalb etish uchun qo‘llanganligini kuzatamiz: *Joyida qaytadan borib uchirdi, // O‘zgaga burilmay ul qush keldi (169); Ul daryoda yo‘q bo‘p ketgan, // Yo‘ldosh bo‘lgan Hasan qani? (184); “Shul pulni menga bekorga bermaydi, ko‘ngli-da bir gapi bor, bir chatoq chiqaradi”, – deb yurar edi (156); Bu surat podshohimizning surati, // Shul bo‘ladi yangi podsho odati (172) kabi.* Doston tilida *bul, shul, ul* kabi ko‘rsatish olmoshlarining *-day, -dayin, -dayg‘ochog* qo‘shimchalarini qabul qilgan matnlar ham bor: *Ikkovi boradi shundayin o‘ylab, // Tabib bo‘lib necha so‘zlarni so‘ylab (140); Ishi tushib qoldi bundayin zo‘rga. // Bobo borib o‘zin urdi chinorga (134); Aldamchi bo‘p yursa elni oralab, // Men kesaman unday kishi boshini (142) kabi.*

v) doston tilida *o‘sha* ko‘rsatish olmoshi, shuningdek, *ana, mana* so‘zlari ham anchagina qo‘llangan: *Mana shunday yigit odamzoddan kelgan. Biz podsho ko‘tarmoqchi bo‘lgan (180); Maymunlarning qari podshosi aytdi: — Ana, ahvol, senga olib beradigan qizi shu (181) kabi.*

Bulardan tashqari, doston tilida epik qahramonlarning nutq vaziyatiga qarab ko‘rsatish olmoshlari yana predmet tushunchasini ifodalashi, bir narsani ikkinchi narsa bilan tenglashtirib yoki o‘lchab ko‘rsatish uchun ko‘rsatish olmoshlariga – cha qo‘shimchasining qo‘shilishi, shuningdek, “-day bo‘lsa” vositalari bilan birga kelib, nutq so‘zlagan epik qahramonni avvalroq bo‘lgan voqeani eslatib, yangi fikrga e‘tibor qilish uchun ishlatilishi kabi lisoniy holatlar anchagina uchraydi. Ularning hammasida ko‘rsatish olmoshlari u yoki bu tarzda qatnashgan.

So‘roq olmoshlari (*nima, nechta, qaysi, ne, na, qanday* kabi) ham doston tilida juda faol qo‘llangan. Lekin ularning har biri belgilari bilan bir-biridan farqlanadi. Bizning nazarimizda, bunday farqli lisoniy jihatlar quyidagilardan iborat:

a) o'tgan muayyan voqeani aniqlash ma'nosi: *Dev, paridan senga tegdimi zahmat, // Xatarli karvonim, holing na bo'ldi? // Seni ko'rib meni bag'rim ezildi, // Ey navqironim, holing na bo'ldi? (123); O'zingday zo'rlarga duchor bo'libsan, // Horib, charchab suvsiz cho'lda qolibsani. // Shavkatli Xonzodam, holing na bo'ldi? (123)*. Doston matnida *na* olmoshi 14 marta qo'llangan, ularning hammasida ta'kidlangan ma'no ustuvorlik qilgan.

b) narsaning miqdorini aniqlash ma'nosi: *Ne savdolar tushar boshimga, // Qo'rqaman shu kecha ko'rgan tushimdan (127); Ne ish bilan bunday xizmat aylading, // Arqonni belingga boylab o'rating, // Murodim bo'ldi deb menga so'ylading, // Ne muroding bordir, bayon aylagin? (135)* kabi.

v) harakat belgisi ma'nosi: *Birga yurmay judo bo'lsak ne bo'ldi? (127); Shohning davlatiga borsangiz sizlar, // Bul ko'chada changib yurmak ne darkor! (141); Har ne bilganimni ayon aylasam (178); Ne ish bilan bunday xizmat aylading (135); Men sening surating ko'rib, // Na joylarda bo'ldim, sanam? (187)* kabi.

g) epik qahramon uchun narsaning noma'lumlik ma'nosi: *Podsho, eshit mening aytgan so'zimni, // Ne joylarga tangrim sochgan tuzimni (150); Ne ish boshlab ko'p g'avg'olar qilasan, // Ovloq joyda qo'lga tushib qolasan? (164)* kabi.

d) uzoqdagi narsalarni aniqlash ma'nosi: *Xudo dedi Zevar ko'kda jo'nadi // Na joyga boramiz xudo biladi (152)*.

Doston matnida *ne+uchun* qolipining hosilasi fonetik o'zgarishga uchrab, *nechuk* variantining qo'llanganligi aniqlandi: *Bu dunyoda yo'q edi senga kulfat // Nechuk tushdi senga bunday mashaqqat (123); Bu cho'llarga nechuk tushgan guzaring, // Xabar bergin, qaysi shohning ulisan? (168)* kabi.

Bulardan tashqari doston matnida *qaysi* so'roq olmoshining qisqa *qay* shakli, shuningdek, *qayerga, qayerda, qayerdan* olmoshlarining *qay, qayga, qaydin* variantlari ham qo'llanilgan. Misollarga e'tibor qilamiz: *Kimga aytay dardim yorib, // Qayga boraman axtarib, // Qayda bo'lur yorim mening! (159); Bu qizni qaydan topgan ekan, – deb, Sa'dulla kalni quduqdan chiqarib keltirishdi (166); Xabar bergin, bobo, qaydin bo'lasan? (135)* kabi.

Doston tilida ish-harakat va hodisani aniqlash uchun *qanday, nima* so‘roq olmoshi *qilib* ravishdoshini qo‘shib ishlatilganida qo‘shma olmosh sifatida qo‘llanilgan holatlar uchraydi. Bunday lisoniy o‘rinlarda olmoshning fonetik o‘zgarish qisqarganligini kuzatamiz: *qaytayin, naylayin* kabi. *Zolimlar qo‘lida zabundir holim, // Bemahal yetishdi, qaytayin, o‘lim (129); Uning ishqini meni qildi devona, // Men naylayin, aqlim oldi bir pari (124); Semurg‘ aylanib havoda turar, // Yana qaytib kelib uyaga qo‘nar (134)* kabi. Matnlarda *qaytayin (qanday qilay?) qaytib (qanday qilib?) naylayin (nima qilayin?)* tarzidagi so‘roq ma‘nolari voqelangan.

Doston tilidagi *qancha, necha* olmoshlari faqat so‘roq ma‘nosini emas, balki noaniqlik, ko‘plik, taxminiy miqdorni ifodalab kelishga xizmat qilgan: *Qancha tuya zar-u zavar yuklab, necha avlodlarni hamroh qilib, davlatidan qancha bahodirlarni qo‘shib... (126); Qancha yigitlari Zangida o‘lgan // Zavar xafa, yuragini boy bergan (132); Bular necha bahodirlar bilan ov ovlab yurgandi (121); Mast bo‘lishib hech kimni pisand qilmadi (128)* kabi.

Doston tilida o‘zlik olmoshining birlik (*o‘z, o‘zi, o‘zim*) va ko‘plikda (*o‘zimiz, o‘zingiz, o‘zlari*) shakllari uchradi va ular xilma-xil modal ma‘nolar ifodalash uchun xizmat qilgan. Belgilash olmoshiga kelsak, u “*har nima – harna*”, “*har xil narsa*”, “*hamma narsa*” ma‘nosini ifodalab, matnda biror fikrni kuchaytirib, ta’kidlab ko‘rsatish uchun qisqargan shakli ishlatilganligini kuzatamiz. Masalan: *Bu xizmatga harna bermoq lozimdir, // Aytaber ko‘nglingga kelgan arzingni (150); Harna deganimni Zangarga yetkar (152); Bundan qochgan bilan qayga boradi, // Harna taqdirdagi ishga ko‘nadi (177); Istanbul podshosi so‘zni boshladi. // —Harna deb amr etsa buni qilinglar (190)* kabi.

Xullas, ishora bildiruvchi so‘zlar – olmoshlar “Zavarxon” dostoni tilidagi epik qahramonlar nutqida samarali va o‘rinli ishlatilgan. Baxshining doston ijrosida ham bunday so‘zlarning uslubiy roli beqiyos. Tahlil davomida biz ko‘rib chiqqan olmoshlarning hammasida so‘z shakllarining butun bir bo‘g‘ini yoki ayrim unli, undosh fonemalar tushirib talaffuz etilishi hodisasi kuzatiladi. Ayni lisoniy hodisa xalq baxshisining og‘zaki ijro jarayonida ma‘noga putur yetkazilmagan

holda, talaffuzni mukammal darajada osonlashtirganligiga birlamchi omil bo'la oladi.

2.4-§. Mustaqil soʻz turkumlari qoʻshimchalarining yasalish xususiyatlari

“Zevarxon” dostoni tilida turli xil soʻz turkumlariga daxldor boʻlgan, bir qator qoʻshimchalar uchradiki, ularning qoʻllanishida alohidaliklar – bir-biriga oʻxshamas va farqli lisoniy xususiyatlari mavjudligi aniqlandi:

[-ala / -ov] shakli: Dostonda sonlarning jamlovchi shaklini yasovchi *-ala* uchramadi, lekin matnda aynan shu maʼnoni beradigan *-ov* shakli faol uchragan: *Ikkov birga kelib daryoga tushdik (193)*. Matndagi *ikkovning* soʻzshakllaridan *ikkovi* 16 marta, *ikkovidan*, *ikkovimiz* 3 martadan, *ikkovlari* 2 marta, *ikkovingni* 1 marta qoʻllanganligi kuzatildi. Yoki sonlarning jamlovchi shakli *uchov* ham matn tarkibida qoʻllanmagan.

[-ar > -gich / -kich] shakli: *-gich / -kich* feʼl negizlaridan kuchaytiruv oʻttinkali sifat yasash xususiyatiga boʻlganda (OʻTIL, 408) feʼllardan sifat shaklini yasovchi *-r / -ar* qoʻshimchasi¹⁵⁰ oʻrnida qoʻllanish lisoniy qonuniyat sanaladi. Ayni hol doston matnida kuzatiladi: *Bir necha vahshiyga duch boʻp qolmasin, // Bir joling ich roʻdapolar koʻrmasin (177)*.

[-ga > -a] shakli: *Qilich olaman qoʻlima, // Chiqibdi dushman yoʻlima (162)*, yoki: *Tirik boʻlsa bir kun kelar qoshima, // Istambulda sir aytmayman hech kima (175)* kabi. Namuna sifatida dostondan olingan ushbu misollardagi joʻnalish kelishigi koʻrsatkichining “*a*” shakli oʻzbek tilining oʻgʻiz dialektlariga xos xususiyat sanaladi. Mazkur shevalardagi *-a* shakli fonetik qonuniyatlar tufayli hamma vaqt undosh tovush bilan tugagan soʻzlarga qoʻshiladi. Ayni hol Malika Xubonning Hasan vazirga qilgan muloqotidan olingan yuqoridagi poetik misralarda kuzatilgan. Bu esa Fozil shoirning ijrosi jarayonidagi uslubiga xos lisoniy hodisaning bir koʻrinishidir. Dostonda bunday uslubiy hodisa kam

¹⁵⁰Ўзбек тилининг изоҳли луғати. (Беш томлик. –Т.:1. - Тошкент: ЎзбМЭ, 2006.; Т.2.– 2006; Т.3.– 2007.; Т.4. – 2008.; Т.5. – 2008. 2-том, - 402, 436 б.

uchraydi. Ammo Fozil shoirning o‘zi qipchoq shevasi vakili bo‘lganligi sababli kuylagan dostonlardagidek, asosan, I va II shaxs birlik olmoshlaridan keyin va egalik hamda shaxs qo‘shimchasi “-im” dan keyin “-a” shakli qo‘llanilgan. Ayni lisoniy qonuniyat “Zevarxon” dostonida ustuvorlik qilgan.

[-gacha > o‘lma] shakli: Ko‘p yashagin, ko‘p yilgacha o‘lmagin. // Yonashib qoshima yaqin kelmagin (133).

[-da > dagi] shakli: Zevar o‘zini Hasan vazirga tanitdi. Ko‘nglidagi sirini amaldoriga aytdi (196).

[-da > cha] shakli: Daryoning xatarli joyin bilasan, // Oyog‘ing yetganicha izlab ko‘rasan (175); Umrinni boricha yursam so‘roqlab. // G‘arib bo‘lib qoldim, ishqingda yig‘lab (122) kabi.

[-kar > -kaz] shakli: Qancha ishni yosh ham bo‘lsam o‘tkazib, // Boshimga ko‘p og‘ir xizmat yetkazib (139).

[-lik > -(y)ik] shakli: Biz ko‘rayik yer yuzini qidirib, // Tark aylaylik bu mosivo hunarni. // Kezayik ushbu dunyoni, // Bir ko‘ringan jonon qani? (166).

[-ni > -in / -n] shakli: So‘zimga quloq sol, turgan dilovar, // Jamolin oldida oro kun bekor! (124); O‘zini o‘ldirib molin olibsan, // Bechora bo‘p bu zindonda qolibsani? (190); Boshin kesib, iling tabibni dorga, // Elda bunday yolg‘onchilar bo‘lmasin (147) kabi.

-n shakli: tushum kelishigining poetik ko‘rinishi sifatida qaraladi, lekin uning dostonidagi qo‘llanish miqdori past, uning -ni shakli esa faol qo‘llanganligi ko‘zga tashlandi, eng muhimi, o‘zining asosiy grammatik vazifasini bajargan.

[-ni > -di] shakli: Dushmanga selmar qilichdi, // Chaparasta kesib boshdi (162); Bildirib turibmiz Sizga xabardi (189) kabi.

[-ga > -ma] shakli: Yonashib qoshima yaqin kelmagin, // Semurg‘ga hadik berib yurmagin (133); Qo‘lima shu zamon sozimni olib // Necha so‘zlar so‘zladim bunda to‘lg‘onib (154) kabi.

“Zevarxon” dostonidagi qaratqich, tushum, jo‘nalish kelishiklarining belgisiz qo‘llanish holatlari hozirgi o‘zbek tiliga xos xususiyat sanaladi. Ammo chiqish kelishigining doston matnida belgisiz holatda qo‘llanishi qipchoq je-lovchi

shevasiga tamomila mos keladi, bu, o‘z navbatida, “Zevarxon”da ham o‘z ifodasini topgan: *andin so‘ng (124); degan so‘ng (153); turgan so‘ng (170); anglab so‘ng (194)* kabi.

“Zevarxon” tilida doston syujetini bayon etishda va ijrosi jarayonida Fozil shoirning ayrim yasovchi qo‘shimchalarga ijodiy yondashganligini kuzatdik. Masalan, bu o‘rinda *-dor, -don, -li* kabi qo‘shimchalardan qay tarzda foydalanganligini kuzatish bilan chegaralanamiz.

Ot yasovchi *-dor* qo‘shimchasi tilimizga tojik tilidan o‘zlashgan, u yozma va og‘zaki so‘zlashuv nutqda otlarga qo‘shilib, shu so‘z orqali ifodalangan predmetga egalik yoki u predmetning o‘shanga xos, taalluqli ekanligini bildiradi¹⁵¹ (O‘TIL, II, 418). Ta’kidlanayotgan bu qo‘shimcha bilan yasalgan so‘zlar “Zevarxon” matnida 10 tani tashkil etadi, ularning jami yig‘indisi 42 marta qo‘llangan. Masalan, *hiylador (147); dunyodor (153); amaldor (141, 142, 152, 169, 175, 178, 187, 189, 194, 196, 197, 198); nomdor (146, 151); jondor (127, 128, 178, 180, 182, 183, 187); jundor (181); xabardor (136, 144, 145, 156, 158); sardor (176, 197); jabrdor (162)*. Ko‘ramizki, bu so‘zlarning ichida eng faol qo‘llanganlar 3 ta (*amaldor, jondor, xabardor*). *Nasiba tortgan-da, Zangarga kelgan, // Borib qolib menday amaldor ko‘rgan (142); To‘qayda ko‘p yurib, yo‘lda adashib, // Ko‘rgan jondor qochar ahli shoshib (128); Yashilday quyilib javoday engin, // Hayallab qolmagin xabardor bo‘lgin (144)* kabi.

“Zevarxon” matnidagi ot yasovchi *-dor* qo‘shimchasi tilimizdagi faol qo‘llanadigan *-chi, -go‘y* qo‘shimchalari bilan sinonim tarzda ishlatilish imkoniyati mavjud: *hiylador – hiylachi – hiylago‘y* kabi. E’tibor beramiz: *Makkorlikman qilgan ishlari bekor! // Uchar qushga kafil bo‘lgan hiylador! // Qirq kun muhlat bitdi, endi o‘ladi (147)*. Matndagi *makkor* va *hiylador* so‘zlarining o‘zi ham sinonim bo‘la oladi. Shu o‘rinda yana bir ta’kid: tilimizda *hiylador* so‘zining *hiylagar, aldamchi, yolg‘onchi* kabi qator sinonimlari mavjud. Ayni holning bir xil ma’nodagi – salbiy ottenkada qo‘llanishi alohida lisoniy hodisa sanaladi va bular, o‘z

¹⁵¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. (Беш томлик. –Т.:1. - Тошкент: ЎзБМЭ, 2006.; Т.2.– 2006; Т.3.– 2007.; Т.4. – 2008.; Т.5. – 2008. 2-том, - 418 б.

navbatida, dostonda ham uchraydi. Masalan: *Elda bunday yolg'ochilar bo'lmasin, // Hiylagar kishilar omon qolmasin! // Kasofatlar Zangar elda yurmasin (147);* yoki: *Aldamchi bo'p yursa elni oralab, // Men kesaman unday kishi boshini (142)* kabi. *Hiylador* elementining qo'llanishini muvaffaqiyatli yasaliş sifatida baholaymiz va Fozil shoirning yuksak mahoratga ega ekanligini e'tirof etamiz.

Endi yasovchi *-li* qo'shimchasining "Zevaxon" matnida qaytarzda qo'llanganligini kuzatamiz. Aslida bu qo'shimcha biror predmetga, belgi-holatga ega ekanlikni, predmetning biror narsaga yaroqli ekanligini, egalikda ortiqlikni ko'rsatishga xizmat qiladi¹⁵² (Qarang: O'TML, 428). Fozil shoir tilimizdagi mavjud modellar asosida hosil qilingan bunday tipdagi so'zlardan maqsadli va o'rinli foydalangan, deyish mumkin. Masalan, dostondagi *muzli (152), ko'zli (123, 133), so'zli (124), yuzli (123, 194), jiyakli (166), yo'lli (165), aqlli (145), karamli (127), g'amli (169), armonli (196), vafoli (157), xatarli (123, 127, 144, 156, 175, 178, 196), sirli (144), o'rli (165), sho'rli (187), saxovatli (126), shavkatli (123), davlatli (123), adolatli (126), karomatli (126, 154), suratli (167, 180), otli (161, 196), qanotli (144, 152, 183), baxtli (165), o'tli (152), qayg'uli (129, 157), kuchli (136), urushli (163), oyoqli (181), siyohli (181), bog'li (127, 129), chog'li (174)* kabi so'zlar shular jumlasidan. Ko'ramizki, ushbu so'zlar orasida eng faol qo'llanganlar: *xatarli, yuzli, bog'li, ko'zli, turli, karamli, saxovatli* so'zlardir. Yana ular orasidagi *yuzli, ko'zli, suratli, urushli, kuchli, chog'li, siyohli, otli, g'amli* singarilar folklor asarlari tilida faol qo'llanadi. Shuningdek, *muzli, aqlli, karamli, vafoli, saxovatli, karomatli, baxtli* singari esa ham kitobiy uslubga xos, ham og'zaki so'zlashuv nutqiga xosdir. *O'rli, sho'rli* kabilarni je-lovchi shevalari vakillarining nutqiga xos, deyish mumkin: *O'rlik bilan yurding umr kechirib, // Yo'lli bo'lding, qoldi baxting ochilib. // Chopgan ekan asli sening iqboling (165); Suratga so'z aytgan sho'rlik, // Endi sening kuning bitdi! // Bu suratga urilasan, // Shohning zulmidan o'lasan! // Azob tortgan, sho'rli yozgan, // Tayin zindonda qolasan! (187)* kabi.

¹⁵² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. (Беш томлик. –Т.:1. – Тошкент: ЎзБМЭ, 2006.; Т.2.– 2006; Т.3.– 2007.; Т.4. – 2008.; Т.5. – 2008.

Ko‘ramizki, **-li** qo‘shimchasi bilan yasalgan yuqoridagi sifatlarning qo‘llanishi ham Fozil shoir uslubiga xos xususiyat, deb aytishimizga asos bo‘ladi. Eng oxirgi keltirilgan matnda o‘g‘ri ma’nosidagi turli xil: *omadsiz, baxtsiz, sho‘rli* so‘zlari je-lovchi xalq tilida hozir ham faol ishlatiladi, xolos.

Endi **-don** yasovchi qo‘shimchasining doston matnida qo‘llanish holatini kuzatamiz. Bu qo‘shimcha bilan yasalgan so‘zlar “Zevarxon” matnida unchalik ko‘p emas, bor-yo‘g‘i yettitagina uchradi. Masalan, *maydon (158,161, 162, 165); mardi-maydon (161, 167); zindon (189, 190); lodon (133, 190, 195); nodon (135, 138, 139, 167); sargardon (130, 134, 138, 157, 195); qadrdon (137, 144, 145, 157, 175)* singarilar shular jumlasiga kiradi. Ushbu misollarda berilgan *maydon, mardi-maydon, zindon* leksemalari asosan folklor asarlarida, *sargardon, qadrdon* so‘zlari esa so‘zlashuv nutqiga xos va “kitobiy” uslubga mos keladi, shuningdek, *lodon* va *nodon* so‘zlari aslida bir xil ma’noni anglatganda, je-lovchi qipchoq sheva vakillari nutqida ko‘proq uchrashini kuzatamiz. Imkoniyatdan kelib chiqqan holda, **-don** yasovchi qo‘shimchasi tarkibida bo‘lgan *maydon* leksemasi va uning negizida hosil bo‘lgan so‘zlarni ko‘zdan kechiramiz. Ushbu so‘z “Zevarxon”da 5 marta qo‘llangan va ikki qarama-qarshi tarafning jang qiladigan, urushadigan joyi ma’nosini ifodalagan. Ularning qo‘llanish shakliga qarasa, 3 marta *maydon bo‘lmoq*, 1 marta *maydon ko‘rmoq*, yana bir marta *maydon cho‘lda* birikmalaridan iborat ekanligini ko‘ramiz.

Maydon so‘zining 5 ta ma’nosi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da izohlangan: shulardan 3. “biror ish-harakat uchun mo‘ljallangan yoki shunday ish-harakat yuz beradigan joy ma’nosi”¹⁵³ tarzida sharhlangan. “Zevarxon” dostonidagi uchta o‘rinda ish-harakat yuz beradigan joy ma’nosi ifodalangan: *Maydon bo‘lsa kelib dushmanga g‘olib, // Malika yoringni bu eldan olib (158); Bilmayman qanday gap bo‘lar, // Tavakkal deb Hasan turar, // Maydon bo‘lsa sherday qaysar, // Maydon bo‘lsa Hasan toshar, // Bul maydonga Hasan tushar. // Urushda daryoday toshar (161-162)* kabi. Ushbu matnlarning birinchisidagi *maydon bo‘lsa* birikmasining qo‘llanishidagi xos xususiyat shundaki, garchi

¹⁵³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. (Беш томлик. –Т.:1. - Тошкент: ЎзБМЭ, 2006, - 442 б.

matnda *urush* soʻzi ishlatilmasa ham mazkur soʻz bilan maʼnodoshlik kasb etgan. Ikkinchi matnda esa ana shu maʼno tobora kuchaytirilgan. Doston kuylovchisining mahorati shundaki, tinglovchilarni oʻziga tobora jalb qilish uchun, *maydon* elementini *urush* maʼnosida tushunishlari uchun shu darajada singdirganki, *maydon boʻlsa* birikmalarini takror-takror ishlatgan. Doston ijrosidagi bu epik bayon, birinchidan, ritm va qofiya talabi bilan yuzaga kelsa, ikkinchidan, jang maydoni oldida turgan epik qahramon Zevarxonning psixologik holati, kuch-quvvati va dushmanga boʻlgan munosabatini ochib berishga xizmat qila olgan.

Dostonda qoʻllangan *maydon* va *urush* soʻzlari orasidagi maʼnodoshlik matnda *maydon* maʼnolarini ham keltirib chiqarganligini kuzatdik. Buni biz Hasanxonning Zevarxonga qarata aytgan muloqotidan bilib olamiz: *Zevarxon, koʻrgin tomosha, // Men bermayman bunga omon, // Qilichdan toʻkib qirmiz qon, // Urush qilay, koʻrgin maydon, // Tandan oʻzilar shirin jon, // Bu soʻzni aytar Hasanxon Zevarxon, koʻrgin tomosha, // Men bermayman bunga omon, // Qilichdan toʻkib qirmiz qon, // Urush qilay, koʻrgin maydon, // Tandan oʻzilar shirin jon, // Bu soʻzni aytar Hasanxon (162)* kabilar. *Maydon boʻlmoq, maydon koʻrmoq* kabi birikmalarining ogʻzaki soʻzlashuv nutqiga xos *maydon choʻlda* varianti ham doston maydonida uchragan: *Barchasi charchadi, oʻpkasi shishdi, // Qirq qaroqchi maydon choʻlda chopishdi, // Koʻp yoʻlga uzoqlab ketdi yoy oʻqi (165)*.

Xullas, doston tilida *maydon* elementi baxshi tomonidan birmuncha muvaffaqiyatli qoʻllangan va *maydonda, maydonda boʻlish istagi, maydonni koʻrish niyati* maʼnolarini ifodalab bera olgan. Epik qahramondagi joʻshqinlik, koʻtarinkilik, kayfiyat, jasorat va mardlikka tayyor turganlik kabi maʼnolarni tinglovchilariga singdira olgan. Bunday ifoda usullari har bir baxshi uslubi, qolaversa, xalq dostonlari uslubiga toʻla mos keladi. Taʼkidlanayotgan mulohazalar Fozil shoirning epik repertuariga ham bevosita taalluqli.

Endi doston matnidagi baʼzi morfologik koʻrsatkichlarning qoʻllanishidagi alohidalik va oʻziga xoslik masalasiga qisqacha toʻxtalamiz. Bu boradagi bizning kuzatishlarimiz quyidagilardan iborat:

1. Ayrim morfologik ko'rsatkichlar doston tilida o'zaro variant sifatida qo'llanilgan. Masalan, unilarning til oldi va til orqasida talaffuz etilishiga ko'ra farqlanadigan fe'ning infinitiv shakllari **-moq / -mak** ni olgan so'zlarning nisbati bir xil emasligi ko'zga tashlanadi. **-moq** qatnashgan fe'l shakllari 130 dan ortiq bo'lsa, **-mak** qatnashgan fe'l shakllari sanoqli so'zlardan iborat. *Shohning davlatiga borsangiz sizlar, // Bul ko'chada changib yurmak ne darkor! (141)* kabi.

2. Doston tilida morfologik ko'rsatkichlardan **-roq / -rak** variantini olgan so'zlar, umuman, qo'llanmagan. **-gan / -g'on** varianti haqida ancha ijobiy fikr aytish mumkin. Masalan, **-gan** qatnashgan fe'l shakllari juda faol qo'llangan. Uning umumiy soni 128 tani tashkil etgan: *o'ylagan, yig'lagan, bog'lagan, uxlagan, qilmagan, bo'lmagan, so'ragan, yozgan, kelgan, qilgan, olgan, solgan, qolgan, bo'lgan, turgan, ko'rgan, yurgan, aytgan, pishgan, ochilgan* va boshqalarni keltirish mumkin. **-gan** morfologik ko'rsatkich qatnashgan fe'l shakllari ichida *degan* 12 marta, *kelgan* 31 marta, *qilgan* 30 marta, *olgan* 17 marta, *bo'lgan* 27 marta, *bergan* 13 marta, *turgan* 22 marta, *ko'rgan* 18 marta, *yurgan* 30 marta, *aytgan* 19 marta qo'llangan va ular eng faollari sanaladi. **-gan / -g'an** varianti faqat bir o'rinda qo'llangan: Shunday joy: *bir qo'rg'on, yon yog'i devor, u devorning ustidan qanotli qush uchib o'tolmaydi (183)*. Adabiy tilimizda **-g'an** ning vazifasi fe'ldan sifat yasash hisoblanadi¹⁵⁴. Lekin shunday bo'lsa-da, doston matnida *fig'on (133, 137, 156, 197); yolg'on (144, 168, 185, 190); afg'on (155); yo'g'on (170)* kabi so'zlari ham uchraydi.

3. Morfologik ko'rsatkichlardan yana biri **-gil / -g'il** shakli ham doston matni uchun xos: 6 marta qo'llanilgan: **aylagil:** *Nazar aylagil husni holimga, // Zevarxon sultonim, holing na bo'ldi? (123); degil:* *Bu suratni ko'rib o'zing urasan, // Rostin degil, xonim, qaydan kelasan? (192); qilgil:* *Ustun qilgin menday mardning qo'lini, // Oson qilgil qiyin-mushkullarini (144); o'ldirgil:* *Bu bor ekan bor zangining makoni, // Xazon qildi Bog'i Eram gulshani. // Bularni ozod qil, o'ldirgil mani (128)* kabi. **-g'il** shaklidagi morfologik ko'rsatkich tarixiy shakl (O'TIL, 408) bo'lganligi bois doston matnida uchramadi. Yana bir lisoniy hodisani

¹⁵⁴ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. (Беш томлик). –Т.:1. – Тошкент: ЎзБМЭ, 2006, - 402 б.

ta'kidlash joiz: “fe’ldan anglashilgan ma’noni alohida ta’kidlash, kuchaytirish bilan ifodalaydigan fe’lning buyruq maylini hosil qiladigan”¹⁵⁵ **-gin** qo‘shimchasi doston matnida juda faol qo‘llangan. Bunday so‘zlar 51 tani tashkil etib, ular matnda 113 marta qo‘llangan: masalan, *tilagin, aytgin, kelmagin, kelgin, bilgin, qilgin, olgin, solgin, turgin, ko‘rgin, yetgin, aytgin* va boshqalar shular jumlasiga kiradi. Bunday so‘zlar orasida *aylagin, olgin* 6 martadan, *kelgin* 9 marta, *qilgin, solgin* 5 martadan, *bergin* 14 marta, shuningdek, *ko‘rgin, aytgin* 4 martadan qo‘llangan va ular eng faollari sanaladi. Ayrim misollar keltiramiz: *Tabib bo‘lsang dunyoda bor narsani aytgin, yo‘q narsani nima uchun aytasan, – dedi (143); Murodim bo‘ldi deb menga so‘ylading, // Ne muroding bordir, bayon aylagin? (135); Voqeani so‘yla, gul yuzli jonim, // Gapirgin, tortinma, sen mehribonim! (195); Gulgun kiyib kelgin yana qoshima, // Xamoyilday soya solgin boshima (122)* kabi.

4. Payt va sabab ma’nosini anglatuvchi **-gach / -kach / -g‘ach / -qach** kabi morfologik vositalar “Zevarxon” dostoni matnida umuman qo‘llanmagan. Lekin ularga ravishdosh yasovchi **-ib** qo‘shimchasi sinonim bo‘lib kelgan holatlar mavjud. Ulardan ayrim misollar keltirish bilan cheklanamiz:

- gach > -ib shakli: (*ulg‘aygach* → *ulg‘ayib*): *Yoshi ulg‘ayib yetgan, juda qarib mazasi ketgan, elaslab bir boboy ko‘rindi (132);*
- ach > -ib shakli: (*bo‘lgach* → *bo‘lib*): *Bandi bo‘lib o‘zi qafasda qolgan. // Qancha yigitlari Zangida o‘lgan (132);*
- gach > -ib shakli: (*borgach* → *borib*): *Borib ochdi bog‘ning darvozasini, // Bunda ko‘rdi gullarning tozasini (132);*
- gach > -ib shakli: (*kesgach* → *kesib*): *Boshin kesib, iling tabibni dorga, // Elda bunday yolg‘onchilar bo‘lmasin (147)* kabi.

Fe’lning noaniq kelasi zamon fe’lining **-gay / -g‘ay** ko‘rsatkichlari “Zevarxon” dostonida faqatgina bir o‘rinda *bo‘lmagay* fe’lida qo‘llangan. Buni Xisrav xonning o‘g‘li Zevarxonga qarata aytgan so‘zida ko‘ramiz: *Bosh bo‘lib*

¹⁵⁵ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. (Беш томлик). –Т.:1. – Тошкент: ЎзбМЭ, 2006, - 408 б.

dushmanidan saqla salomat. // Qo‘zimni topshirdim haqqa, omonat, // Hech qaysinga bo‘lmagay xiyonat, // Duo qildim, Bog‘dodga kelgin salomat (125) kabi.

Xullas, tahlil qilingan so‘z turkumlarining har birida alohida-alohida qo‘shimchalar mavjud, ayni vaqtda ularning qo‘llanishida ham o‘ziga xos, bir-birida takrorlanmaydigan alohidalik jihatlar mavjud. “Zevarxon” dostoni matnidagi grammatik va semantik-stilistik xususiyatlar ham bulardan mustasno emas.

Bob bo‘yicha xulosalar

1. “Zevarxon” dostonida qo‘llanilgan ham bir so‘zga lisoniy hodisa sifatida yondashilganda, eng avvalo, ularning har birini nisbiy mustaqil so‘zlar va ma‘noviy xususiyatlariga ko‘ra so‘z turkumlaridan tashkil topgan deb tan olinishi lozim.

2. Dostondagi harakat va holatni ifodalovchi so‘zlarda tuslanish, shaxs-son, zamon, o‘timli-o‘timsizlik, daraja, mayl kabi kategoriyalar muayyan morfologik belgilarga ega.

3. Dostondagi belgi-xususiyatni ifodalovchi so‘zlarni holatni, shakl-ko‘rinishni, hajm-o‘lchov va masofani, rang-tusni, hayvon va parrandalar tuslarini ifodalovchi so‘zlarga ajratish mumkin.

4. Dostondagi miqdor va sanoq tushunchalarini ifodalovchi so‘zlar bir qator xususiyatlari bilan otdan farqlanadi. Bular: a) son mavhum xususiyatga ega bo‘lib, predmetning son va miqdorini belgilaydi; b) sonlar ko‘plik qabul qilmaydi, qabul qilgan taqdirda u otlashadi; v) sonlar o‘zidan oldin aniqlovchini qabul qilmaydi. Ayni lisoniy me‘yorlar o‘zbek adabiy tilida va “Zevarxon” dostoni tilida ham deyarlik bir xil darajada ekanligi kuzatildi.

5. Dostonda ishora bildiruvchi so‘zlar faol qo‘llangan. Ularning hammasi matnda bir-biridan farqlansa-da, xilma-xil uslubiy maqsadlarni birlik va ko‘plik sonlarda ifodalashga xizmat qilgan. Tahlil davomida biz ko‘rib chiqqan olmoshlarning hammasida so‘z shakllarining butun bir bo‘g‘ini yoki ayrim unli, undosh fonemalar tushirib talaffuz etilishi hodisasi kuzatildi.

III bob. “ZEVARXON” DOSTONIDA QO‘LLANILGAN LEKSIK BIRLIKLARNING GENETIK, TARKIBIY-MAZMUNIIY XUSUSIYATLARI

“Zevaxxon” dostonining leksik xususiyatlarini o‘rganish bizga shunday to‘xtanga kelishimizga olib keldi: doston o‘z va o‘zlashgan so‘zlar, umumiste‘mol leksika va dialektik birliklar, ijtimoiy leksika, maishiy leksika, antroponimlar va toponimlar, zoonimlar, mavhum ma‘noli leksik birliklar singari o‘ndan ortiq yo‘nalishlardagi so‘zlarni o‘z ichiga olgan. Bir tadqiqot doirasida ularning hammasini tahlil qilishning iloji yo‘q: bizning imkoniyatimiz chegaralangan. Ishimizning ushbu bobida doston leksikasidagi o‘z va o‘zlashgan, eskirgan va tarixiy so‘zlarni tahlil qilishni lozim topdik.

3.1-§. “Zevaxxon” dostonidagi o‘z va o‘zlashgan so‘zlarda ko‘p ma‘nolilik

“Zevaxxon” dostoni leksikasida xalq baxshisining shevasiga xos, dostonlar tiliga mos va xalq tilidagi leksemalar mavjud. Bu tipdagi so‘zlarning ayrimlarini matn orqali kuzatamiz:

– **abgor-abgashta.** *Bu so‘zdan so‘ng: – Xayr, mehmon, siz ko‘p abgor-abgashtalikni ko‘ribsiz. Mardning boshiga bunday ishlar tushadi (193);*

– **abgor-u aftoda.** *Podsho edim, gado qilgan, // Abgoru aftoda qilgan (130);*

– **arqiragan // arqirgan.** *Arqiragan erday bo‘lib, // Yolg‘iz o‘zim sherday bo‘lib, // Har yag‘rinim qirday bo‘lib... (162); Ilgari arqiragan er edim, // Yoshim yetib endi men ham qaridim... (179).*

– **dunyodor.** *Bu ziyofatda Hasan vazir, bir qancha odamlari bilan Zevax birga borib, mehmon bo‘ldi. Hammasi dunyodor, davlati katta (153).*

– **davkor.** *Chinmochinda otam davkor shod edi, // Hamisha oldimda arzu dod edi (179).*

– **diyda.** *Boshing olib sen ketarsan gulzorim, // Nuri diydam, obloga topshirdim seni (125).*

– **joling‘ich.** *Bir necha vahshiyga duch bo‘p qolmasin, // Bir joling‘ich ro‘dapolar ko‘rmasin (177).*

– **zahar-zaqqum.** *Mendan xabari yo‘q qavm-qardoshim. // Zahar-zaqqum bo‘ldi bu ichgan oshim! (146).*

– **jing‘il.** *Buning bilan bo‘lmaydi birga, // Oralab ketgan jing‘ilga (182).*

– **bog‘anigi.** *Maymun chopar o‘ng-u so‘lga, // Bog‘anigi yigit bormi? (182).*

Keltirilgan misol-matnlar Fozil shoirning doston ijrosi mahoratidan darak berib tursa-da, je-lovchi qipchoq shevasiga xos *avgor-abgashta, arqiragan // arqirgan, dunyodor, davkor, joling‘ich, zahar-zaqqum, jing‘il, bog‘anagi*, shuningdek, *ro‘dapo, oblo* singari leksik birliklar syujet oqimiga daxldor epik qahramonlarning muayyan xatti-harakatlarini ifodalashda faol qo‘llangan. Bu leksik birliklarning asosiy qismi matnda 1 martadan, ayrimlari 2 martadan uchraydi, xolos. Bu o‘rinda ularning faqat chastotasidagina emas, balki “Zevarxon”dostoni matniga xoslanganligi va badiiyati uchun xizmat qilganligi, ular baxshi tomonidan muvaffaqiyatli qo‘llanganligi haqida gap bormoqda.

Doston matnida *yitirmoq, makon-manzil, munday, murod-maqsad, nimpushti, noshod, to‘palon-to‘zon, o‘lik-tirik, sabil, sipohigarchilik, taylamoq, teyinmoq, xalta-xulta, qanqaymoq, qiyin-mushkul, hayhaylashmoq, chuvlamoq (chulg‘ashmoq), ertan-mertan, erkilmoq, eynimda* kabi 100 ga yaqin leksik birliklarga duch kelamizki, ularning asosiy qismi je-lovchi qipchoq shevasiga xos, yana bir qismini kitobiy uslubga (masalan, *sipohigarchilik, noshod, murod-maqsad, o‘lik-tirik* kabi) mos keladi. Ularning ba‘zilariga e‘tibor qaratamiz.

– **yitirmoq.** Yo‘qotmoq ma’nosini ifodalovchi bu so‘z doston matnida bir marta uchraydi: *Zevarxon bilan bobo ikkovi, nima qilarini bilmay gang bo‘lib qoldi Zevarxon aytdi: — Bobo aqlingni yitirma, bizlar u mamlakatga ham*

borarmiz, *Semurg'ni tag'in topib olarmiz!* (138). Doston matnida ushbu soʻzning yitirib shakldoshi 2 marta uchraydi, ularda ham yoʻqotmoq, ayrilmoq, oldirmoq maʼnolari ustuvorlik qilgan: *Husnini koʻrib aql-hushim yitirib, // Biz izlarmiz endi qalandar boʻlib.* (166); *Aql-hushini yitirib, // Barcha odam hayron qoldi. // — Qandayin alomat boʻldi?* (148). Doston matnidan olingan ushbu misollardagi yitirib soʻzi, shuningdek, birinchi misoldagi *hayronlik*, *ilojsizlik* maʼnolarini ifodalovchi *gang* soʻzi ham je-lovchi qipchoq shevalarida qadimdan qoʻllanganligini tasdiqlaydi. Lekin afsuslanadigan joyi shundaki, hozirgi lugʻatlarda *yitirma*, *gang* soʻzlariga biror bir izoh berilmagan.

– **sipohigarchilik.** “Oʻzini juda oddiy kamtarona tutishlik, odmilik, xushmuomalalik”¹⁵⁶ maʼnolarini ifodalovchi bu soʻz doston matnida bir marta qoʻllangan: *Zevar oʻzini Hasan vazirga tanitdi. Koʻnglidagi sirini amaldoriga aytdi. Amaldorlar: — Barakalla, ilm sipohigarchilikni bilganingga, — dedi.*(196). Bu soʻzning oʻzak qismi – leksik maʼnoga ega boʻlgan *sipoh* shakldoshi doston matnida bir oʻrinda *amaldor*, yana bir oʻrinda *jangchi*, *askar*, boshqa oʻrinda *amaldorlik*, *ishboshilik* maʼnolarida uchraydi. Buni biz *sipoh* (175); *sipohi* (138, 168, 171); *sipohiy* (141, 171); *sipohiylar* (137, 169, 170, 171, 172, 174); *sipohiysan* (137); *sipohilar* (138, 169) singari shakldoshlarda kuzatdik. Doston matnidan olingan ayrim misollarga eʼtiborni qaratamiz: *Hasanxonni chaqirib beklar begi amal berib, oʻzining qoshida sipoh - amaldor qilib qoʻydi* (175); *Bu soʻzlarni unga sipohiy aytdi, // – E, hakimlar, bu yurishing bekordi, // Senday odam podsholikka darkordi* (141); *Sipohiysan, qilmagin siyosatni, // Semurgʻ deb menga qilma tuhmatni, // Amaldorlar, bilmaysanmi uyatni* (137); *Shodmon boʻlib, yana xafalik tushdi, // Qaysi goʻrdan sipohilar yetishdi* (138) kabi.

Bu oʻrinda bir lisoniy hodisani qayd etmoqchimiz. Taʼkidlangan soʻzlarning shakldoshi boʻlmish *sipoyi* soʻzi dostonda bir marta uchraydi: *Ular*

¹⁵⁶ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. (Беш томлик). –Т.:1. - Тошкент: ЎзБМЭ, 2006, 3-том, - 518 б.

do‘qlab: – Bu Semurg‘ni sen qayoqdan topding?— dedi. Bobo aytdi: – Bu o‘zimning Semurg‘im. Sipoyilar aytdi: -Semurg‘ bekklikda yo podsholikda bo‘ladi. Senda Semurg‘ nima qiladi? Tag‘in bizning podshoyimizning Semurg‘ini o‘g‘irlab olgan bo‘lmagin? (137). Ushbu matndagi sipoyilar so‘zining leksik ma‘nosida “kamtarlik, kamsuqumlik, bosiqlik” toifasiga mansub kishilarga xoslik tushuniladi. Lekin ushbu ma‘no matnda ifodalanmagan, balki “amaldor”, “rahbar”, “jangchilar” ma‘nosida qo‘llanganligini kuzatamiz. Aslida sipoyilar shakli to‘g‘ri bo‘ladimi yoki sipohilar? Nazarimizda, doston nashrida xatolik yuz bergan: matnda sipohiylar shaklida berilganida maqsadga muvofiq bo‘lard.

– Yonbosh: hammasi yarim kechada mast bo‘lib, yiqilib yotib qoldi. Yonboshda qafasda turib to‘ti aytdi: -Sen qanday hol bilan bularga duch bo‘lding? (129).

– Qalin // qalinbosh: Men bilaman qiladigan ishimni, // Qalin boshi qilaman deb qushimni, // Podshosining qiziman o‘tirishimni. (133); Semurg‘ qushlarning podshosi, ushlab olib borsam farroshdan ko‘ra e‘tiborlik bo‘lib, balki qalinboshi deganday qilib podshoga bersam. (136)

– Vaqtixushlik: Endi bular to‘y vaqtixushligidan o‘yin boshlaydi (181); Shunday qilib elga kelgan, // Vaqtixushlik ishni boshlab, // O‘yin, kulgi qilib qolgan (198) kabi.

Keltirilgan misollardan anglashiladiki, “o‘ng yoki chap tomon, taraf, atrof”¹⁵⁷ (O‘TIL, 2, 37) ma‘nolarini ifodalovchi *yonbosh*, “kuyov tomonidan kelin tomonga beriladigan, to‘lanadigan pul, mol, hadya” ma‘nosidagi *qalin-qalinbosh*, ko‘tarinkilik kayfiyatidagi holat, xursandchilik”¹⁵⁸ (O‘TIL, 1, 449) ma‘nolarini anglatadigan *vaqtixushlik* so‘zlari qadim-qadimdan xalqimiz orasida qo‘llanib kelingan. Bunday lisoniy hodisani “Zevarxon” dostoni matni ham, Fozil shoirning epik repertuari ham to‘liq tasdiqlay oladi. Bunday so‘zlarning xalq baxshisining ijodida qo‘llanilishi dostonidagi muayyan ifodaning ta’sirli, yoqimli bo‘lishiga,

¹⁵⁷ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. (Беш томлик). –Т.:1. - Тошкент: ЎзбМЭ, 2006.; Т.2.– 2006; Т.3.– 2007.; Т.4. – 2008.; Т.5. – 2008.

¹⁵⁸ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. (Беш томлик). –Т.:1. - Тошкент: ЎзбМЭ, 2006.; Т.2.– 2006; Т.3.– 2007.; Т.4. – 2008.; Т.5. – 2008.

syujet voqealarining tinglovchi-eshituvchilar xotirasida saqlanib qolishiga, “muhrlanishiga” olib kelgan.

O‘zlashgan so‘zlar. Ona tilimizdagi o‘zlashma so‘zlar tarixiy-etimologik jihatiga uch yo‘nalishga xos. Ular turkiy tillardan, arab tilidan va fors-tojik tilidan kirib kelgan so‘zlardir. Bunday so‘zlarning hammasi tilimizning amaldagi tamoyillariga to‘liq mos keladi. Shu ma’noda Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li kuylagan barcha dostonlarda, xususan, biz o‘rgangan “Zevarxon” dostonida qo‘llanilgan o‘zlashma so‘zlar ham o‘zini tamomila oqlaydi.

Shu o‘rinda “o‘zlashgan so‘zlarni qo‘llash doston tili uchun nima beradi”, - degan bir muammo tug‘ilishi tabiiy, albatta. Bu muammoning yechimiga Islom shoirning “Orzigul” dostonini o‘rgangan olima N.Xadjimusayevaning quyidagicha mulohazalarini keltirish lozim deb hisobladik: “Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, birinchidan, tilimizda doimo qo‘llanib kelinayotgan va quloq o‘rganib qolgan so‘zdan ko‘ra uning amalda kam ishlatilgan o‘zlashgan muqobilini qo‘llash obrazlilik uchun xizmat qilishi mumkin. Ikkinchidan, so‘z o‘zlashgani bois tilda so‘zlararo sinonimiya vujudga kelib, ularning har birining ma’nosida stilistik ottenkalar ro‘yobga chiqishi va ularni o‘zaro farqlashga ehtiyoj seziladi. Uchinchidan, mumkin qadar abadiylashtirib borishi mumkin. Aytilganlarning barchasi ona tilimizning amalda bo‘lish tamoyillariga mos keladi”.¹⁵⁹

“Zevarxon” dostoni matnida Fozil shoir qo‘llagan barcha o‘zlashma so‘zlarni tahlil qilish, ularga munosabat bildirishning imkoniyati yo‘q. Lekin biz bu o‘rinda dostonidagi turkiy, arabiy va fors-tojik tillarga xos o‘zlashma so‘zlardagi ko‘p ma’nodlilik masalasini aniqlashga qisqacha to‘xtaldik:

a) turkiy tillarga xos so‘zlarda ko‘p ma’nodlilik. Dostonidagi so‘zlarning bir qismi turkiy qatlamga xos: *yer, kon, so‘z, bel, avaylamoq, ayirmoq, aytmaz, angraymoq, aniq, axtarmoq, arqon, achchiq, bek, ber, bermoq, beshik, birikmoq, bitim, biqin, bola* singari narsa va hodisani ifodalovchi so‘zlar; *o‘tmoq, solmoq,*

¹⁵⁹ Ходжимусаева Н. Ислон шоирнинг “Орзигул” достонининг лисоний тадқиқи, Инновация-ЗИЁ, - Тошкент, 2019. - 52 б.

tortmoq, ko‘rmoq, tuzmoq, buzmoq, kesmoq, ketmoq, tushmoq, urmoq, chiqmoq, chekmoq, qilmoq, qolmoq, yoqmoq, boshlamoq kabi ish-harakat va holat ma’nosidagi soʻzlar shular jumlasidandir. Quyida ularning ayrimlariga eʼtiborni qaratamiz.

Bermoq. Hozirgi oʻzbek adabiy tilida bu soʻzning matnda qoʻllanishidagi oʻn maʼnosi aniqlangan¹⁶⁰ (OʻTIL, 1, 234-235). Dostonda faol ishlatilgan *bermoq* feʼli ham bir necha maʼnoni ifodalashi bilan diqqatimizni tortdi.

–“Muayyan xatti-harakatning davom etishi”: *Zevarxon otdan tushib bir oz damini oldi, yana otiga minib, ishq-muhabbati yuragini kuydirib, otining jilovini qoʻyib quva berdi (121).*

–“Yoʻq narsa bilan taʼminlamoq”: – *Bolam, agar vatan ixtiyor qilsang, parilarding ichidan chiroylisini olib berayin! – dedi (124).*

–“Hadya qilmoq, bagʻishlamoq”: *Malika shohdan hadik olib, xayfsinib yurardi. Malik shoh butparast edi. Hech kim zoʻrlamasa ham kuniga yuz tanga berar edi (156); Hech nimani olmagandan soʻng Zevarga bir xurjun tillo berdi (151).*

–“Qaramlik, tutqunlik, aybdorlik”: «*Bularni aqlli odam desam, ahmoq odamlar ekan. Uchar qush odamga doʻstlik qilami, bular podshoga oʻzini boylab berdi, u qutulib ketdi» (145).*

–“Uzatmoq, yoʻq narsa bilan taʼminlamoq”: *koʻzachadan quyib, oltin kosani toʻldirib, podshoga berdi (143).*

–“Xabar bermoq”: *Kunlardan bir kun bular keldi, ularni koʻp ziyofat qildi. Har qaysisiga sovgʻa uchun bir taxsim tilla berdi. Bular borib Zargar Gʻolibga xabar berdi (153); – *Daryoda ketdi,— deb berdi xabarni // Buyurdim qancha qul ham gʻavvoslarni (196).**

–“Qoʻliga tutqazmoq, ixtiyoriga topshirmoq”: *Tuyasini koʻshkining ostiga olib borib, Zevarxonga berdi (158).*

¹⁶⁰ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. (Беш томлик). –Т.:1. - Тошкент: ЎзбМЭ, 2006.; Т.2.– 2006; Т.3.– 2007.; Т.4. – 2008.; Т.5. – 2008.

– “To‘plamoq, yig‘moq”: *Ko‘shkdan qimmatbaho narsalar pastga tashlanyapti. Sa‘dulla olib, tuyaning ustiga bosaberdi* (159).

– “Yo‘q narsa bilan ta‘minlanmoq”: *Boshingdan ko‘targin urli kulfatni, // Tangrim bergan senga shunday davlatni* (166).

– “Joylashmoq, muayyan o‘rinni egallamoq”: *El joylashib, Malikai Xubon Istambulda arz so‘rab o‘tira berdi* (170).

Turkiy tillarga xos so‘zlardagi ko‘p ma‘nolilik masalasini o‘rganish davomida *bo‘lmoq* fe‘li quyidagi lisoniy holatlar: 1) ko‘makchi fe‘l vazifasida – (*i*)*b* affiksli ravishdosh shaklidagi yetakchi fe‘l bilan birikkanida harakatning birov, o‘zi uchun bajarilganligini, shuningdek, yetakchi fe‘ldan anglashilgan ma‘noni kuchaytirib ifodalash holatlari mavjudligi kuzatildi; 2) ko‘makchi fe‘l vazifasida – *a*, *-y* affiksli ravishdosh shakllaridagi yetakchi fe‘llar bilan birikib kelganida, ko‘pincha *-ver* shaklida talaffuz qilinadi va quyidagi ma‘nolarni ifodalaydi: a) yetakchi fe‘ldagi harakatning bajarilishi uchun qarshilik, monelik yo‘qligini bildiradi; u bemalol bajarilishi mumkinligini anglatadi; b) yetakchi fe‘ldagi harakatning davomliligi, takroriyiligini bildiradi. Bulardan tashqari, *bo‘lmoq* fe‘li yetakchi sifatida boshqa fe‘llar bilan birikib, qo‘shma fe‘l hosil qilishi va natijada matnda xilma-xil ma‘nolarni ifodalab kelishi holatlari ham kuzatildi.

Turkiy tillarga xos so‘zlarning ichidagi *o‘tmoq* fe‘li dostonida faol uchraganligi kuzatildi. Nufuzli lug‘atlarimizning birida bu so‘zning yigirma besh ma‘nosi¹⁶¹, Alisher Navoiy asarlari tilida¹⁶² o‘n ma‘nosi mavjud. “Malika ayyor” dostoni leksikasini tadqiq etgan I.Umarovning ta‘kidlashicha, *o‘tmoq* fe‘li dostonida 9 ma‘noda qo‘llanilgan¹⁶³. Biz o‘rgangan “Zevarxon” dostonida mazkur leksika quyidagi ma‘nolarni ifodalagan:

¹⁶¹Ўзбек тилининг изоҳли луғати. (Беш томлик). –Т.:1. – Тошкент: ЎзбМЭ, 2006, Т.5. – 181-183 б.

¹⁶²Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Т. II. – Тошкент: Фан, 1983-1985. – 614 б.

¹⁶³ Умаров И. Фозил Йўлдош ўғлининг “Малика айёр” дostonи лексикаси (тарихий-этимологик, функционал-семантик ва стилистик таҳлил). – Филол.фан.б.фалс.док...дисс.автореф. – Фарғона, 2020. – 27 б.

– “Muayyan vaqt, hisob”: *Zearxonni olib shaharga kirdi. O‘z saroyiga kirib uch kun oradan o‘tdi. Zearxon suv ichmadi, ovqat yemadi (124). Oradan bir kam qirq kun o‘tdi. Ertan bularning o‘ladigan kuni, deb turibdi (145).*

– “Muayyan imkoniyatni yo‘qotganlik”: *Mast uyquda yorim ketdi, // Endi mendan davron o‘tdi, // Uyqu olib aqlim ketdi, // Azob lahat bori o‘tti (160).*

– “Afsuslanmoq, taqdiriga tan bermoq”: *Shunday bo‘lib, kunim o‘tib keladi // Necha oy, necha yil bu yerda o‘tdi, // Maymundan xotinim bolalab ketdi (179); Hasratli dunyoda o‘tib boraman, // Podsho so‘rsa nima javob beraman (146).*

– “Muayyan yo‘nalishdagi hatti-harakatning sodir bo‘lishi”: *Bular necha bahodirlar bilan ov ovlab yurgandi. Bir quyundan to‘polon-to‘zon o‘taberdi (121); Minggan oti uchar qushdan o‘tadi, // Qanday yaxshiy bo‘lsa shunday otadi (128).*

– “Qarama-qarshi tomondagi harakatni yo‘q qilmoq”: *Dushman bo‘lsa boshin bovday chotarmiz, // Yo‘l to‘sganni qonin to‘kib o‘tarmiz, // Shamshoddan Bog‘dodga omon yetarmiz (158).*

– “Tanbeh bermoq, izsiz yo‘qolmoq”: *Bo‘shasang op ketar yulduz ostiga. // So‘ngra taylasami daryo ustiga, // Baliqlarga yemish bo‘lib ketasan, // Dunyodan benishon o‘lib o‘tasan (134).*

– “Avvalgi ma‘lumotlardan xabardorlik”: *Hazrati Luqmonning shogirdi bo‘lgan. // O‘tgan tabiblarning barini bilgan (142).*

– “Muayyan ma‘lumotni oshkor qilmoq”: *Shunday boshidan o‘tgan kulfatlarni gapirdi. // – Mening ahvolim ham shu ekan, — deb Zearxon g‘amgin bo‘lib turdi (179-180).*

– “Avvalgi ma‘lumotlardan xabarsizlik, yo‘qotmoq”: *Zearxon bul Malikai Xubonni ko‘rib, boshidan o‘tgan g‘am-kulfatlar esiga kelmay qolibdi (195).*

– “Muayyan yo‘nalishda harakatda bo‘lmoq”: *O‘tli, muzli necha tog‘lardan o‘tib, // Bu uchar qush g‘ayratini ko‘rsatib (152).*

–“Xohish, istak, orzu-niyat”: *Kecha-kunduz haqqa fig‘on etinglar // Kecha-kunduz demay yo‘lni tortinglar, // Chegaradan tunda o‘tib ketinglar!* (156).

–“Ta’sir etmoq, ta’siri yuzaga kelmoq”: *Seni ko‘rib mening aqlim ketibdi, // Ajalning xanjari bag‘rim yirtibdi, // Har so‘zing tayoqdan yomon o‘tibdi* (180).

– “O‘z yo‘nalishidagi joyini o‘zgartirmoq, biridan boshqasiga o‘rmoq”: *O‘tibman Asqar tog‘idan, // Kelaman Eram bog‘idan, // Kutqargin selning dog‘idan!* (173).

–“Muayyan joyda o‘tirmoq”: *Bular ovdan qaytib dasht yerda kelayotsa bir chol, bir yigit bir Semurg‘ni ushlab o‘tiribdi* (137).

“Zevarxon” dostonida yuqoridagilardan tashqari, yana ikki holatdagi ma’noning yuzaga kelishi kuzatildi:

1) “o‘tmoq” fe’lining ifodalagan mazmunidan ish-harakatni ifodalovchi otlar, *-i (sh)* qo‘shimchali ish-harakat nomi bilan qo‘llanib, shu so‘z bildirgan ish, harakat qilishni boshlash, shunga kirishish ma’nosini bildiradi.

2) yetakchi fe’ldagi harakatning davomlilikgi, yo‘l-yo‘lakay bajariluvchi harakat ekanligi kabi grammatik va modal ma’nolarini ifodalash uchun xizmat qiladi.

b) o‘zlashgan arabiy so‘zlarda ko‘p ma’nodlilik. Biz o‘rgangan “Zevarxon” dostoni matnida ot so‘z turkumiga kiruvchi tilimizga arab tilidan o‘zlashgan o‘ttizdan ortiq, masalan, *avval, ajal, azob, ayb, amaldor, arz, badan, balo, vatan, vaqt, vafo, davlat, duo, dunyo, jallod, jamol, jasad, jafo, zolim, zot, imon, insof, kulfat, libos, lochin, maslahat, murod, olam, oshiq* singari so‘zlar o‘zining ko‘p ma’nodlilik xususiyatlarini namoyon qilganligi aniqlandi. Quyida ulardan ayrimlarining matn tarkibida qo‘llanish holatini kuzatamiz.

Amaldor so‘zi tilimizga arab tilidan o‘zlashgan so‘z bo‘lib, nufuzli lug‘atlarda uning bitta ma’nosi, ya’ni “amal egasi, mansab-amal egasi, lavozimli shaxs”¹⁶⁴ ma’nosi mavjudligi qayd etilgan. “Zevarxon” dostonida bu leksema bir qator ma’no ottenkalarini ifodalashga xizmat qiladi:

¹⁶⁴Ўзбек тилининг изоҳли луғати. (Беш томлик). –Т.:1. – Тошкент: ЎзБМЭ, 2006, - 46-бет.

– “Mansabdor, yuqori lavozimga ega bo‘lgan shaxslarning mavjudligi”: *Poshshoyimiz qoshida qancha amaldor, // U yerda ham qancha dardmand kishilar (141); Zangarda bor edi qancha amaldor (152).*

– “Minnatdorchilik, xayrihohlik”: *Sizdan o‘zgani bu qush bilmadi, // Minnatdorlik qildi qancha amaldor (169).*

– “Mansab-amal egasi bo‘lmoq”: *Oqshom yotib, erta-mertan tong otdi. Hasanxonni chaqirib beklarbegi amal berib, o‘zining qoshida sipoh - amaldor qilib quydi (175).*

– “Xizmat qiluvchi mansabdor”: *Mening o‘lkam edi Chinmochin shahar, // Xizmatimda tayyor edi amaldor. // Chinmochinda menda shanu shavkat bor, // Xizmatimni qilar edi ko‘p beklar (178-179).*

– “Muayyan joydan chiqib, xulosaga kelmoq”: *Amaldorlar, shabgirlar undan ketadi, // Zindoning boshiga bular yetadi, // Necha so‘zni amaldorlar aytadi (189).*

– “Buyruq-topshiriq bermoq”: *Amaldor ko‘nglimda senga aytaman. // Uch kungacha bunda hech qaysing bo‘lma, // Jonzod bo‘lsang bunda hech qaysing qolma. //*

Endi tilimizga arab tilidan o‘zlashgan so‘z sifatida kirib kelgan *asl* (*asil*), *asli* singari so‘zlarning doston matnida qo‘llanilish jarayoniga va unda ifodalangan ma’nolarga e’tiborni qaratamiz:

asl→asli: nufuzli lug‘atlarning birida *asl* so‘zining quyidagi ma’nolari qayd etilgan: 1.kelib chiqishi, kelib chiqish e’tibori bilan qarashlilik; nasli, tagi; 2.kelib chiqqan (asos) joyi; 3.chin, chinakam, haqiqiy¹⁶⁵. *Asli* so‘zi ham shu kabi ma’nolarni, shuningdek, haqiqat e’tibori bilan, aslida; odatga ko‘ra, tabiatan; aslida kabi ma’nolarni anglatadi¹⁶⁶. “Zevarxon” dostonidagi mazkur so‘zlar matn tarkibida quyidagi ma’nolarini ifodalashi aniqlandi:

Asl: *Shunday asl qiz sening tengingmi? // Ne ish boshlab ko‘p g‘avg‘olar qilasan (164).* Matndagi *asl* so‘zi doston matnida faqat bir marta qo‘llanilgan va

¹⁶⁵ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. (Беш томлик). –Т.:1. - Тошкент: ЎзбМЭ, 2006, - 106-107 б.

¹⁶⁶ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. (Беш томлик). –Т.:1. - Тошкент: ЎзбМЭ, 2006, - 107 б.

chin, chinakam, haqiqiy ma'nolarini ifodalashga xizmat qilgan. Bu matn qirq qaroqchilarning boshlig'i Sa'dulla kalga aytgan so'ziga tegishlidir.

– Kelib chiqishi, nasli: *Shamshoddir mening yurtim, // Zargardir asli zotim (122); Zevar asli Bog'dod elda turadi, // Tabiblikni kasb qilib yuradi (141).*

– Fikrning to'g'riligini (epik qahramonning shunday munosabatini) bildiradi, aslida: *Men bilmayman asli Luqmondan qolgan, // Hazrati Luqmonning shogirdi bo'lgan. // O'tgan tabiblarning barini bilgan, // Shunday dono kishi Zangarga kelgan (142).*

– Boshlanishi, asli: *Ul shohning ko'ngliga g'alo-g'ul tushdi, // Dardmand edi asli, podsho dardi bor, // Tabib desa ko'nglidagin qaratar. // – Unday bo'lsa borib bergaysan xabar, // Meni davlatima op kelmoq darkor (142).*

– Asli, oldindan: *Uzoq yo'lga safar qilib boraman, // So'ylamaysan asli o'zing bilasan. // Nima deb so'ylasak tushib turasan (143).*

– Haqiqatan e'tibor bilan, asli: *O'rlik bilan yurding umr kechirib, // Yo'lli bo'lding, qoldi baxting ochilib. // Chopgan ekan asli sening iqboling, // Asli bu jahonda yo'qdir bu yoring (165).*

– Haqiqatan ham, to'g'risi: *Asli o'zim tarkidunyo qilganman, // Bir gap bilan tuya minib yurganman (168).*

– Aynan, asli: *Tunlari g'amga chulg'ongan, // Bu rasming bunda qolgan, // Asli o'zing qayda, jonon? (187) kabi.*

“Zevarxon” dostonida arab tilidan o'zlashgan leksemalardagi ko'p ma'nolilik hodisasi belgi-xususiyatni ifoda etuvchi so'zlarda ham uchradi. *Ulug'* leksemasini olaylik. Bu so'z “egallangan o'rni, hajmi g'oyat yirik, juda katta, ulkan, buyuk” kabi¹⁶⁷ ma'nolarni ifodalagan. Bu so'z dostonida bir marta qo'llangan va “buyuk, yoshi katta, obro'li” ma'nosini ifodalagan: *Shahanshohlar har shaharda, // Chorvadorlar kezar cho'lda. // Ulug' kishi nazarkarda // Duosin olgan yaxshiroq (139).*

¹⁶⁷ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. (Беш томлик). Т.4. – Тошкент, 2008, – 280 б.

Tilimizga arab tilidan o‘zlashgan va “ulug‘, qadrli” kabi ma’nolarini anglatuvchi “*aziz*” so‘zi ham doston matnida uchraydi. Bu so‘z bor-yo‘g‘i besh marta qo‘llangan, uning shakldoshlaridan *azizlab, azizlardan, azizlarni, azizni* singlarlar 1 martadan uchraydi. Gap bu yerda ularning statistikasi emas, balki qaysi ma’nolarda qo‘llanishi haqida bormog‘i lozim. Bizning aniqlagan ma’lumotlar quyidagilardan iboratdir:

– E’zoz-e’tiborga, izzat-ikromga loyiq, ardoqli: *Sulaymon davlatli aziz sultonim, // Gul yuzli sultonim, holing na bo‘ldi? (123); Men kelaman bunda yo‘llarni yurib, // O‘tkazganman qancha azizni ko‘rib, // G‘ilmonlarman men ham suhbatim qurib (168)*. Bu matnlarning birinchisida *aziz sultonim* birikmasi “podshohim” ma’nosini, ikkinchisidagi *aziz* so‘zi “aziz-avliyolar” ma’nosida, uchinchisidagi *g‘ilmonlar* so‘zi arabcha “g‘ulom” so‘zining ko‘pligi bo‘lganligi bois bolalar, yigitlar; xizmatkor ma’nosini ifodalagan. Islomiy-diniy tasavvurga ko‘ra *g‘ilmon* so‘zi jannatda xizmat qiladigan yosh, go‘zal yigit ma’nosida qo‘llanadi. Xalq dostonlari tilida bu so‘zning ayni ma’nosi ham mavjud. Masalan, “Yusuf va Ahmad” dostonida quyidagi misralarda buni kuzatamiz: “*Huzur ko‘rib g‘ilmonlarni quchganlar, beklarim joningga qurbon bo‘layin*”. Ko‘ramizki, ikkinchi misoldagi *g‘ilmonlar* so‘zi epik qahramonlardan biri Malikai Xubon nutqida qo‘llangan va matnda uning safdoshlari hisoblangan yigitlar, xizmatkorlar nazarda tutilmoqda.

– Hayot uchun eng qadrli, tengi yo‘q: *Bu yerda kesilur bu aziz boshim, // Mendan xabari yo‘q qavm-qardoshim. // Zahar-zaqqum bo‘ldi bu ichgan oshim! (146); Bugun kesiladi bu aziz boshim. // O‘lib ketsam yo‘qdir yurar yo‘ldoshim (146); Bu aziz boshim chang bo‘lib, // Diydalarim purnam bo‘lib (160)* kabi.

– Qadrli, nigohiga tushmoq, ulug‘: *Podsho ro‘para bo‘lgandan Hasan vazirni tanidi. – Bu yoqqa chiqib o‘ltiring, mehmon, — deb o‘tqizib, dasturxon yozdirib, oldiga taom tayyor qildirib qo‘ydi. Hasanxon aytdi: – Xudo aziz qilgan odam hech yerda xor bo‘lmaydi ekan (174)*.

–Ulug‘lab, qadrlab, hurmatlab: *Podsho toshqini kelib, bularning xizmatini bilib, azizlab, hurmat qilib, endi tabiblar, tila maqsadingni, deb turibdi (149).*

–Mo‘jiza ko‘rsatuvchi, karomat, bashorat qiluvchi: *Bir gap bilan tuya minib yurganman, // Azizlarni ziyorat qip ko‘rganman. // Azizlardan najot topib qolganman, // Otamda bor edi u shon-u shavkat (168).*

v) **fors-tojikcha o‘zlashmalarda ko‘p ma‘nolilik.** “Zevarxon” dostoni matnida tilimizga fors-tojik tillaridan kirib kelgan o‘zlashma so‘z ham anchagina uchradi. Masalan, *avval, devor, yaqin, afzal, afsona, barkamol, barvasta, bahaybat, bejo, bezori, bemahal, bekor, bezor, botir, vayron, gado (gadoy), gilam, gapirmoq, gulshona, go‘r, go‘sh, darbadar, darbandi, darg‘azab, dod, dilbar, janon, karvon, kosa, majlis, mard, mozor, nodon, rang-ro‘y, savdogar, tana, tilla* kabi uch yuzdan ortiq so‘zlar shular jumlasidandir. Bu o‘rinda ularning ayrimlarini ko‘zdan kechiramiz:

Bekor: bu so‘z fors tilidan o‘zlashgan va “ishsiz” ma‘nosini ifodalaydi. “Zevarxon” dostonida ushbu so‘z quyidagi ma‘nolarda qo‘llangan.

Inkor qilmoq: *So‘zimga quloq sol, turgan dilovar, // Jamolin oldida oro kun bekor! // Odam tuxmi ko‘rsa qolmaydi qaror (124).*

Befoyda, o‘rinsiz: *Xalq naflangan ani ajab ishi bor, // O‘zga tabibman deb so‘ylasa bekor, // Ko‘rib kelib sizga berganman xabar (142); — Hoy bolam, sen bu yurtning odami emassan. Bu shaharda bekorga yurma. Kun botmay bu shahardan chiqqin (185).*

Naf-foydasi bo‘lmagani holda: *Bu tabiblar bekor ishni qilar deb, // U Semurg‘ kelmaganda tayin o‘lar deb, // Tabiblar joniga jabr qilar deb (145); Bu so‘zlarni unga sipohiy aytdi, // – E hakimlar, bu yurishing bekordi (141).*

Asossiz, sababsiz: *Keling endi, mirg‘azab jallodlar, // Makkorlikman qilgan ishlari bekor! // Uchar qushga kafil bo‘lgan hiylador! (147); Bekorga o‘zingni abgor aylama, // Bu daraxtlar senga meva bermaydi (183).*

Shubha, sababsiz, behuda: “Shul pulni menga bekorga bermaydi, ko‘nglida bir gapi bor, bir chatoq chiqaradi”, deb yurar edi (156);

Adab doirasidan chiqish, odobsizlik: Barori bo‘lmagan ishdan // Tebranmay yotgan yaxshiroq. // Beadabning joyi nordi, // Beadablik bekordi (139).

Endi ona tilimizga fors-tojik tillaridan kirib kelgan, faol so‘z sifatida yozma va og‘zaki nutqda qo‘llanadigan *gap* so‘zining doston matnidagi holatini kuzatamiz. Aslida bu so‘z quruq safsata; maqtanchoqlik kabi ma’nolarini ifodalaydi va doston matnida juda faol qo‘llangan. Masalan, *gap* so‘zi 18 marta, uning shakldoshlaridan *gapga, gapi, gapiga, gapidan, gapimni, gaping, gapirgani, gapirganim, gapirgin, gapirgin, gapirdi, gapirdim, gapirib, gapirishga, gapirmas, gapirsa, gapirib, gaplab, gaplar, gaplaring, gaplashadi, gaplashardi, gaplashgani, gapman* singarilar bir martadan, *gapirar, gapirdim, gapirib, gaplashib, gaplar, gapni* kabilar esa ikki martadan qo‘llanganligini biz tomonimizdan tuzilgan “alfavitli-chastotali lug‘at”dagi ma’lumotlar to‘liq quvvatlaydi. Umuman, **gap** so‘zi va uning shakldoshlarining matnda anglatgan ma’nolari anchagina. Ulardan ayrimlariga ko‘z yugurtiramiz:

– So‘zlar orqali bayon etilgan fikr; so‘z, nutq, murojaat: *So‘z aytayin, bobo, senga mehribon, // Senga gap gapirar bilsang Zevarxon, // Noinsoflar ketdi ko‘p tashvish berib // Ayamay boshingga qamchilar urib, // Taqdiringga shunday qismat yozilib... (138);*

– Ma’lumot, xabar, mish-mish: *Bunda qushni jo‘natib, odamlar gap qip yotdi. Ertan bularning o‘ladigan kuni, deb turibdi (145);*

– Afsuslanish, bir gap bilan xatolikka yo‘l qo‘ymoq: *G‘ariblik paymoni to‘ldi, bobojon! // Esiz mening g‘amsiz boshim, // G‘amxona bo‘ldim, bobojon! // Bir gap bilan oshno-yordan, // Begona bo‘ldim, bobojon! (147);*

– Gap boshlamoq, gapga tayyorlanmoq: *O‘ltirish vaqtini xushlab, // Masti beixtiyor bo‘lib, // Zevarxon endi gap boshlab, // Sozini qo‘liga olib (154);*

– Ogohlantirish, iqrorlik, iltijo qilish: *Tushmasin boshima qayg‘uli tuman, // Adashganman yo‘lga solgin, Hasanxon. // Har gap bo‘lsa sening o‘zing bilasan, // Bog‘dod borsang xo‘p hikoya qilasan (157);*

– Boshqalar muhokamasiga tushmoq, gap-soʻz boʻlmoq: *Hayron boʻldi Hasan, Zevar, // Gʻam ustiga gʻam ulashib, // Bilmayman qanday gap boʻlar, // Tavakkal deb Hasan turar (161);*

– Biror shaxs (podsho) haqida notoʻgʻri gap tarqatmoq: *Necha boʻyni yoʻgʻon juvonlar “ilgaridan oʻlgan ekan, hech maʼlum qilmagan, boylar kambagʻalga oʻlja boʻlmagan. Bu shumlikni xalq fuqaro bilmay qolgan” deb gap qildi (170);*

– Nima boʻldi, nima gap: *Bu soʻzni aytib amaldorlar haydadi, // Qalandarlar soʻzni nima biladi? // Na gap desa sipohiyilar uradi (171); Sipohiyilar bari hayron qoladi. // —Bu podshomiz qanday ishlar qiladi, // Nima gap ekanin oʻzi biladi (172); Nima gap?— deb endi bunda oʻyladi. // Bu yoqqa yur,— dedi buni haydadi (172);*

– Gapini yoʻqotib qoʻymoq, adashmoq: *Bir holvaday pishgan, aqli shoshgan, balki gapirar gapidan adashgan, yoshi ulgʻayib yetgan, juda qarib mazasi ketgan, elaslub bir boboy koʻrindi (132).*

“Zevarxon” dostoni matnida qoʻllangan forsha-tojikcha oʻzlashmalardan yana biri **avval** soʻzidir. Uning koʻp maʼnolilik xususiyatlari quyidagi koʻrinishlarga ega ekanligi aniqlandi:

– Muayyan xatti-harakatning boshlanishida, boshida: *Yoyim oʻqin qaysing ilgari olsang, // Avval yetib olganingman boʻlayin (165);*

– Birinchi boʻlib, dastlab: *Abjillikman avval borib olgandi, // Bachchagʻarning yoʻli boʻlib qolgandi. // Baxti chopib bunday ishlar boʻlgandi (166); U qiz turib aytdi: - Sen talashma, men bir yoy tortaman. Shu yoyning oʻqini qaysing avval olsang, shunga tegaman,— dedi (191);*

Xullas, “Zevarxon” dostonidagi oʻzlashma soʻzlar faolligi bilan koʻzga tashlanadi, ularning ichida turkiy va fors-tojikcha soʻzlar koʻpchilik miqdorni tashkil etadi.

3.2-§. “Zevarxon” dostonidagi eskirgan va tarixiy soʻzlar

“Zevarxon” dostonidagi leksik birliklarning qoʻllanilishi holatiga nazar solinsa, dastlab eski, eskirgan va tarixiy soʻzlar oz miqdorda, koʻpchilik asosiy

qismini esa faol soʻzlardan iborat ekanligini kuzatamiz. Ularning ayrimlarini qisqacha tahlil qilishga urinib koʻrdik:

b u r u n – burun leksemasi “qadimgi, eski”¹⁶⁸ kabi maʼnolarni anglatadi, bu leksema “Zevarxon” dostonida ham qoʻllangan va ayni maʼno epik qahramonlardan Zevarxonning nutqida ifodalangan: *Yoʻl boshqargan jonajonim // Bunda qilib keldim safar, // Burungiday boʻlmas xatar (184); Shunda buni haydab bordi. Burungilarday jerkib, siyosat qib, zindonga solmadi. Dasturxonchilarga imo qildi (188).* “Qadimgi”, “eski”, “avvalgi”, “oldingi” maʼnolarini ifodalovchi **burun** leksemasi muayyan tananing aʼzosi, bir boʻlagi maʼnosida ham qoʻllangan: *yerlarda ogʻzi angrayib, burni tangrayib qarab turib edi bir mardikalon moʻysafid kishi aytdi: — Hoy bolam, sen bu yurtning odami emassan (185).*

m a j d a n – maydon. “Urush, jang boʻladigan joy”¹⁶⁹ maʼnosini ifodalovchi bu leksema “Zevarxon” dostoni matnida 5 marta qoʻllangan. *Maydon boʻlsa sherday qaysar, // Maydon boʻlsa Hasan toshar, // Bul maydonga Hasan tushar. // Urushda daryoday toshar (161-162); Yurgan yoʻl azobi esingdan chiqar. // Maydon boʻlsa kelib dushmanga gʻolib, // Malika yoringni bu eldan olib (158).* **Maydon** leksemasi shakldoshlaridan **maydonga** 2 marta, **maydonida**, **maydonini** singari esa 1 martadan uchraydi va ularning hammasi yuqorida taʼkidlangan maʼnoni ifodalashga xizmat qilgan.

T oʻ n – toʻn. Qadimgi turkiy manbalarda bu leksema kiyim-kechakning bir turi nomini ifodalagan. Mazkur leksemaning qoʻllanish doirasi va etimologiyasiga nazar solamiz. *Bari, endi seniki boʻldi, biz hech nima deyoilmaymiz, deb kelsa tuya ham yoʻq, boyagi qiz ham yoʻq. Bularning yaxshi etiklarini kiyib, toʻnlarini, jiyakli sallalarini oʻrab, erkak suratida boʻlib, tuyasini minib ketib qopti (166).*

G.Jumanazarovanning aniqlashicha, “Tarixiylik nuqtayi nazaridan dostonlarda uchraydigan eskirgan soʻzlar mazkur manbalar uchun tarixiy yoki arxaik soʻzlar emas. Chunki dostonlar yaratilib, asrlar osha kuylanib kelinganida, bu soʻzlar juda mahsuldor boʻlgan va shu sababli ular dostonlarning badiiy

¹⁶⁸Древнетюркский словарь. – Ленинград: Наука, 1969. – С. 24.

¹⁶⁹Древнетюркский словарь. – Ленинград: Наука, 1969. – С. 399.

to‘qimalariga chuqur singib ketadi”.¹⁷⁰ Bu mulohazalardan ayon bo‘ladiki, eskirgan so‘zlar uzoq tarixiy taraqqiyot bosqichlarini bosib o‘tgan: ayrimlari fonetik jihatidan qisman farqlanadigan, boshqa namunalari esa fonetik shakliga ko‘ra o‘xshash, biroq semantik jihatdan farqlanadigan holatlarga kelib qolgan. “Zevarxon” dostonidagi eskirgan so‘zlarning muayyan bir qismi qadimgi turkiy tilga mansub yozma manbalar yoki nufuzli lug‘atlarda uchraydi. Ayni lisoniy holat muayyan eski so‘zlarning yaratilish va qo‘llanish tarixi uzoq-qadim davrlarga borib taqalishini tasdiqlaydi. Bu o‘rinda *eng*, *yugruk*, *uzuk* singari eskirgan so‘zlar va ularning evolyutsion bosqichlariga nazar solamiz.

A n g – ong. Ayrim nufuzli lug‘atlarda qayd etilishicha, *ang* (*ong*) – muayyan qushning nomi sifatida qadimgi turkiy manbalarda faol qo‘llanilgan¹⁷¹. L.Z.Budagovning lug‘atida “*ang* so‘zi o‘zbek va boshqa turkiy tillarda ovlanadigan qush va hayvon, usmonli turk tilida *ang* – *it bolasi* va har qanday yosh hayvon”¹⁷² ma’nolari mavjudligi ko‘rsatilgan (103-b). Navoiy asarlari lug‘atida esa *ang* – ovlanadigan hayvon va ov ma’nosida qo‘llanilgan. Tadqiqotimiz obyekti “Zevarxon”da ham bu so‘z qo‘llangan: *Zangar shaharining podshovachchalari, sarkarda, beklari cho‘ldan ong otamiz, qo‘lga qarchig‘ay solib, o‘rdak, g‘oz ushlatamiz, deb ovda yurgan edi* (137). Ko‘rinadiki, ushbu matnda *ong* – qush va hayvon ma’nosida qo‘llanilgan. Ushbu so‘z doston ijrosida baxshi tomonidan epik qahramonlarning muayyan ruhiy holati va hatti-harakatlari tufayli butunlay yangi bir ma’noda qo‘llanganligi kuzatildi, ya’ni fonetik shakliga ko‘ra o‘xshash, biroq semantik jihatdan farqlanuvchi eskirgan so‘z sifatida uchragan: - *He, biz chiqdik, Zevarxon ketdi, — deb pushaymonlar, qilib, Istanbul darvozasidan kirib bordi. Boyagi suratni ko‘rib, ongi kirib qoldi. Qo‘rboshilar uni angrayib turganini ko‘rib: “Bu suratga nimaga qaraysan? Bu suratda nima ishing bor, seni ham zindonda o‘lging keldimi?” deb turtkilab Hasanni ham podshoning oldiga haydab bordi* (174). Ko‘ramizki, *ongi* so‘zi *hayron qolmoq* ma’nosida qo‘llangan. Bu

¹⁷⁰ Жуманазарова Г.У. Халқ дostonлари тилининг лингвопoeтикаси. - Тошкент, 2012, - 46 бет.

¹⁷¹ Древнетюркский словарь. – Ленинград: Наука, 1969. – С. 46.

¹⁷² Будагов Р.А. Введение в наука о языке. – Москва: Учпедгиз, 1958. - С. 103.

ma'no dostonning bir o'rnida fonetik jihatidan o'xshash bo'lgan boshqa *chang bo'lmoq* birikmasi orqali ham ifodalangan va "*hayron bo'lmoq*" ma'nosini yuzaga chiqarganligini ham kuzatdik: *Zearxon bilan bobo ikkovi, nima qilarini bilmay gang bo'lib qoldi Zearxon aytdi: — Bobo aqlingni yitirma, bizlar u mamlakatga ham borarmiz, Semurg'ni tag'in topib olarmiz! (138).*

j u g r u k – yugruk (yuguruk). Bu so'zlar ham ko'p ma'nolilik xususiyatiga ega. M.Qoshg'ariy o'zining "Devon"¹⁷³ida qadimgi turkiy tilda bu so'zning ikki xil ma'noda qo'llanishini qayd etgan: "*jugruk at* – poygada o'zib ketadigan ot; *jugruk bilga* – o'g'uzlar bilag'on, donishmand, ziyrak va fozil kishilarni *jugruk bilga* deganlar"¹⁷⁴. Tilshunos L.Z.Budagovning lug'atida *yugruk at* va *yuguruk kishi* – chopqir ot; "chaqqon, tez yuruvchi kishi"¹⁷⁵ ma'nolarini ifodalashi ta'kidlangan. Biz o'rgangan "Zearxon"da ham ta'kidlangan so'zlarning ma'nolari saqlanib qolganligi ko'zga tashlanadi: *Uchqur edim, qanotimdan qayrildim, // Yugurik bo'lsam tuyog'indan tayrildim. // Mehnat qilib tutib edim Semurg'ni, // Armon bilan men qushimdan ayrildim (138).* *Yuguruk* so'ziga xos "chaqqon", "tez yuruvchi" kabi ma'nolar uning shakldoshlaridan *yugurib, yugurib-yelib* singari birikmalarda ham o'z ifodasini topgan: *Har to'qayga yugurib-yelib, // Qarab yurdi maymunlari (182).* Dostonda ushbu so'zning yana bir shakldoshi (*yugurtib*) "ko'rmoq", "qarab chiqmoq" ma'nolarida ham qo'llanganki, bunday lisoniy holat baxshining stilistik imkoniyatlaridan (so'z tanlash san'atidan) kelib chiqqan deyish mumkin: *Ko'z yugurtib Zevar bo'ylab qaradi, // Bir tarafda bir Chorvoqni ko'radi (132).* Matnda *ko'z yugurtmoq* birikmasidan epik bayonni berishda baxshi-shoir maqsadli foydalana olgan.

Y u z u k – yuzuk – uzuk. Qadimgi turkiy manbalar va etimologik lug'atlarda bu so'zning dastlabki shakli – *yuzuk*¹⁷⁶ tarzida qo'llaniladi. O'zbek xalq dostonlaridan "Zearxon"da *yuzuk* shaklida uchraydi. Buni Malikai Xubonning Zearxon bilan dastlabki uchrashuvida, unga bir kosa suv berib aytgan nutqida

¹⁷³ Махмуд Қошғарий. Девону луғотит-турк. Уч жилдлик.- Тошкент: Фан, 1963. 2-жилд. – 390 б.

¹⁷⁴ Древнетюркский словарь. – Ленинград: Наука, 1969. – С. 52.

¹⁷⁵ Будагов Р.А. Введение в наука о языке. – Москва: Учпедгиз, 1958. - С. 380.

¹⁷⁶ Древнетюркский словарь. – Ленинград: Наука, 1969. – С. 228.

kuzatamiz: *Malikadir bilsang otim, // Shamshoddir mening yurtim, // Zargardir asli zotim, // Yuzuklarim nishon senga! (122).*

Tilshunosligimizda “Zevarxon” dostonidagi eski va eskirgan soʻzlarning maʼnolari, tarixiy leksikasidagi oʻmi, ayrim hollarda qipchoq shevasi bilan mushtaraklik kasb etganligi, tarixiy taraqqiyoti bilan bogʻliq dolzarb masalalar haqida izlanishlarni olib borish ehtiyoji sezilyapti. Bu borada bizning imkoniyatlarimiz biroz cheklanganligi bois dostonidagi quyidagi lisoniy oʻrinlar mavjudligini taʼkidlamoqchimiz:

a) dostonida va hozirgi oʻzbek adabiy tilida bir xil shaklga va mazmunga ega boʻlgan eski soʻzlar: masalan:

– *a p a* (DTS, 43) // *ona* (Devon, I, 119) // *ona* // *ena* (OʻTIL, 254) va “Zevarxon” dostoni;

– *b a j* (DTS, 79) // *boy* (Devon, III, 173), (OʻTIL, 56) va “Zevarxon” dostoni.

b) arab tilidan oʻzlashgan eski soʻzlar: Masalan:

– *‘ a z a b* (ARS, 505) // *azob* (OʻTIL, I, 30; OʻTEL, II, 20-21 va “Zevarxon” dostoni.

– *a r z u* (DTS, 59) // *orzu* (OʻTIL, I, 541; OʻTEL, III, 172) va “Zevarxon” dostoni.

– *c a r a y* (DTS, 488) // *saroy* (OʻTIL, II, 24, OʻTEL, III, 208) va “Zevarxon” dostoni.

Keltirilgan tahlillardan maʼlum boʻladiki, *ona*, *boy*, *azob*, *orzu*, *saroy* singari va yuqorida aytilgan eskirgan soʻzlar ham uzoq tarixiy bosqichlarini bosib oʻtgan. Qadimiy turkiy manbalar va etimologik lugʻatlardan, qolaversa, “Zevarxon” dostonida ham uchraganligi yana bir bor tasdiqlaydi.

Tarixiy soʻzlar. Eskirgan soʻzlarning deyarli hammasi tarixiylik kasb etganligi bois ularni muayyan maʼnoda tarixiy soʻzlar nomi bilan atash mumkin, albatta. Bu oʻrinda bunday soʻzlarning “Zevarxon” dostonida qoʻllanish doirasini kuzatamiz.

1. Lavozim, mansab-martaba tizimiga oid soʻzlar. Bunday leksik birliklar quyidagi leksik-semantik guruhlariga ajratildi:

a) Yuqori lavozim, oliy mansab nomini bildiruvchi leksemalar (*podsho* (shevada *poshsho*), *sulton*, *xon*, *vazir* kabi);

b) muayyan vazifa uchun mas'ul bo'lgan shaxs tushunchasiga oid leksemalar (*vallamat*, *amir*, *qozi*, *mirshab*, *bek*, *qo'rboshi*, *so'fi*, *sardor*, *elchi* singari);

v) madaniyat, san'at ahli va soz nomini ifodalovchi leksemalar (*sozanda*, *hofiz* kabi);

g) muayyan xizmatni bajaruvchi shaxs (epik qahramon) nomini bildiruvchi leksemalar (*soqi*, *meshkop* (*meshkob*), *farrosh* kabi).

2. Harbiy soha tizimiga oid leksemalar. Dostondagi bu tipdagi so'zlarni funksional-semantik xususiyatiga binoan quyidagi guruhlariga ajratish maqsadga muvofiq:

a) harbiy harakatlarda ishtirok etuvchi epik qahramon tushunchasiga oid leksemalar (*navkar*, *shafomon* (*mergan*), *sipoh*, *dushman*, *otliq* (*otmich*), *askar*, *asir* kabi);

b) harbiy qurol-yarog' tushunchasiga oid leksemalar (*aslaha*, *sovut*, *sipar*, *nayza*, *qilich*, *sadoq*, *parli yoy* (*kamon*), *gurzi-garov*, *shamshir*, *harba* (*harf*), *hanjar*, *sadoq*, *shamshir* kabi);

v) harbiy xatti-harakatlar tushunchasiga oid leksemalar (*hamla*, *zarb* (*zarba*), *bosmoq* (*bosib olmoq*), *urush*, *lashkar* kabi);

g) harbiy inshoot va epik makon tushunchasiga oid leksemalar (*zindon*, *choh*, *darband* singari).

3. Ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni va ma'muriy-hududiy bo'linishni ifodalovchi leksemalar (*hukm*, *farmon*, *yurt*, *mamlakat*, *o'lka* kabilar);

4. Uy-joy nomlari, uning qism va jihozlari nomlariga oid leksemalar (*qo'rg'on* (*qal'a*), *uy*, *saroy*, *hujra*, *ayvon*, *ustun*, *obxona*, *sardoba*, *jevaxona*, *bo'sag'a*, *zina*, *darvoza*, *eshik*, *tom* (*uy*), *to'r* kabilar);

5. Taom va oziq-ovqat nomlariga oid leksik birliklar (*chulon*, *ta'til*, *non*, *sharbat*, *sho'rva* kabilar);

6. Uy-ro‘zg‘or buyum va jihozlari nomlariga oid maishiy leksik birliklar (*taboq (tavoq), qozon, pichoq, g‘alvir, objuvoz, yorg‘uchoq, chiroq (chirog‘), to‘rva* va hokazolar);

7. Kiyim-kechak, libos va matolar nomlariga oid maishiy leksemalar (*xisvat, to‘n, salla, qalpoq, kovush, kimxob, fo‘ta (po‘ta), lavdon, kuloh, shoyisholdom, banot, davdon* singlarlar);

8. O‘lchov birliklari nomlariga oid leksemalar (*botmon, qadoq, chorak, pud, lak, lak-lak* kabilar);

9. Diniy tasavvur va aqidalar nomlari bilan bog‘liq so‘zlar (*a‘lam, panog‘dor, pir, dev, shayton, chilton, avliyo, azoyimxon, eshon, xo‘ja* kabilar).

“Zevarxon” dostonidagi eskirgan va tarixiy so‘zlar haqida gap borar ekan, bu o‘rinda, ularning tarixiyligi va zamonaviyligini hisobga olish, ayni choqda, ikki xil ma‘no ifodalanganligini e‘tiborga olish zarur. G.Jumanazarova bu tipdagi so‘zlarning o‘tmishdagi va hozirgi kundagi anglatgan ma‘nolarini quyidagicha izohlagan: “*Birinchisi* – eski so‘zlar qatlamlarining namunalari: unda so‘z ham, ma‘nosi ham eskirishidan paydo bo‘lgan, lekin so‘z bilan bog‘liq bo‘lganligi bois uning ma‘nosi faqat o‘tmishning ijtimoiy-tarixiy hayotiga tegishli. Ularning hozirgi jonli so‘zlashuv nutqida qo‘llanishi xos emas (masalan, *podsho, kanizak, jallod* singari). Bular xalq dostonidagi eski so‘zlar qatlamining namunalaridir. *Ikkinchisi* – eski so‘zlar qatlamining semantik namunalari. Bunda muayyan so‘z asosiy rol o‘ynamaydi, material jihatidan iste‘molda qo‘llanaveradi, lekin ular ma‘nosiga ko‘ra eskirgan bo‘ladi. Bunday so‘zlar istalgan yangi davrda, masalan, mustaqillik davrida yangi ma‘noda keng iste‘molda bo‘ladi, uning avvalgi ma‘nosi esa tarixga, o‘tmish davrga tegishli bo‘ladi. Bunday namunalarni xalq dostonlaridagi eski so‘zlar qatlamlarining semantik guruhlari qatoriga kiritish lozim bo‘ladi.¹⁷⁷

Professor G.Jumanazarovanning bu mulohazasini biz ham ishimizning ushbu bo‘limiga metodologik asos qilib oldik. Shundan kelib chiqqan holda, “Zevarxon”

¹⁷⁷ Жуманазарова Г.У. Фозил Йўлдош ўғли дostonлари тилининг лингвопoeтикаси. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2012. – 47-бет.

dostoni matnida uchragan eski qatlamdagi ayrim soʻzlarning dastlabki va keyingi, yaʼni yangi maʼnosini nazardan oʻtkazamiz. Masalan, dostonida eng koʻp va faol uchragan *vazir* soʻzini olib koʻraylik. Bu soʻz qoʻllanishiga koʻra ham tarixiylik, ham zamonaviylik lisoniy xususiyatni ifodalagan. Uning dastlabki maʼnosi: “*noib, podsho, xon, amirga* davlat ishlarini boshqarishda yordam beruvchi oliy mansabdor”. Aslida bu soʻz arab tilidan oʻzlashgan, hozirgi kunda uning ikkinchi maʼnosi ham mavjud: davlatning muayyan sohasini boshqaruvchi birinchi rahbar (masalan, oliy va oʻrta maxsus taʼlim va innovatsiyalar vaziri, qishloq xoʻjaligi vaziri). Yoki *saroy* soʻzini olaylik. Bu soʻz ham ikki xil: tarixiylik va zamonaviylik xususiyatini ifodalashga xizmat qilgan. Uning dastlabki tarixiy maʼnosi: hashamatli bino, qasr; karvonsaroy. Oʻtmishdagi xon, amir va ularning oila aʼzolari yashaydigan turar joy (masalan, Samarqanddagi Koʻksaroy, Shahrisabzdagi Oqsaroy, Buxorodagi Ark binosi, Xivadagi Abdullaxon saroyi binosi va h.k). Mazkur soʻzning zamonaviylik kasb etgan keyingi maʼnosi ham hozirgi vaqtda faol qoʻllanyapti. *Saroy* – biror bir ijtimoiy faoliyat uchun moʻljallab qurilgan zamonaviy inshoot, saroy (masalan “Istiqlol” sanʼat saroyi, JAR sport saroyi, Turkiston madaniyat saroyi kabi).

Bob boʻyicha xulosalar

1. Til tizimi har doim uzluksiz ravishda yangi lugʻaviy birliklar va oʻzlashma soʻzlar hisobiga boyib boradi, muayyan davrlardan soʻng ayrim soʻzlar dastlabki anglatgan maʼnosini yoʻqotib, hayotiy zaruriyat tufayli yangi maʼno hosil qiladi va tilning taraqqiyot qonuniyatlariga toʻla mos keladi.

2. Tildagi har bir soʻz kommunikativ ehtiyoji bilan tugʻiladi. Lekin yangi paydo boʻlgan har bir soʻz ham tilda oʻz mavqeyiga ega yoki ega boʻlmasligi mumkin. Lugʻat boyligida oʻz oʻrniga ega boʻlmasdan individual nutqqa xos va shu nutq doirasidagina qolib ketadigan, tasodifiy yoki zaruriyat tufayligina yaratilgan ayrim leksemalar oʻzining betakrorligi bilan adabiy meʼyordan chetda boʻlishi bilan ajralib turadi.

3. Doston kuylashda, syujetning epik bayonida xalq baxshisi beixtiyor yangi-yangi soʻzlarni qoʻllash imkoniyatiga egaki, bu uning badiiy sanʼat sohasida mahorati, ijodkorlik qobiliyatiga bogʻliq. Bu ham folklordagi oʻzgarmas qonuniyat. Chunki doston ijrosidagi badihagoʻylik tufayli kutilmagan, gʻayriodatiy, yangi-yangi epik qahramon yaratish ehtiyoji, syujet oqimiga mos va xos epik ifodani qiziqarli tarzda berish zaruriyati har qanday xalq baxshisini shunday yoʻl tutishga undaydi. Ana shu ijodiy ehtiyoj tufayli xalq baxshi-shoirlarning oʻzgacha va baxshiyona soʻz qoʻllashlari tilda okkozionalizmlarning yaratilishiga sabab boʻladi. Xalq dostonlarida faol uchraydigan bunday tipdagi soʻzlarni oʻrganish esa alohida tadqiqot olib borishni talab etadi.

UMUMIY XULOSALAR

1. “Zevaxon” dostoni millatimiz tili, madaniyati va qadriyatlarini, xalqimizning turmush tarzi, ijtimoiy hayoti va urf-odatlarini beqam-u ko‘st ifodalovchi mumtoz badiiy manba sanaladi. Mazkur doston bulung‘urlik mashhur baxshi Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lining epik repertuaridan munosib o‘rin olganligi aniqlangan.

2. “Zevaxon” dostonining lisoniy xususiyatlarini keng qamrovda tahlil qilish, xususan, leksikografik manbalarini yaratish va olingan natijalarni ilm ahli uchun e‘lon qilish, dostonning grammatik, semantik-stilistik va genetik xususiyatlarini o‘rganish masalalariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar bugungi kungacha amalga oshirilmagan. Ushbu dissertasiyadagi materiallar boshqa xalq dostonlari tilini o‘rganishda muhim manba sifatida xizmat qila olishi ochib berilgan.

3. Dostonda qo‘llangan so‘zlarning miqdori: so‘zshakllar 5053 tani, jami qo‘llanish holati 15859 tani tashkil etdi. Doston tili bo‘yicha tuzilgan leksikografik manbalar tahlilining ko‘rsatishicha, dostonda nofaol va kam iste‘moldagi so‘zlar, adabiy orfoepik me‘yordan farqlanuvchi va adabiy nutqda muqobili bor so‘zlar, adabiy nutqda muqobili yo‘q so‘zlar, shuningdek, qipchoq shevasiga xos so‘zlar qo‘llanilganligi aniqlangan.

4. Yozuvchilik leksikografiyasi bugungi kunda o‘zining yangi taraqqiyot bosqichiga kirdi. Buni ikki omil bilan izohlash mumkin: birinchisi: soha rivojiga zamonaviy kompyuter texnologiyalarining joriy qilinganligi, xilma-xil xarakterdagi lug‘atlar tuzishga mo‘ljallangan kompyuter dasturlarining yaratilganligi va mutaxassis olimlarning muayyan tajribalari to‘plaganligi bilan belgilanadi. Ikkinchi omil: ayni dasturlar asosida har qanday badiiy matndagi harf chastotasi va so‘z tarkibida joylashish o‘rni, so‘zning morfem tarkibidagi ma‘noli qismlar, minimal fikrni ifoda etishga mo‘ljallangan kichik sintaktik birliklarni ajratish, zarurat tug‘ilganda, tahlilga olingan har qanday lingvistik birlikni matndagi mikroqurshovdan ajratib berish singari imkoniyatlar mavjudligi aniqlangan.

5. Yozuvchi yoki shoir ijodi, ularning muayyan asari, shuningdek, xalq ogʻzaki ijodi namunalari ham leksikografik kuzatishlar obyekti boʻlganligi bois ishda filologiya ilmidagi matnlar statistikasiga bagʻishlangan 20 dan ortiq ilmiy tadqiqotlar, monografiyalar va konkordans lugʻatlar tahlil etildi. Lekin globallashuv jarayoni shiddat bilan borayotgan bugungi kunda adabiy-badiiy matnlarning lisoniy tahlilida leksikografik va statistik metodlarga tayanib ish koʻrish, ayniqsa, yozuvchilik leksikografiyasi bilan shugʻullanish, xususan, xalq dostonlarining statistik qurilishi tahlilini amalga oshirish, ularning oʻziga xos lisoniy xususiyatlari haqida ilmiy tadqiqotlar olib borish kabi qator masalalar oʻzining dolzarbligini saqlab turganligi ochib berilgan.

6. “Zevarxon” dostonidagi soʻzlarning lisoniy tahlilini amalga oshirishda zamonaviy kompyuterning maxsus dasturlari asosida uning leksikografik manbalari (alfavitli, chastotali va ters lugʻatlar) tuzildi. Ishda ayni lugʻatlarning tuzilish tarkibi, bajargan vazifalari, bir-biridan farqli jihatlari tegishli lisoniy matn manbalari bilan asoslab berildi; doston tilidagi yuqori va kam chastotali soʻzlarning nisbati, xalq baxshisining soʻz qoʻllash mahorati, boshqa professional xalq shoirlaridan farqli va mushtarak uslubi dalillangan.

7. “Zevarxon” dostonidagi soʻzlar maʼnoviy xususiyatlariga koʻra mustaqil soʻz turkumlari kesimida oʻrganildi. Ularda moddiylik, semantik qurilish, tarixiylik, etimologik, maxsuslik, tarkibiylik, shuningdek, maʼno, shakl, qoʻllanish, uslubiy boʻyoq, grammatik, semantik-stilistik va pragmatik boshqa qator xususiyatlar mavjudligi, ularning har biri serqirraligi bilan ajralib turishi lisoniy dalillar orqali asoslab berilgan.

8. Mustaqil soʻz turkumlarining yasalish xususiyatlarini oʻrganish davomida 20 ga yaqin yasovchi qoʻshimchalar va 70 ga yaqin morfologik koʻrsatkichlarning matn tarkibida mavjudligi aniqlandi. Ularning doston matnidagi alohidalik va oʻziga xoslik masalasi, shuningdek, grammatik va semantik-stilistik xususiyatlari mavjud dalillar bilan asoslab berilgan.

9. Dostondagi leksik birliklar genetik jihatdan ikki xil: oʻz qatlam va oʻzlashgan qatlam birliklari. Dostondagi oʻzlashgan soʻzlarning qoʻllanishi

qamrovi keng, xususan, arabiy va forscha-tojikcha soʻzlar juda faol ekanligi aniqlandi. Doston kuylovchisining ijro davomida bu tipdagi soʻzlarni maqsadli qoʻllaganligini va xalqona ekspressivlikning lisoniy imkoniyatlardan samarali foydalanganligini kuzatdik. Dostonda qoʻllanilgan soʻzlarning koʻp maʼnolilik xususiyatlari uning semantik qurilishiga oid lisoniy omil sanaladi. Tadqiqotda turkiy tillarga, oʻzlashgan arabiy soʻzlarga va forscha-tojikcha oʻzlashmalarga xos koʻpmaʼnolilik masalasi alohida oʻrganildi. Matnda qoʻllanilgan birdan ortiq maʼnoga egalik (polisemiya) deyarli barcha soʻz turkumlariga xos ekanligi mavjud materiallar asosida dalillangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik

nashrlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон “2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси тўғрисида” // www.lex.uz.

2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сонли Фармони // www.lex.uz.

3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг халқаро бахшичилик санъати фестивали очилишига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи // Халқ сўзи, 2019, 7 апрел.

4. 2019 йил 21 октябрдаги ПФ-5850-сон “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида” // www.lex.uz.

5. 2020 йил 20 октябрдаги ПФ-6084-сон “Мамлакатимизда ўзбек тилини янада ривожлантириш ва тил сиёсатини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармони // www.lex.uz.

6. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Қадимий ёзма манбаларни сақлаш, тадқиқ ва тарғиб қилиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2017 йил 24 майдаги ПҚ-2995-сонли Фармони // www.lex.uz

7. 2018 йил 1 ноябрдаги ПҚ-3990-сон “Халқаро бахшичилик санъати фестивалини ўтказиш тўғрисида”ги қарори // www.lex.uz.

8. 2019 йил 4 октябрдаги ПҚ-4479-сон “Ўзбекистон Республикасининг “Давлат тили ҳақида”ги Қонуни қабул қилинганининг ўттиз йиллигини кенг нишонлаш тўғрисида”ги қарори // www.lex.uz.

9. Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 12 декабрдаги 984-сон “Давлат тилини ривожлантириш департаменти тўғрисидаги Низомни тасдиқлаш ҳақида”ги қарори // www.lex.uz.

II. Ilmiy-nazariy adabiyotlar

1) Milliy nashrlar

10. Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. – Тошкент. Фан, 1983.
11. Бўронов Ж.Б. Инглиз ва ўзбек тиллари қиёсий грамматикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1973.
12. Дониёров Х. Эски ўзбек тили ва қипчоқ диалектлари.– Тошкент: ТошДПИ нашри, 1976. – 110 б.
13. Жуманазарова Г.У. Фозил Йўлдош ўғли дostonлари тилининг лингвопoетикаси. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, – Тошкент: 2012.
14. Иброҳимов А. Бобур “Девон”и тилидаги ўзлашма лексика. – Тошкент: ТДШИ, 2006. – б.
15. Ризаев С.А. Ўзбек тилшунослигида лингвостатистика муаммолари. – Тошкент: Фан, 2006. – б.
16. Имомназаров М. Мухаррир муқаддимаси // Қурбонбеков А. Ҳофиз ғазалиётида маънолар силсиласи. – Тошкент: Фан, 1994. – б.
17. Имомов К., Мирзаев Т., Саримсоқов Б., Сафаров О. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. Дарслик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1990. – 236 б.
18. Қўчқортoев И. Сўз маъноси ва унинг валентлиги. – Тошкент: 1977, – 56 б.
19. Қўчқортoев И. Ўзбек тилида нутқ феълларининг валент таҳлили. – Тошкент: 1978. – б.
20. Неъматов Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 65 б.
21. Расулов Р. Ўзбек тилида ҳолат феъллари ва уларнинг облигатов валентликлари. –Тошкент: 1989. – б.

22. Расулов Р. Ҳолат феълларининг лексик-маънонтик гуруҳлари ва уларнинг валентлиги. – Тошкент: 1991. – б.
23. Ризаев С. Ўзбек тилшунослигида лингвостатистика муаммолари. – Тошкент: Фан, 2006. – б.
24. Содиқова М. Ҳозирги ўзбек тилида сифат. – Тошкент: Фан, 1974. . – б.
25. Ўзбек халқ шевалари морфологияси. – Тошкент, 1984, -26 б.
26. Ўринбоев Б., Ўринбоева Д. Ҳозирги ўзбек тилининг сўзлашув услуби. – Тошкент: Фан, 1991. -114 б.
27. Ўринбоев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида вокатив категория. – Тошкент: Фан, 1972, – 32 б.
28. Ўринбоев Д. Ўзбек халқ оғзаки дostonлари тилининг лингвостатистик таҳлили. – Самарқанд, СамДУ нашри, – 136 б.
29. Ўринбоева Д. Ўзбек халқ дostonлари тилининг лингвостатистик таҳлили. – Самарқанд: СамДУ нашри, 1994, – 86 б.
30. Ходжимусаева Н. Ислом шоирнинг “Орзигул” дostonининг лисоний тадқиқи, –Тошкент: Инновация-ЗИЁ, 2019. – 52 б.
31. Ҳамидов З. Луғатшунослик тарихи ва қўлёзма луғатлар. – Тошкент: Адолат, 2004. – б.

2) Xorijiy nashrlar

32. Dor Remy. Nourali ou les aventures lyriques d'un heros epique. – Paris, 1991; Dor Remy. Nourali le Preux et Marghoumon Peri. Bilingue ouzbek-francais. IFEAC. – Paris, 2005. – P. 23-25.
33. Dr.Naraale Ratnaakar. Geetaa kaa shabdakosh. Prabhaat Prakaashan Dilli. 2003.
34. Karl Rechl. Rawsan. Ein uzbekishes mundliches Epes. Otto Harrassowitr.Wiesbade, 1985; Райхл Карл. Тюркский эпос. – М.Вост. литер., 2008. – С. 211.
35. Yashpal Tandon. A.Corcordance of Purana-Contents.

36. Бектаев К.Б., Пиатровский Р.Г. Математические методы в языкознании. Ч. 1. Теория вероятностей и моделирование норма языка – Алма-Ата, 1973. – С.53.
37. Бондоренко А.В. Грамматическая категория и контекст. –Л., 1971.
38. Боровков А.К. Изменения в области узбекской лексики и новый алфавит (на основе русской графики) / Известия АН УзССР. – Ташкент: изд-во “Фан”, 1940, с.18-37.
39. Иранская, тюркская, арабская филология. Лингвостатистика. – Ташкент, 1964, с.44-58.
40. Карпова О.М. Ступин Л.П. Советская писательская лексикография // Вопросы языкознания, 1982, №1. – с.120.
41. Касимбеков Н.Н. и др. Использование средств ЭВМ в составлении частотного словаря. Восточное языкознание. Сб. Научн. тр. ТашГУ. Т., 1987. – с.36.
42. Киссен И.А. Некоторые данные о частотности фонем в современном узбекском литературном языке / Научные труды ТашГУ. Новая серия, вып.229.
43. Востоковедение (языки, литература, история стран Азии). – Ташкент, 1964, с.67-79.
44. Киссен И.А. Опыт статического исследования частотности лексики передовых статей газеты “Қизил Ўзбекистон” / Научные труды ТашГУ. Новая серия, вып.247.
45. Мухамедов С, Пиотровский Р.Г. Инженерная лингвистика и опыт системно-статического исследования узбекских текстов. – Ташкент: Фан, 1986. – 164 с.
46. Общее языкознание. Методы лингвистических исследований.-М., Наука. 1973. – С.84.
47. Решетов В.В. Лексический состав современной узбекской прессы / Сб. “Проблемы языка”, вып.І. –Ташкент, 1934, – с.81.

III. Lug‘atlar

48. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. I-V томлар. Т.: Фан, 1983-1985. – б.
49. Абдурахмонова М. Мирзо Ғолиб ғазалиётининг жомъе луғати // Шарқшунослик, №1. 2004.
50. Б.Йўлдошев, Д.Ўринбоева. Ўзбек халқ дostonларининг частотали изоҳли фразеологик луғати. – Т.: “ЎзМЭ”, 2008. – 100 б.
51. Б.Йўлдошев, Д.Ўринбоева. Ўзбек халқ дostonлари тилининг алфавит частотали луғати. – Т.: “ЎзМЭ”, 2006. – 185 б.
52. Васильев А.А. Фразеологический словарь языка М.А.Шолохова. 1-том. – Стерлитамак: Изд-в. Фобос, 2015. – 421 с.; 2-том, 2019. 410 с.
53. Древнетюркский словарь. – Ленинград: Наука, 1969. – С. 464.
54. Жуманазарова Г. “Ширин билан Шакар” дostonининг изоҳли луғати. – Тошкент: Фан, 2007. –150 б.
55. Жуманазарова Г., Ҳамдамова Ҳ. “Рустамхон” дostonи тилининг луғатлари. – Жиззах, 2021. – 485 б.
56. Жуманазарова Г.У. Қодирова Г.С. “Зевархон” дostonи тилининг луғатлари. – Жиззах, 2023. – 300 б.
57. Каримов С., Қаршиев А., Исроилова Г. Абдулла Қаҳҳор асарлари тилининг луғати. Алфавитли луғат. – Т.: “ЎзМЭ”, 2007. – 434 б.
58. Каримов С., Қаршиев А., Исроилова Г. Абдулла Қаҳҳор асарлари тилининг луғати. Частотали луғат. – Т.: “ЎзМЭ”, 2007. – 420 б.
59. Каримов С., Қаршиев А., Исроилова Г. Абдулла Қаҳҳор асарлари тилининг луғати. Терс луғат. Т.: “ЎзМЭ”, 2007. – 423 б.
60. Киссен И.А. Словарь наиболее употребительных слов современного узбекского литературного языка. – Ташкент: Ўқитувчи, 1972.
61. Қўнғуров Р., Каримов С. Зулфия поезияси тилининг луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1981.
62. Махматмуродов Ш. Словарь языка поэтических произведений Хамзи. – Т.: изд-во литературы и искусства имени Гафура Гуляма, 1989, – С.6.

63. Маҳмуд Қошғарий. Девону луғотит-турк. Уч жилдлик.- Тошкент: Фан, 1963. – 390 б.
64. Мухамедов С. Ўзбек тилининг алфавитли-частотали луғати (газета материаллари асосида). – Т.: Фан, 1982. – 110 б.
65. Мирзаев Т., Эшонкул Ж., Фидокор С. “Алпомиш” достонининг изоҳли луғати. – Тошкент: 2007, – 162 б.
66. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1978. – 408 б.
67. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. Икки жилдлик. – Тошкент: Университет, 2000. 1– жилд. – Б. 250, 2-жилд. – Б. 572.
68. Ризаев С. Статистическая структура лексики языка “Дивана” Хамзи Хаким-заде Ниязи (частотный словарь и конкорданс). – Ташкент: Фан, 1989. – 248 с.
69. Ризаев С. Ўзбек совет болалар адабиёти тилининг частотали луғати. – Т.: Фан, 1980. – 160 б.
70. Ризаев С., Бўронов Н. Абдулла Қаҳҳор “Синчалак” повести тилининг частотали луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1986. – 170 б.
71. Севортян Э.В. Этимологический словарь тюрских языков.- М.: Наука, 1974. – С.98.
72. “Словарь языка Пушкина”. В 4-х т. Отв.ред.акад. В.В.Виноградов. Т. 1. – Москва: Гос.изд.иностр. и нац. словарей. 1956.
73. Словарь языка русских произведений Шевченко. В 2-х. томах. 1977.
74. Словарь языка Абая (на казахском языке). – Алма Ата: Наука, – 734 с.
75. Словарь языка М.Горького. – Ленинград: Издательство Ленинградского университета, Вып 1-6; 1982.
76. С.Умирова. Усмон Азим асарлари тилининг луғати. (алфавитли луғат, частотали луғат, терс луғат). Самарқанд, СамДУ нашри, 2019.
77. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. (Беш томлик. –Т.:1. Тошкент: ЎзбМЭ, 2006.; Т.2.– 2006; Т.3.– 2007.; Т.4. – 2008.; Т.5. – 2008.

78. Ўринбоева Д. “Ўзбек халқ оғзаки ижоди асарларининг қиёсий частотали луғати”. Самарқанд, СамДУ нашри, 2017.

79. Ўринбоева Д. Ўзбек халқ дostonлари тилининг частотали луғати. – Т.: Фан, 2006. – 244 б.

80. Ўринбоева Д., Умурзоқов У. Ўзбек халқ дostonлари тилининг алфавитли-частотали луғати. – Т.: “ЎЗМЭ”, 2006. – 395 б.

81. Ўринбоев Б. Бозорбоев К. “Алпомиш” дostonи фразеологизмларнинг таъбири. – Самарқанд, 2008, – 120 б.

82. Частотный словарь Ю.М.Лермонтова / Лермонтовская энц-я. – Москва, 1981.

83. Частотный словарь русского языка (под редакцией Л.Н.Засориной). – Москва: Русский язык, 1977.

84. Частотный русско-узбекский словарь-минимум. – Ташкент: Ўқитувчи, 1967, – С 259.

85. Ходжимусаева Н. “Орзигул” дostonи тилининг луғати. , – Тошкент: Фан ва технологиялар, 2012. – 387 б.

IV. Badiiy adabiyotlar

86. Зевархон. (Айтгувчи Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи М.Алавия, нашрга тайёрловчи М.Муродов, – Тошкент: 1986.)

87. Мирзаев Т. Дostonлар гултожи // Ўзбек халқ ёдгорликлари. 1-жилд, – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт – матбаа ижодий уйи, 2015.

V. Dissertatsiya va avtoreferatlar

88. Ашуров Д.А. “Алпомиш” дostonининг лингвокултурологик хусусиятлари. Филол. фан. б. фалс. док. ..дисс.автореф. - Наманган, 2021. – 27 б.

89. Бафоев Б. Лексика произведений Алишера Навои (лексико-семантические, статические и тематические исследования). Дисс...докт. филол. н. – Ташкент, 1989.

90. Бўриев С.Н. Ургут тумани микротопонимларининг лексик-семантик таҳлили: Филол.фан.номзод. ..дис.авторeref. –Тошкент, 2010.
91. Жуманазарова Г. “Ширин билан шакар” достонининг луғавий ва лингвопоетик хусусиятлари (Фозил Йўлдош ўғли варианти асосида): Филол.фан.номзод. ..дис.авторeref., – Тошкент, 2008, – Б. 21.
92. Жуманазарова Г. Фозил Йўлдош ўғли достонлари тилининг лингвопоэтикаси (лексик-семантик, лингвостилистик ва лингвостатистик таҳлил). Филол.фан.д-ри. ...дисс.авторeref. - Тошкент, 2017. – 145 б.
93. Жалилова Н.Р. Бадиий матндаги қон-қариндошлик терминларининг типологик ва структурал-грамматик таснифи. Филол.фан.б.фалс.док. ..дисс.авторeref. – Самарқанд, 2019, – 29 б.
94. Ингён О. “Алпомиш” ва “Жумўнг” достонларининг қиёсий-типологик таҳлили. Филол.фан.д-ри. ...дисс. дис-я. – Тошкент, 2014. – 128 б.
95. Қуронбеков А. Ҳофиз ғазалиёти лексикасининг маъно структурасини тадқиқ этиш йўсинлари: Филол.фан.д-ри. ...дис-я. – Тошкент, 1994. – 123 б.
96. Мустаев К. Поэтика и числовых знаков – символов в узбекском и французском героическом эпосах: АКД, – Самарқанд, 1994.
97. Мадрахимов И.С. Ўзбек тилида сўзнинг серқирралиги ва уни таснифлаш асослари: Филол.фан.номзод. ..дис.авторeref., –Тошкент, 1994. – 28 б.
98. Муҳамедов С. Статический анализ лексико-морфологической структуры узбекских газетных текстов: Авторeref. дис. ...канд.филол.наук. – Ташкент, 1980. – 25 с.
99. Оллоёров Қ.М. Хоразм достонлари ономастикаси (“Гўрўғли” ва “Ошиқнома” туркум достонлари асосида). Филол. фан. б. фалс. док. ..дисс.авторeref. – Самарқанд, 2018. – 46 б.
100. Пардаева З.Н. Ўзбек тилида сифатларнинг маъновий-услубий хусусиятлари. Филол.фан.номзод. ..дис.авторeref. – Самарқанд, 2004. – 28 б.

101. Раҳимов А.С. Ўзбек халқ достонлари лексикасининг қиёсий-тарихий таҳлили (Эргаш Жуманбулбул ўғли ижоди мисолида): Филол.фан.номзод. ..дис.авторреф. – Самарқанд, 2002. – 28 б.
102. Ризаев С. Ўзбек тилининг лингвостатистик тадқиқи. Филол.фан.д-ри. ...дис-я. – Тошкент, 2008. – 290 б.
103. Рўзимбоев Х.С. Жанубий Хоразм достонлари тилининг луғавий-маъновий таҳлили (“Шаҳриёр” ва “Маликаи Завриё” достонлари мисолида) Филол.фан.номзод. ..дис.авторреф. – Тошкент, 2000. – 32 б.
104. Сариев С.М. Хоразм “Гўрўғли” достонларининг қўлёзма вариантлари. Филол.фан.номзод. ..дис-я, – Тошкент, 2007. – 108 б.
105. Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини систем сифатида тадқиқ этиш. Филол.фан.д-ри. ...дис.авторреф. – Тошкент, 2005. – 60 б.
106. Содиқова М.С. Слова обозначающие цвет и окраску в узбекском языке. АҚД. Ташкент, 1963.
107. Тожибоева М.Р. Алишер Навоийнинг «Илк девон»идаги арабча сўзларнинг лексик-семантик талқини: Филол.фан.номзод. ..дис.авторреф. – Тошкент, 2011. – 56 б.
108. Турсунов С.Лексические особенности дастана “Алпамыш”: АҚД. – Ташкент, 1990.
109. Умаров И. Фозил Йўлдош ўғлининг “Малика айёр” достони лексикаси (тарихий-этимологик, функционал-семантик ва стилистик таҳлил). – Филол. фан. б. фалс. док. ..дисс.авторреф. – Фарғона, 2020. – 27 б.
110. Ўринбоева Д. Халқ оғзаки ижоди: жанрий-лисоний ва лингвостатистик тадқиқ муаммолари, Филол.фан.д-ри. ...дис-я., – Самарқанд, 2019. – 128 б.
111. Ўтанова С. Алишер Навоий ғазалиётида ранг символикаси. Филол.фан.номзод. ..дис.авторреф. – Тошкент, 2007. – 26 б.
112. Хаджимусаева Н. “Орзигул” достонининг статистик, семантик-стилистик ва лингвопоэтик тадқиқи. Филол. фан. б. фалс. док. ..дисс-я. – Жиззах, 2020. – 170 б.

113. Халиков А.А. “Гўрўғлининг туғилиши” достони тилининг лексик-семантик хусусиятлари: Филол.фан.номзод. ..дис.автореф. – Тошкент, 2009 – 48 б.

114. Ходжиев Ю.Н. “Алпомиш” достонидаги шахс маънавий сифатларини ифода этувчи атов бирликларнинг семантик-структур, концептуал ва лексикографик хусусиятлари. – Филол. фан. б. фалс. док. ..дисс-я. – Тошкент, 2020. –121 б.

115. Холманова З. “Шайбонийхон” достони лексикаси (Пўлкан шоир варианты асосида): Филол.фан.номзод. ..дис.автореф. – Тошкент, 1998. – 39 б.

116. Холмуротова Ж. Шимолий Хоразм дostonлари лексикасининг функционал-услубий хусусиятлари: Филол.фан.номзод. ..дис.автореф. – Тошкент, 2000. – 28 б.

117. Ҳамдамова Ҳ. Рустамхон дostonи сўз бойлиги (лексикографик, функционал-семантик ва лингвостилистик таҳлил) - Филол. фан. б. фалс. док. ..дисс-я. – Жиззах, 2022. –170 б.

118. Ҳамраева Ё.Н. Ўзбек тилининг идеографик луғатини тузиш тамойиллари: Филол.фан.номзод. ..дис.автореф. – Тошкент, 2010. – 28 б.

119. Эшмуратов А.М. “Холдорхон” дostonининг лингвостилистик хусусиятлари (Эргаш Жуманбулбул ўғли варианты асосида). – Филол. фан. б. фалс. док. ..дисс-я. – Жиззах, 2021. –180 б.

120. Пардаев З.Н. Ўзбек тилида сифатларнинг семантик-услубий хусусиятлари. Филол.фан.номзод. ..дис.автореф. – Самарқанд, 2004. – 28 б.

121. Шоабдурахманов Ш. О художественных средствах языка поэмы “Равшан”: АКД.– Ташкент, 1949.

VI. Ilmiy to‘plam, jurnal va gazetalardagi maqolalar

122. Арзикулов Ҳ. Тил системаси – нутқ системаси – нутқ / СамДЧТИ профессор-ўқитувчиларининг IV илмий-назарий анжуман материаллари. – Самарқанд, 1998.

123. Арзиқулов Ҳ. Ўзбек лингвистик автоматининг назарий масалалари / Тил ва миллий маданият. Халқаро илмий-назарий конференция материаллари. Самарқанд, 2004 йил 26-27 ноябр. – Самарқанд: СамДЧТИ нашри, 2004.

124. Арзиқулов Ҳ., Хўжаёрова С. “Инсон-компютер-инсон” мулоқот тизимида тил ва нутқ нисбати // Хорижий филология, 2004, 2-сон.

125. Иброҳимов А. Частотали луғат ва конкорданс яратишда компютер технологияларининг аҳамияти // Тилшуносликнинг долзарб масалалари (Илмий мақолалар тўплами, III) – Тошкент, 2006.

126. Йўлдошев Б. Компютер лингвистикаси ва уни ўрганиш муаммолари ҳақида // Тил ва нутқ систем-сатҳ талқинида. Проф.Ҳ.Арзиқулов хотираси бағишланган халқаро илмий-назарий конференция материаллари. – Самарқанд: СамДЧТИ нашри, 2005.

127. Каримов С., Ашурова З. Зулфия асарлари луғатини тузиш ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, 2007, 6-сон.

128. Қурбонов Т. Бадиий асар тили луғатини тузиш тажрибасидан // Тилшуносликнинг долзарб масалалари (илмий мақолалар тўплами, III) – Тошкент, 2006.

129. Пўлатов А. Ўзбек компютер лингвистикаси муаммолари ва уларни ечиш йўллари // Тилшуносликнинг долзарб масалалари. Илмий мақолалар тўплами. IV. – Тошкент: ЎзМУ нашри, 2008.

130. Ризаев С. Ўзбек тили машина фондининг яратилишига доир / Тилшуносликнинг долзарб масалалари. Илмий мақолалар тўплами. IV. – Тошкент: ЎзМУ нашри, 2008.

131. Назаров К. Эгалик аффиксларининг –иси формаси ҳақида. ТашДУ илмий асарлари. – Тошкент, 1962 б.

132. Ўринбоева Д. Достонлар тилида фразеологик бирликлар // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 2007, №6.

133. Ўринбоева Д. Ҳамдам Арзиқулов – ўзбек инженер тилшунослиги илмий мактабининг асосчиси // Тил ва нутқ систем-сатҳ талқинида.

Проф.Ҳ.Арзиқулов хотирасига бағишланган халқаро илмий-назарий конференция материаллари. – Самарқанд: СамДЧТИ нашри, 2005.

134. Тўхлиев Б. “Қутадғу билиг” ранг рамзига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 2001, №3.